


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH ISNTITUTI
“AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI**

KOMILOV S.

“TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI”

**FANI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

NAMANGAN

Ushbu o‘quv-uslubiy majmuada «Ta’limda multimedia ilovalari» fanini o‘qitish bo‘yicha ta’lim texnologiyalari, ularni o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tish texnologiyalarini ishlab chiqishning usul va vositalari, ularning muhim belgilardan iborat ta’limni texnologiya qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

O‘quv-uslubiy majmua texnika oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini va talabalari hamda «Ta’limda multimedia ilovalari» fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash jarayonlariga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchi:

Komilov S. NamMQI “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi mudiri, t.f.f.d (PhD).

Taqrizchi:

Imomov A. NamDU, “Informatika” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga tadbiq qilish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I	SILLABUS	4
II	FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	14
III	NAZARIY MATERIALLAR	26
1.	Kirish. O'quv fanining maqsadi va vazifalari. Multimedia texnologiyalari haqida umumiy tushunchalar.	26
2.	Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi.	31
3.	Ovozli ma'lumotlar. Ovoz yozuvchi dasturlarning imkongiyatlari.	39
4.	Video ma'lumotlar. Video ma'lumotlarni tahrirlash texnologiyalari.	45
5.	Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari.	50
6.	Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish.	54
7.	Ma'lumotlarni multimediali namoyish etish.	60
IV	AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOT MATERIALLARI	66
V	KEYSLAR BANKI	85
VI	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	88
VII	GLOSSARIY	96
VIII	ADABIYOTLAR RO'YXATI	101

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

SILLABUS

FANNING QISQACHA TAVSIFI			
OTMning nomi va joylashgan manzili	Namangan muhandislik qurilish instituti		I.Karimov ko'chasi 12 uy
Kafedra	Axborot tizimlari va texnologiyalari		Sanoatni axborotlashtirish fakulteti tarkibida
Ta'lismoxasi va yo'nalishi	5111000		5330200 - Informatika va axborot texnologiyalari
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi haqida ma'lumot:	Kodirov Zohid Zokirxanovich		
Dars mashg'ulotini o'tkazish vaqtini va joyi	O'quv bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida 2-116	Kursning boshlanishi va davom etish muddati 6-7-semestrlar	Ta'lismoxasi o'quv rejasiga muvofiq 3 kurs 6 semestr 4 kurs 7 semestr
Individual grafik asosida o'qituvchining talabalar bilan ishlash vaqtini	Xaftaning Seshanba, Payshanba va Juma kunlari soat 8 ³⁰ dan 14 ⁰⁰ gacha		
Fanga ajratilgan o'quv soatlarni o'quv turlari bo'yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari		Mustaqil ta'lismoxasi
	Ma'ruza	Amaliy	
	14	16	39
			18
Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi	<p>“Ta'linda multimedia ilovalari” fani umumkasbiy fan hisoblanib 6-7 semestrlar davomida o'qitiladi. «Ta'linda multimedia ilovalari» fani mutaxassislik fanlar majmuasiga taaluqli bo'lib, oliv o'quv yurtlarida o'qitiladigan oliv matematika, informatika va axborot texnologiyalari, dasturlash texnologiyasi, kompyuter grafikasi va Web dizayn va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan. Bu fanlar malaka, bilimlarini kengaytirishga va yanada shakllantirishga katta yordam beradi.</p> <p>Fanni o'rganish natijasida ega bo'lingan bilimlar ixtisoslik fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishda va bitiruv malakaviy ishini bajarishda o'z ifodasini topadi.</p>		
	Fanning mazmuni		
Fanning dolzarblii va qisqacha mazmuni	<p>Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni</p> <p>Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislardan orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.</p>		

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbliji, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma'ruza mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

(6-semestr uchun)

Multimedia texnologiyalari haqida umumiy tushunchalar.

Multimedia tushunchasi, multimedia vosita va texnologiya sifatida. Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha: multimedia-axborot turlari, multimedianing texnik ta'minoti, multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish. Multimedia ilovalarni qo'llanilish sohalari va klassifikatsiyasi: multimedia ilovalarni klassifikatsiyasi, amaliy multimedia loyihalarni amalga oshirishga misollar, multimediali prezентatsiyalarni, bannerlarni va videoroliklarni amaliy masalalari. Axborotlarni o'tkazish kanallari. Video ma'lumotlarni saqlash standartlari, video ma'lumotlarni o'tkazish kanallari, ma'lumotlarni siqish va qayta tiklash usullari, interaktivlik tushunchasi va alomatlari, multimedia ma'lumotlarning imkoniyatlari.

Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi. Grafik ma'lumotlar: videotizimlar va ularni sozlash, grafik ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiy fayl formatlari, fayl formatlarini o'zgartirish, grafik ma'lumotlarni qosil qilish, namoyish etish va tahrirlash dasturlari, Windows da grafika ishslash, animasiya vositalari. Power Point dasturining grafiklarga animasiyalar o'rnatish. Flash dasturining multimediali imkoniyatlari. Power Point dasturida ovozli ma'lumotlar hosil qilish. Flash dasturida ovozli ma'lumotlar hosil qilish.

Ovozli ma'lumotlar. Ovozli ma'lumotlarni taqdim etuvchi fayl formatlar va asosiy tamoyillar; ovoz kartasini o'rnatish va uni sozlash; ovozli ma'lumotlarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish. Ovoz yozuvchi dasturlar bilan ishslash. Ovoz yozuvchi dasturlaring imkoniyatlari, Ovozli ma'lumotlarni xosil qilish va namoyish etish. Ovozni kiritish va aniqlash: mikrofonning texnik xarakteristikalari, ovozni yozishda nosozliklarni to'g'rilash, ovozni aniqlash texnologiyasini qo'llanilish sohalari, ovozni avtomatik aniqlash tizimi. Kompyuterli audio-texnologiyaning vositalari: ovozni raqamli qayta ishslash uchun qo'llaniladigan dasturiy vositalar, Sound Forge yoki Audacity dasturlari orqali ovozlarni yozish va tahrirlash, All sound recorder vositasida tovushli WAV fayllar bilan ishslash. tovushli fayllarni o'zgartirish.

Raqamli ovozlarni ko'pkanalli tahrirlash: Adobe Audition dasturi yordamida raqamli ovozlarni ko'pkanalli tahrirlash, ko'pkanalli

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

sessiya tushunchasi, mikrofonni ovoz yozish jarayonida qo'llanilishi, multitrekli sohada ovozli elementlar haqida ma'lumotlar.

(7-semestr uchun)

Video ma'lumotlar. Video ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan fayl formatlar va asosiy tamoyillar, video ma'lumotlarni hosil qiluvchi texnik vositalarni o'rnatish va sozlash; dasturiy vositalar yordamida videokliplarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish. Videokliplarni hosil qilish dasturlari bilan ishslash.

Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari. Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari: raqamli video ma'lumotlarni tahrirlaydigan Movie Maker, Pinnacle Studio, Adobe Premiere kabi dasturlarning interfeyslarining umumiy jihatlari, chiziqli bo'limgan montajning texnologiyasi, sahnalar ketma-ketligini loyihalashtirish, videolavhalarni yuklash.

Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish. Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish: ovoz va videoni qo'yish usullari, ma'lumotlarni siqish usullari, videoeffektlarni qo'llash imkoniyatlari, natijalarni darxol ko'rish rejimi, video mu'lumotlarda titrlarni hosil qilish, titrlarga animatsiya berish, rolikni nashr qilish, tayyor rolikni saqlash, rolikni diskga yozish.

Ma'lumotlarni multimediali namoyish etish. Namoyish hosil qilishning asosiy yo'llari, namoyishning mazmuni, tuzilishi va parametrлari. Namoyishni hosil qilish va tahrirlashda foydalilaniladigan dasturlar. O'qitishda multimedia texnologiyalari. O'qitishda multimedia texnologiyalari: pedagogik maqsadlarga erishish uchun namoyish etiluvchi ma'lumotlarni yig'ish, mazmunini boyitish. Metodik qo'llanmalarni namoyish dasturlari asosida yaratish. Multimedia va Internet.

Amaliy mashg'ulotlari

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli xil jarayonlarning parametrlarini hisoblash dasturlarini tuzish asoslarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

(6-semestr uchun)

Multimedia tushunchasi, multimedia vosita va texnologiya sifatida. Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha. Multimedia-axborot turlari. Multimedianing texnik ta'minoti. Multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish.

Grafik ma'lumotlarni hosil qilish. Grafik ma'lumotlar videotizimlar va ularni sozlash. Grafik ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiy fayl formatlari. Multimediali fayl formatlarini o'zgartirish, namoyish etish va tahrirlash dasturlari.

Windows da grafika ishslash, animasiya vositalari. Power Point dasturining grafik animatsiyalari. Power Point dasturida ovozli ma'lumotlarni hosil qilish. Flash dasturining multimediali

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

imkoniyatlari. Flash dasturida ovozli ma'lumotlarni hosil qilish.

Ovozli ma'lumotlarni taqdim etuvchi fayl formatlar va asosiy tamoyillar. Ovoz kartasini o'rnatish va uni sozlash. Ovozli ma'lumotlarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish.

Ovoz yozuvchi dasturlar bilan ishslash. Ovoz yozuvchi dasturlaring imkongiyatlari. All sound recorder vositasida tovushli WAV fayllar bilan ishslash. Tovushli fayllar bilan ishslash va ularni o'zgartirish.

(7-semetr uchun)

Video ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan fayl formatlar va asosiy tamoyillar. Video ma'lumotlarni hosil qiluvchi texnik vositalarni o'rnatish va sozlash.

Dasturiy vositalar yordamida videokliplarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish. Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlashda foydalaniladigan dasturiy vositalar tahlili. Movie Maker, Pinnacle Studio, Adobe Premiere kabi dasturlarning interfeyslarining imkoniyatlari. CHiziqli bo'lmaning montajning texnologiyasi, sahnalar ketma-ketligini loyihalashtirish va videolavhalarni yuklash.

Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish: ovoz va videoni qo'yish usullari, ma'lumotlarni siqish usullari, videoeffektlarni qo'llash imkoniyatlari va natijalarni darxol ko'rish rejimi. Video mu'lumotlarda titrlarni hosil qilish, titrlarga animatsiya berish, rolikni nashr qilish, tayyor rolikni saqlash va rolikni diskga yozish. Ma'lumotlarni multimediali namoyish hosil qilishning asosiy yo'llari. Namoyishning mazmuni, tuzilishi va parametrlari. Namoyishni hosil qilish va tahrirlashda foydalaniladigan dasturlar.

O'qitishda multimedia texnologiyalarining samaralari. O'qitishda multimedia texnologiyalari: pedagogik maqsadlarga erishish uchun namoyish etiluvchi ma'lumotlarni yig'ish, mazmunini boyitish. Metodik qo'llanmalarni namoyish dasturlari asosida yaratish. Multimedia va Internet.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nigmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari

(6-semetr uchun)

Multimedia-axborot turlari. Multimedianing texnik ta'minoti. Multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish. Grafik

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

ma'lumotlarni hosil qilish. Grafik ma'lumotlar videotizimlar va ularni sozlash. Grafik ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiy fayl formatlari. Multimediali fayl formatlarini o'zgartirish, namoyish etish va tahrirlash dasturlari.

Windows da grafika ishslash, animasiya vositalari. Power Point dasturining grafik animatsiyalari. Power Point dasturida ovozli ma'lumotlarni hosil qilish. Flash dasturining multimediali imkoniyatlari. Flash dasturida ovozli ma'lumotlarni hosil qilish.

Ovozli fayllarni tahrirlaydigan Audacity dasturining imkoniyatlari bilan tanishish. Audacity dasturida ovozli fayllarni yozishni o'rganish va ularni taqrirlash.

Audacity dasturida ovozli ma'lumotlarni mikshershish. Audacity dasturida ovozli ma'lumotlarni montaj qilish.

Audacity dasturida har xil effektlarni qosil qilishda filtrlardan foydalanish va ularni ishlatilishni o'rganish.

Audacity dasturida filtrlar: FFT – filtr, Wah-Wah, bazoviy chastotalarni kuchaytirilishi, GVerb, tonning yuqoriligini o'zgartirish, tezlikni o'zgartirish, tonni o'zgartirish, signalni normallashtirish va kuchaytirish.

Ovozli fayllarni tahrirlaydigan Adobe Audition dasturi: ovozni yozish, namoyish qilish va saqlash, ovozli yo'lakchani masshtablashtirish

Adobe Audition dasturi: Time oynasi, Levels i Status Bar; aniq ajratish uskunalar; "audio" oynasini boshqaradigan bo'limlar.

Adobe Audition dasturining uskunalar bilan tanishish va ular bilan ishslashni o'rganish. Adobe Audition dasturida effektlardan foydalanish va ularni ishlatilishni o'rganish.

Adobe Audition dasturining menyusidagi buyruqlar bilan tanishish va ular bilan ishslashni o'rganish.

Adobe Audition dasturida "Multitrek" (Multitrack) ko'rinishning tuzilishi va ishslashini o'rganish.

(7-semestr uchun)

Video ma'lumotlarni qayta ishlaydigan Movie Maker dasturi interfeysi bilan tanishish va unda ishslashni o'rganish.

Video ma'lumotlarni qayta ishlaydigan Pinnacle Studio dasturi interfeysi bilan tanishish va unda ishslashni o'rganish.

Video ma'lumotlarni qayta ishlaydigan Adobe Premier Pro dasturi. Dasturning interfeysi bilan tanishish. Audio va video ma'lumotlarni ishlatlan holda slayd-shousini yaratish

Adobe Premier Pro dasturi: teksturani ishlatgan xolda butun ekranga teksti hosil qilish. Logotipni interfeysi bilan tanishish va unda ishslashni o'rganish hosil qilish.

Shablon asosida teksti hosil qilish. Xarakatlanayotgan satrni hosil qilish. Beze uskunasi yordamida chiziqni chizish. Beze konturi bo'yicha teksti hosil qilish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Har xil yo'lakchalarda joylashgan kliplarga o'tish. Rolikga audio effektlarni qo'shish. Rolikga video effektlarni qo'shish. Video mu'lumotlarda titrlarni hosil qilish, titrlarga animatsiya berish, rolikni nashr qilish, tayyor rolikni saqlash va rolikni diskga yozish.

Ma'lumotlarni multimediali namoyish hosil qilishni o'rganish. Namoyishning mazmuni, tuzilishi va parametrlari bilan tanishish.

Namoyishni hosil qilish va tahrirlashda foydalilaniladigan dasturiy vositalar (Power Point, Corel Draw, Macromedia Flash va x.k) bilan ishlash.

O'qitishda multimedia texnologiyalarining samaralari. O'qitishda multimedia texnologiyalari: pedagogik maqsadlarga erishish uchun namoyish etiluvchi ma'lumotlarni yig'ish, mazmunini boyitish.

Metodik qo'llanmalarni namoyish dasturlari asosida yaratishni o'rganish. Multimedia va Internet.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"Ta'linda multimedia ilovalari" fanidan kurs ishi muayyan mavzu bo'yicha umumiylar yaxlitlikka ega ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi ish hisoblanadi. Kurs ishi dasturlash faoliyati rivojlanishi darajasiga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi.

Kurs ishi mavzuning dolzarbliji va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o'zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta'minlashdir. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri shakllantirish talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarni mantiqiy bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning salohiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nigmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlagan holda reja tuziladi va shu asosida bajariladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda dasturlarni yaratishning o'ziga xosligi, xorijiy davlatlarning tajribalari va orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda belgilangan muammolarning echimi yuzasidan yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiylar qo'yiladi:

- masalaning qo'yilishi;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- masalani echish algoritmini yaratish;
- masalani echish dasturini yaratish;
- olingan natijalarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilish;
- kurs ishini qo‘yilgan talablar bo‘yicha rasmiylashtirish.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari

1. Zamonaviy dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish.
2. WEB-texnologiyalari asosida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish
3. Maxsus dasturlar asosida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish.
4. Avtomatlashgan o‘rgatuvchi sistemalar va unda pedagogik dasturiy vositasining yaratish.
5. O‘qitish uchun axborot resurslarining integratsiyasi
6. Namoyish etuvchi dasturlar va ularning yaratish texnologiyasi
7. Nazorat qiluvchi dasturlar va ularning yaratish texnologiyasi
8. O‘rgatuvchi dasturlar va ularning yaratish texnologiyasi
9. Elektron darsliklarini taxlil qilish
10. Ovozli effektlar uchun dasturiy ta'minot va ularning turlari bilan ishslash
11. Video effektlar uchun dasturiy ta'minot va ularning turlari bilan ishslash
12. Multimediyali pedagogik-dasturiy vositalarni yaratish
13. WEB-texnologiyalari asosida elektron lug‘atini yaratish
14. WEB-texnologiyalari asosida o‘quv qo‘llanma yaratish
15. WEB-texnologiyalari asosida test dasturini yaratish

Fan bo‘yicha talabalarning malakasiga qo‘yiladigan talablar

«Ta'limda multimedia ilovalari» fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- multimedia tizimlari va texnologiyalari;
- ob'ektga mo‘ljallangan dasturlash tillari imkoniyatlari;
- internet tizimida ishslash undagi fayl va fayl tizimi ustida amallar bajarish haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- apparat va dasturiy ta'minotlarni;
- ovozli texnologiyalarni ta'minlovchi kompyuter vositalarini;
- video texnologiyalarini ta'minlovchi vositalarni;
- veb-ilovalarni yaratish haqida ma'lumotlarni;
- Ijodiy - shakliy fikrlashni nazariy asoslari hamda dizayn-loyixalarda kompazitsion - kasbiy professional bilimlarni
- amaliy dasturlar bog‘lamini yarata olishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Scriptlar asosida dasturlarni yarata olish;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

	<ul style="list-style-type: none"> - interfeysni moslashtirish; - filtrlar va qatlamlar bilan ishslash; - Adobe Flash dasturida multimedia ilovalarni yaratilish jarayonida vektor va rastr grafikalari, kompyuter shriftlari, audio va video materiallari yaratish; - Poligrafik hamda reklama mahsulotlarini keng qamrovli tayyorlash; - Zamonaviy interaktiv xujjalarni tayyorlash; - Adobe InDesign dasturini barcha imkoniyatlaridan foydalanish; - dasturiy ta'minot interfeysini, veb-saytlarni, mobil qurilmalari uchun multimedia ilovalarni loyiqlashtirish va yaratish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - professor-o'qituvchilarga xurmat bilan munosabatda bo'lish; - institut ichki tartib qoidalariga amal qilish; - mobil telefondan dars davomida foydalanmaslik va uni o'chirib qo'yish; - berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish; - guruxdoshlariga xurmat bilan munosabatda bo'lish; - plagiatlik qilish man etiladi; - darsga o'z vaqtida kelish; - 4 soatdan ortiq dars qoldirgan taqdirda dekanat ruxsati bilan darsga kirish.
Elektoron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi a'loqa elektron pochta orqali xam amalga oshirilishi mumkin, baxo masalasi telefon orqali xal qilinmaydi. Oraliq, joriy va yakuniy nazoratlar institutdagi belgilangan xonalarda dars davomida o'tkaziladi.

Fanga ajratilgan o'quv soatlari o'quv turlari bo'yicha taqsimoti Kursning tematik tarkibi va mazmuni

Nº	Mavzu nomi	Jami soat	Ma`ruza	Amaliy mashg`ulot	Tajriba	Mustaqil ta`lim
1.	Kirish. O'quv fanining maqsadi va vazifalari. Multimedia texnologiyalari haqida umumiy tushunchalar.	26	2	2	4	18
2.	Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi.	28	2	2	6	18
3.	Ovozli ma'lumotlar.	28	2	2	6	18
4.	Video ma'lumotlar.	50	2	2	6	40
5.	Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari.	52	2	4	6	40
6.	Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish.	50	2	2	6	40
7.	Ma'lumotlarni multimediali namoyish etish.	42	2	2	5	33

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Jami	276	14	16	39	207
------	-----	----	----	----	-----

Bilimlarni baholash usullari, mezonlari, va tartibi:

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar va h.z.						
Baholash mezonlari	<p>86-100ball - «a'llo»:</p> <ul style="list-style-type: none"> – fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; – fanga oid ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikrlay olish; – o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; – mehnat munosabatlariiga oid tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; – o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; – tahlil natijalari asosida vaziyatga to'g'ri va xolisona baho berish; – o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; – o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish. <p>71-85 ball - «yaxshi»:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; – tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; – o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; – o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; – o'rganilayotgan jarayonlarni jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish. <p>55-70 ball - «qoniqarli»:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; – o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; – o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish. <p>0-54 ball - «qoniqarsiz»:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o'tilgan fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik; – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil etish bo'yicha tasavvurga ega emaslik; – o'rganilayotgan jarayonlarga iqtisodiy usullarni qo'llay olmaslik. 						
	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 60%;">Reyting baholash turlari</td> <td style="width: 20%;">Maks. ball</td> <td style="width: 20%;">O'tqazish vaqtি</td> </tr> <tr> <td>I. Joriy nazorat:</td> <td style="text-align: center;">40</td> <td></td> </tr> </table>	Reyting baholash turlari	Maks. ball	O'tqazish vaqtি	I. Joriy nazorat:	40	
Reyting baholash turlari	Maks. ball	O'tqazish vaqtি					
I. Joriy nazorat:	40						

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Baholash jarayoni	Talabaning mashg'ulotlarda faol ishtirok etganligi uchun	6	Semestr davomida
	Amaliy topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	14	
	Tajriba mashg'ulotlarda savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun	20	
	II. Oraliq nazorat	30	
	Ma'ruza mashg'ulotlarida faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi uchun	8	Semestr davomida
	Mustaqil ravishda berilgan topshiriqlarni bajarganligi uchun (referat, esse, kollokvium, amaliy topshiriqlar: keyslarni topshirishi, keys stadi, o'quv loyixalari va boshqalarni topshirganligi uchun)	10	Semestr davomida
	Birinchi va ikkinchi oraliq nazoratlar (ma'ruzachi tomonidan olinadi)	12	3 xamda 5 mavzulardan keyin
	III. Yakuniy nazorat	30	Semestrning oxirgi ikki xaftasida
JAMI		100	

NAZARIY MASHGULOTLARNING MAZMUNI

Kirish. O'quv fanining maqsadi va vazifalari. Multimedia texnologiyalari haqida umumiyl tushunchalar.

Multimedia tushunchasi, multimedia vosita va texnologiya sifatida. Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha: multimedia-axborot turlari, multimedianing texnik ta'minoti, multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish. Multimedia ilovalarni qo'llanilish sohalari va klassifikatsiyasi: multimedia ilovalarni klassifikatsiyasi, amaliy multimedia loyihalarni amalga oshirishga misollar, multimediali prezentatsiyalarni, bannerlarni va videoroliklarni amaliy masalalari.

Axborotlarni o'tkazish kanallari. Video ma'lumotlarni saqlash standartlari, video ma'lumotlarni o'tkazish kanallari, ma'lumotlarni siqish va qayta tiklash usullari, interaktivlik tushunchasi va alomatlari, multimedia ma'lumotlarning imkoniyatlari.

Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi. Grafik ma'lumotlar: videotizimlar va ularni sozlash, grafik ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiy fayl formatlari, fayl formatlarini o'zgartirish, grafik ma'lumotlarni qosil qilish, namoyish etish va tahrirlash dasturlari, Windows da grafika ishslash, animasiya vositalari.

Power Point dasturining grafiklarga animasiyalar o'rnatish. Flash dasturining multimediali imkoniyatlari. Power Point dasturida ovozli ma'lumotlar hosil qilish. Flash dasturida ovozli ma'lumotlar hosil qilish.

Ovozli ma'lumotlar. Ovozli ma'lumotlarni taqdim etuvchi fayl formatlar va asosiy tamoyillar; ovoz kartasini o'rnatish va uni sozlash; ovozli ma'lumotlarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish. Ovoz yozuvchi dasturlar bilan ishslash. Ovoz yozuvchi dasturlaring imkoniyatlari,

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Ovozli ma'lumotlarni xosil qilish va namoyish etish.

Ovozni kiritish va aniqlash: mikrofonning texnik xarakteristikalarini, ovozni yozishda nosozliklarni to'g'rilash, ovozni aniqlash texnologiyasini qo'llanilish sohalari, ovozni avtomatik aniqlash tizimi.

Kompyuterli audio-texnologiyaning vositalari: ovozni raqamli qayta ishlash uchun qo'llaniladigan dasturiy vositalar, Sound Forge yoki Audacity dasturlari orqali ovozlarni yozish va tahrirlash, All sound recorder vositasida tovushli WAV fayllar bilan ishlash. tovushli fayllarni o'zgartirish.

Raqamli ovozlarni ko'pkonalli tahrirlash: Adobe Audition dasturi yordamida raqamli ovozlarni ko'pkonalli tahrirlash, ko'pkonalli sessiya tushunchasi, mikrofonni ovoz yozish jarayonida qo'llanilishi, multitreklami sohada ovozli elementlar haqida ma'lumotlar.

Video ma'lumotlar. Video ma'lumotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan fayl formatlar va asosiy tamoyillar, video ma'lumotlarni hosil qiluvchi texnik vositalarni o'rnatish va sozlash; dasturiy vositalar yordamida videokliplarni hosil qilish, tahrirlash va ijro etish. Videokliplarni hosil qilish dasturlari bilan ishlash.

Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari. Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari: raqamli video ma'lumotlarni tahrirlaydigan Movie Maker, Pinnacle Studio, Adobe Premiere kabi dasturlarning interfeyslarining umumiyligi jihatlari, chiziqli bo'limgan montajning texnologiyasi, sahnalar ketma-ketligini loyihalashtirish, videolavhalarni yuklash.

Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish. Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish: ovoz va videoni qo'yish usullari, ma'lumotlarni siqish usullari, videoeffektlarni qo'llash imkoniyatlari, natijalarni darxol ko'rish rejimi, video mu'lumotlarda titrlarni hosil qilish, titrlarga animatsiya berish, rolikni nashr qilish, tayyor rolikni saqlash, rolikni diskga yozish.

Ma'lumotlarni multimediali namoyish etish. Namoyish hosil qilishning asosiy yo'llari, namoyishning mazmuni, tuzilishi va parametrлari. Namoyishni hosil qilish va tahrirlashda foydalilaniladigan dasturlar.

O'qitishda multimedia texnologiyalari. O'qitishda multimedia texnologiyalari: pedagogik maqsadlarga erishish uchun namoyish etiluvchi ma'lumotlarni yig'ish, mazmunini boyitish. Metodik qo'llanmalarni namoyish dasturlari asosida yaratish. Multimedia va Internet.

II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

1. Ma'ruza mashg'ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma'ruza mashg'uloti – o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallahsha yo'naltirilgan.

Ma'ruzani asosiy belgilanishi – o'qitishni nazariy asosini ta'minlab berish, o'quv faoliyatga va aniq o'quv fanga qiziqishni rivojlantirish, talabalarga o'quv kursi ustidan mustaqil ishslash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma'ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma'ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnomalar va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko'p emasligi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Ma'ruza materiallarining *hajmi* rejlashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo'lishi kerak.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Ma'ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlari

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma'ruzasi</i>	
Fan doirasida o'quv axborotini o'zlashtirish bo'yicha talabalar harakatining yo'naltiruvchi asosini ta'minlash.	Ta'lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o'quv fani mazmuni, uning o'quv jarayonidagi o'rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to'g'risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishslash tizimida yo'naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqt va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma'ruza</i>	
O'quv mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an'anaviy ma'ruza turi: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma'ruza</i>	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalararning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarini ifodalaydi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turliche stsenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

Slaydli taqdimotga qo'yiladigan asosiy talablar

- slaydlar soni o'quv material mazmunini to'liq ochib berish uchun yetarli bo'lishi kerak;
- slaydda bir qatorda 6-dan ortiq so'z, 8-ta qator ketma-ket joylashgan bo'lishi mumkin emas.
 - barcha ma'lumotlar tuzilmaga keltirilgan bo'lishi kerak;
 - slaydlar qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Slaydlarni rasmiylashtirish qoidalari

- **Matn** ma'lumotlarga boy, mantiqiy bir-biri bilan uzviy bog'langan, aniq va ravshan, sodda tilda yozilgan bo'lishi lozim.
 - **Rasmlar** aniq va ravshan, yirik o'lchamda bo'lishi kerak, ular bezatish emas balqi namoyish etish vazifasini bajarishi kerak.
 - **Jadvaldagi** ma'lumotlar yaqqol ko'rinish turadigan bo'lishi kerak va har bir jadvalni nomi bo'lishi shart.
 - **CHizmalar** bir blokdan ikkinchisiga aniq, ravshan va mantiqiy o'tishlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

2. Amaliy va tajriba mashg'ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy va tajriba mashg'ulotlar:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
 - nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
 - olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.
- Amaliy darslarda olingan bilimlarni tajriba darslarida amalda qo'llash va kerakli reyting ballarini to'plash.

Amaliy darslarning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- ma'ruza mashg'ulotida olingan nazariy ma'lumotlarni amalda ko'rish va bajariladi;
- nazariya va amaliyatni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mayjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Tajriba darslarning mazmuniga quyiladigan talablar

- amaliy darslarda ko'rib chiqilgan bilim va ko'nikmalarni amalda bajaradi;
- nazariya va amaliyatni uzviy birligi ochib beriladi;
- bajarilgan ishlar bo'yicha talaba baholanadi;

Amaliy mashg'ulot turlari va ularga xos xususiyatlari

Mashg'ulot turi	Seminar shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
<p><i>Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish. 	<p><i>Keng ko'lami suhbat.</i></p> <p>Hamma uchun umumiyoq bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtini o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lami suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi.</p> <p><i>Ma'ruza va referatlar muhokamasi.</i></p> <p>Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zları ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga "quruq nazariyalik" elementini kiritib, bunday</p>

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'rutzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Press-konferentsiya.

Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. SHundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarning markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi.

O'zaro o'qish.

Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruuhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi.

Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.

O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar.

Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo'lган g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi.

2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Spetsseminar.

Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

<p><i>Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq chiqish.</i></p> <p>Maxsus (kasbiy) va umumo'quv ko'nikma va amaliy malakalarini shakllantirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakatlar algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan bilimlarni qo'llash. nazariy amaliy 	<p>ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'quituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.</p> <p>Ta'limi o'yin. O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalg qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shallantiradi; výrabatývaet dinamiku rolevogo povedeniya; amaliyat imitatasiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarini shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yining texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa)yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash.</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruylar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnomalar → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnomalar bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash.</p> <p>Masalalar yechish bo'yicha mashq. Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnomalar berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish.</p> <p>Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mexnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqqiqiy amaliyat bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi.</p> <p>Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keysarlarni) yechish. Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.</p> <p>Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga</p>
--	--

	<p>olish muhim:</p> <ul style="list-style-type: none"> → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish, → yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. <p>Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalilllar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi.</p> <p><i>O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i></p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish.</p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida).</p> <p>O'qituvchi guruhlarning o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.</p>
<i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i>	<p><i>Kollokvium.</i></p> <p>O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi.</p> <p>U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun.</p> <p>Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin.</p> <p><i>Yozma (nazorat) ish.</i></p> <p>Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.</p>

3 AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo‘llaniladigan metod.

❖ Metod chegaralangan vaqt oralig‘i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo‘llarini izlash bo‘yicha o‘quvchilarni aqliy faoliyatini yo‘naltirishga asoslangan.


❖ O‘quv mashg‘ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi hamda o‘quvchilarda faol qiziqish uyg‘otishi kerak;

• ko‘p har xil ma’nodagi yechim variantlariga ega bo‘lishi kerak.

O‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o‘quv mashg‘ulotining bir lavhasi yoki butun mashg‘ulotni o‘tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmida keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib - **INSERT** – Interaktive- interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun Effective – samarali **Reading** – o‘qish and- va **Thinking** – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

- Samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo‘yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(✓) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) - men uchun yangi axborot;

(-) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘srimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin-* mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS-STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi o‘qitish vositasi.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko‘rsatmalar* bo‘lishi kerak.

Keys-stadi (ingl.sase – to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish) – amaliy o‘qitish vaziyatlar metodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

1. muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)

2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

- savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
- topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O‘QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhlari yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv *vosita* va *qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnomा

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UCHUN?» SXEMASI –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnomा

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.


2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«BALIQ SKELETI» CHIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnomা

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1. «Baliq skeletini» chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnomा

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quydagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmsandan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-ma'ruza: Kirish. O'quv fanining maqsadi va vazifalari. Multimedia texnologiyalari haqida umumiy tushunchalar.

Reja:

1. Multimedia haqida umumiy tushunchalar
2. Tijoratda multimedia
3. Ta'limda multimedia

Multimedia haqida umumiy tushunchalar

Multimedia – bu kompyuter yoki boshqa raqamli ma'lumotlar bilan ishlovchi boshqa texnik vositalar orqali sizga taqdim etiladigan matn, tasvir, ovoz va videodan iborat murakkab ko'rinishdagi ma'lumot xisoblanadi. Agar siz ma'lumotni yorqin tasvir va animatsiya, videotasvir va matn, o'ziga jalb qiluvchi ovoz ko'rinishida qa'bul qilish natijasida siz axborotni ong va tasavvurda keng xis qilishingiz mumkin. Agar bu jarayonga interaktivlik tadbiq qilinsa, u holda ta'sir doirasi yanada ortadi.

Multimedia, yuqorida aytib o'tilganidek, matn, tasvir, ovoz, animatsiya va videoning bir butun ko'rinishiga aytildi. Agar foydalanuvchi multimedia ilovani tomosha qilish bilan birgalikda uni boshqara olsa, u holda bunday ilovalar interaktiv multimedia ilovalari deyiladi. Agar ilovada strukturasida navigatsiya mavjud bo'lsa, u holda bunday multimediali ilova Gipermedia deb ataladi.

Multimedia ta'rifiga kura oddiy tuyulsa xam, u bilan ishlash jarayoni murakkab xisoblanadi. Multimediani bilish bilan bir qatorda multimedianing texnik va dasturiy vositalarini xam bilish lozim. Multimediali axborotlardan birgalikda ilovalarini yaratuvchilar mutaxassislarni multimediala yaratuvchilar deb ataymiz.

Multimedia ilovalari kompyuter, TV ekranida, PDA(personal digital assistant) shaxsiy raqamli erdamchi, yoki mobil telefon orkali kurish mumkin. Bundan tashkari multimedia ilovalari tijorat yulida, yoki biror manzilga etkazilishi maksadida CD yoki DVD tashuvchilarda yoki tortib olish uchun Internet tarmogiga joylashtirilishi mumkin.



Rasm 1. Multimedia

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Multimedia ilovalari interaktiv bo'lishi shart emas. Bunday ilovalar chiziqli bo'lib, boshlanishidan oxirigacha foydalanuvchi ta'sirisiz amalga oshadi. Agar foydalanuvchi navigatsiya boshkaruvi orkali multimedia ilovasining borish jaraeniga ta'sirini fanatishi mumkin bulsa, u xolda bunday multimediali ilova chizikli bo'limgan deb ataladi va bunday interaktiv kurinishdagi multimediali ilova ma'lumot olishda keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanuvchi multimediali ilovani qay darajada foydalana olishi, ilovani boshkara olishi imkoniyatiga qarab ilova strukturasi va stsenariysi, ilova dizayni va dasturlashga katta e'tibor qaratiladi va ulkan maxorat talab kilinadi. Noto'g'ri interfeys yaratilgan multimedia ilovaning muvaffakiyatsiz chikishiga olib keladi. Bundan tashkari kontent noto'g'ri yaratilishi natijasida multimedima ilovada kerakli ma'lumotlarni topa olmasligingiz mumkin.

Multimedia qaerlarda qo'ullaniladi?

Foydalanuvchi turli ko'rinishdagi multimediali axborotni raqamli elektron qurilma orqali multimedianing "Foydalanuvchi interfeys" orqali ko'rishi mumkin. Umuman olganda, multimedia – bu axborotning yaxshilangan ko'rinishi xisoblanadi. Multimediali axborot to'g'ri yaratilishi natijasida uning mazmuni va foydaliligi yanada ortadi.

Tijoratda multimedia

Tijoratda multimedia taqdimot, o'rganish, marketing, reklama, maxsulotlar taqdimoti, imitatsiya, ma'lumotlar ombori, tezkor xabarlarni junatish va qabul qilish, shuningdek tarmoq kommunikatsiyasi sifatida qo'llaniladi. Ovozli xabar va videokonferentsiyalar lokal va global tarmoqlarda (LAN va WAN) internet-protokollar orqali amalga oshiriladi.

Tijorat yo'lidagi anjumanlarda oddiy nutq shaklidagi ma'ruza o'rniga multimediali taqdimot ommaning e'tiborini ko'proq jalb qiladi. Hozirgi kunda taqdimot yaratadigan dasturiy vositalar matn bilan bir qatorda tasvir, audio va video axborotlar bilan boyitish, slayd-shou shaklida namoyish qilish imkoniyati mavjud.

Multimedia o'quv jarayonida keng qo'llaniladi. Uchuvchilik sohasida xavfsizlik o'quv o'rgatuvchi mashqlar modellashtirish asosida amalga oshiriladi. Tartibni saqlash organlarida mumkin bo'limgan modda va jihozlarni o'rganish jarayonlari intekativ video va rasmlar orqali amalga oshiriladi. Tibbiy xodimlar va veterinarlar jarroxlik ishlarini o'rganishda multimediali modellashtirish natijasida amalga oshiradilar. Mexaniklar dvigatellarni sozlash ishlarini o'rganishda, tijorat xodimlari tijorat qilish saboqlarini va maxsulotlar xaqidagi ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Hozirgi kunga kelib ish joylarda multimedia keng qo'llanilmoqda. Xodimning qiefasini tanib olish, identifikatsiyalash, ma'lumotlar bazasidan shaxsiy ma'lumotlarini olish, elektron tibbiy kartasini shakllantirish, video annotatsiya yaratish, joriy vaqtida telekonferentsiya kabi ishlarini amalga oshirish mumkin. Elektron xabar va videokonferentsiya orqali kerakli xujjatlarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Yo'lda multimediali maxsulotlar taqdimoti uchun yuqori sifatli portativ kompyuterlar va proektorlarning borligi hozirgi kunda oddiy holga aylanmoqda. Bluetooth va Wi-Fi texnologiya bilan ishlaydigan mobil aloqa vositalari va shaxsiy raqamli yordamchi vositalar (PDA) tijoratdagi aloqa va boshqa imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Tijorat korxona va kompaniyalar multimedia kuchi bilan foya olayotgan ekanlar, multimedia mahsulotlarini o'rnatish va yaratish sarf xarajati kamayadi. Bu esa o'z navbatida korxona ish faoliyatni samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'limda multimedia



Ta'lim multimedianing eng ko‘p ishlataladigan jarayoni xisoblanadi. Qo‘shma Shtatlarining axborot texnologiyalari etarlicha ta'minlanmagan joylari ko‘p. Shunday ekan, bunday joylarga barchaga samara keltiruvchi ko‘p yillik muddatga jalg qilish lozim. AQSh xukumatixar bir auditoriyani, kutubxonani, tibbiy muassasalarini, kasalxonalarini, bir axborot supermagistraliga ulash maqsadida katta ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi kunda ko‘pgina maktablar va kutubxonalar bir tarmoqqa (eRate) ulangan. Bundan tashqari okruglardagi kam daromadli qishloq va shaxarlarning maktablari davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadi.

Multimedia o‘quv jarayonida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda, natijada o‘qitishning an'anaviy usullaridan tashqari usullar ham mavjudligi namoyon bo‘ldi. An'anaviy passiv o‘qitish ussularidan iborat model aktiv-o‘qitish modeli bilan almashtirildi. Ba’zi xollarda o‘qituvchilar yo‘naltiruvchi vazifasini bajarishi kerak bo‘lmoqda. Bunday o‘qish va o‘rganish jarayoni asosini o‘qituvchi o‘rniga o‘quvchi tashkil qiladi. Elektron o‘qitish o‘qitish jarayonining kuchli siyosati bo‘lib, o‘qituvchilar an'anaviy o‘qitish usullarini o‘rnini bosadi demay, balki “boyitolgan” ko‘rinishi deb atadilar.

2-rasm. Multimediali elektron o‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchi uchun kuchli, qulay va samarali vosita hisoblanadi. Tezkor tibbiy yordam:
www.accessmedicine.com.

2-rasmda tezkor tibbiy yordam sohasi mutaxassislarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘rgatuvchi videolar majmuasi keltirilgan. Bunday onlayn elektron o‘qitish ilovalari klinik jarayonlarni o‘rganishda samarali va tejamkor usul xisoblanadi. Tibbiyatda ta'lim jarayonida o‘qitishning samarali ko‘rinishi sifatida multimedia exokardiografik tasvirlarlar joriy vaqtida kimyoviy jarayonni tushuntirishda qo‘llaniladi.

Maktablarda multimedia o‘quvchilar tomonidan ham foydalaniladigan ko‘rinishlaridan, bular: interaktiv jurnallar, axborotnomalar, shaxsiy multimedia ilovalarini yaratish va x.k. Ўquvchilar o‘zlarining o‘quv jarayonlari haqida videolavhalarini yaratishlari, va YouTube ga joylashtirishlari mumkin. Bunday tashqari o‘z veb-sahifalarini yaratishlari va internet tarmog‘iga joylashtirishlari mumkin.

ITV (Interactive TV) orqali turli makondagi o‘quvchilar va o‘qituvchi bir auditoriyaga jamlanishi mumkin. Maktablarning internetdagi shaklida turli mamlakatlardan, makonlardan yig‘ilgan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotini o‘rnatish, ular uchun qulay sharoitni yaratish, shu bilan bir qatorda o‘qituvchi dam olish maskanlarida aloqa vositalari orqali muloqotga kirishishi mumkin. Masalan, Washington On Line (www.waol.org) talabalar uchun qulay o‘qish jarayonini yaratdi. Bunda talabalar gaz, elektr energiyasi uchun,

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

transport xarajatidan mustasno bo'ladilar, shu bilan bir qatorda o'qituvchilarga o'z virtual sinflarini Internetda qulay taqdim etishlari o'rgatiladi.

Multimedia uyda

Bog'dorchilik, pazandachilik, uy dizayni, qayta jihozlash, va x.k. ishlarida yordamchi multimedia uyga ham kirib keldi. Eng oddiy ko'rinishi multiedia uyda televizor shaklida mavjud.



3-rasm. Genealogiya ilovasi (Leister Productions tomonidan yaratilgan avlodlar shajarasi. Bu ilovada matn, audio va video kliplar joylashtirish mumkin.

Virtual borliq

Multimedianing ijodiy maxsuloti virtual borliq VR xisoblanadi. Maxsus ko'zoynak, shlem, maxsus qo'lqopla va g'aroyib interfeys Sizni virtual borliqqa "olib kiradi". Bir qadam oldinga yursangiz, tasvir yaqinlashadi, boshingizni burganda tasvir ham mos ravishda buriladi. Qo'lingizni uzatsangiz, tasvirdagi qo'l ham birgalikda xarakatlanadi.

Virtual borliq tizimlari realistik bo'lishi uchun kuchli xisoblash vositalari kerak bo'ladi. Virtual borliq – bu kompyuterda yaratilgan 3 o'lchovli muhit bo'lib, muhit va foydalanuvchi orasidagi o'zaro muloqotni o'rnatib beruvchi model hisoblanadi. Virtual borliq texnologiyalarining texnik asosi kompyuter modellashtirish orqali xarakat imintatsiyasini yaratish asosida 3 o'lchovli tasvirlar bilan birga virtual maydonda real harakat qilishiga imkon yaratadi.

Virtual borliq modelini ishga tushirish uchun kamida sichqoncha yoki djoystik, murakkab tuzilgan ko'rinishlarida esa foydalanuvchining HMD ekranga ega yoki stereoskopik ko'zoynak va VBda taktil munosabatini o'rnatish uchun "raqamli qo'lqop" yoki mahsus sichqoncha bo'lishi lozim.

VB modelini asosiy xususiyati – bu foydalanuvchining VB dagi mavjudligini yaratib berishi xisoblanadi. Bu masofada mavjudlik deyiladi. Bunda foydalanuvchining VB dagi aniq harakat qila olishi, virtual 3 o'lchovli muhit bilan muomala qilish qobiliyati bilan baholanadi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

1960 yillar oxirlarida M.Kryuger tomonidan “Sun'iy borliq” atamasi kiritilgan, 1980 yillar o‘rtalarida J.Laner tomonidan «VPL Riserch» firmasi uchun “raqamli qo‘lqop” yaratilgan va “virtual borliq” atamasi paydo bo‘ldi.

Virtual borliq xali rivojlanish jarayonida bo‘lib, undan hozirgi kunda mashq qilish uchun trenajerlar sifatida ishlataladi. Shu bilan bir qatorda meditsina va arxitekturada keng imkoniyatlar yaratib kelmoqda.

Multimediani tashuvchi vositalari

Multimedia ma'lumotlarini saqlash uchun katta xajmdagi raqamli hotira kerak bo‘ladi.

CD-ROM (ma'lumotlarni yozish va o‘qish uchun xizmat qiladi), matn, tavsir, audio va video axborotlardan iborat multimedia ma'lumotlarini o‘zida saqlaydi.

Qo‘pqatlamli Digital Versatile Disc texnologiyasi (DVD) kompakt-disklarning xajmi va imkoniyatlarini bir tomonligi 4,7 Gb gacha, ikki atlamlı va ikki yoqli ko‘rinishi 17.08 Gb gacha oshiradi.

CD-ROM va DVD-disklar ko‘p vaqt davomida qo‘llanilib kelinmoqda, shu bilan bir qatorda oraliq texnologiyalar natijasida flesh-disklar va flesh-saqlovchi vositalar paydo bo‘lishi natijasida yuqoridagi ma'lumotlarni tashuvchi vositalar o‘rni almashtiriladi.

Kengpolosali internet

Bugungi kunda telekommunikatsiya tarmoqlari global xisoblanadi, shuning uchun ham axborot uzatuvchilar ma'lumotni uzatish yo‘li va sarf-xarajatlarini rejalashtirishlari lozim.

Global tarmoq orqali kitob va jurnallar matnini, badiiy filmlarni tortib olish, real vaqtida yangiliklardan bohabar bo‘lish, ta’limga doir o‘quv material va videoma’ruzalarni olish, shaxar va kishloklarning xaritasini kurish, zarur bino yoki inshootlarni ishlash va x.k. ishlarni amalga oshirish mumkin. Xizmatlarning har birining o‘ziga xos interfeysi bo‘lib, ularning har biri amalga oshiriladigan multimediali loyiha xisoblanadi.

<http://earth.google.com>

<http://maps.google.com/help/maps/streetview>

www.moviefone.com

www.netflix.com

www.travelocity.com

www.nytimes.com

www.5pm.co.uk

4-rasm. Internet tarmog“idagi katta shaharlar, restoranlar, dam olish maskanlari, sayohat, makon manzillari afishasi.

Interaktiv multimedia dunyodagi barcha xonadonlarga etkazib beriladi. Ko‘ngilochar mega-korpuslar, axborot vositalari va provayderlar, aloqa kompaniyalarini, shuningdek mavjud texnik va dasturiy vositalar global tarmoq imkoniyatlarining doimiy ravishda rivojlanish va kengayish asos bo‘ladi. Yangi ko‘rinishdagi bunday tarmoq multimediali axborotlar bilan ishslashning yangi pog‘onasi bo‘ladi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Endilikda biz multimedia komponentalari haqida so'z yuritamiz. Bular matn, tasvir, animatsiya, ovoz va video xisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Multimedia deganda nimani tushunamiz?
2. Multimedianing apparat vositalariga nimalar kiradi?
3. Multimedia dasturiy vositalariga misollar keltiring?
4. Multimedia injiniringini qo'llash sohalari.
5. Multimedia injiniringining afzalliklarini va xususiyatlarini sanab o'ting.
6. Multimedia texnologiyasini ta'limda qanday qo'llaniladi?

2-ma'ruba: Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi

Reja:

1. Multimedia ilovalari yaratish texnologiyasi
2. Multimedia ilovalarining turlari
3. Multimedia ilovalari yaratish uchun vositalar

Multimedia ilovalari yaratish texnologiyasi

Hozirgi vaqtida ko'plab kompaniya va firmalarda seminarlar, uchrashuvlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun turli kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ma'lumot mazmunga boy, esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalari ishlataladi. Bular matn, grafika va ovoz kabi ma'lumotning turli shakllarini qayta ishslashga imkon beruvchi multimedia apparat vositalari bo'lish bilan birga amaliy dasturlar paketlari ham.

Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikasiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Bunday vositalarning birlashishi ma'lumot qabul qilishning yangi sifatlari darajasini ta'minlaydi: inson passiv ravishda mahliyo bo'libgina o'tirmasdan, balki faol ishtirok etadi ham. Multimedia vositalari bilan ishlovchi dasturlar ko'pmoddallidir, ya'ni ular bir necha sezgi organlariga bir vaqtida ta'sir qilgani uchun auditoriyaning qiziqishi va e'tiborini tortadi.

Multimedia ilova mazmuni muallif tomonidan ssenariy tayyorlash paytida atroficha o'ylanadi va texnologik ssenariyni ishlab chiqishda aniqlashtiriladi. Ta'limiy ma'lumot taqdim etishning an'anaviy shakli – matn va statik grafika ko'p asrlik tarixga ega bo'lsa, multimediana foydalanish tajribasi yillar bilan o'lchanadi.

Illyustrasiya, jadval va chizmalar mavjud bo'lgan animasiya elementlari va ovoz jo'rligida taqdim etilayotgan chiroyli bezalgan multimediali ilova o'rganilayotgan materialni qabul qilishni osonlashtiradi, tushunish va eslab qolishga yordam beradi, ta'lim oluvchining bilim olishga bo'lgan faolligini oshirib, predmetlar haqida aniqroq va to'laroq tushunchaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sifatlari multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli-tuman, bir-biridan farqli texnologik usullar mavjud. Ushbu ilovalarni yaratish va ulardan foydalanishda bir qator asosiy texnologik tavsiyalarga amal qilish kerak.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Multimedia ilovalarini yaratish uchun asos sifatida materialni elementlarga bo'lish va iyerarxiya tarzida ko'rgazmali ravishda taqdim etishga asoslangan holda tizimlashtirish usulini o'zida mujassam etgan materialni qamrab olish modelini olish mumkin.

- Multimedia ilovasini loyihalashning boshlang'ich bosqichida materialni qamrab olish modeli quyidagilarga imkon beradi:
- material mazmunini aniq belgilash;
- mazmunni ko'rgazmali, aniq va ochiq tarzda taqdim etish;
- multimedia ilova komponentlari tarkibini aniqlash.

Kompyuter ekranidagi ma'lumotni vizuallashtirish usullarini ishlab chiqishda psixologiya yutuqlarini hisobga olish kerakligi bir qator umumiy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi:

- ekrandagi ma'lumot tizimga keltirilgan bo'lishi kerak;
- vizual ma'lumot davriy ravishda tovushli ma'lumotga almashib turishi kerak;
- rang yorqinligi va/yoki tovush balandligi davriy ravishda o'zgarib turishi kerak;
- vizuallashtirilayotgan material mazmuni juda ham sodda yoki juda ham murakkab bo'lmasligi kerak.

Ekrandagi kadr formatini ishlab chiqishda va yaratishda ko'rish maydonini tashkil etishni belgilovchi obyektlar orasida maqsad va munosabat borligini hisobga olish tavsiya etiladi. Obyektlarni quyidagicha joylashtirish tavsiya qilinadi:

- bir-biriga yaqin, ya'ni ko'rish maydonida obyektlar bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan yagona, yaxlit obrazni tashkil qiladi;
- jarayonlar o'xshashligi, ya'ni obrazlarning o'xshashligi va yaxlitligi qanchalik ko'p bo'lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan uyg'unlashadi;
- davom etish xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ya'ni ko'rish maydonida tartibli ketma-ketlikning davom etishiga mos keladigan joylarda joylashgan elementlar qanchalik ko'p bo'lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan yaxlit yagona obrazga birlashadi;
- obyektlar shakli, harf va raqamlar o'lchami, ranglarning to'qligi, matnning joylashishi va boshqalarini tanlashda predmet va fonni belgilashning o'ziga xosligini hisobga olgan holda;
- vizual axborotlarni ortiqcha detallar, yorqin va kontrast ranglar bilan bezamagan holda;
- xotirada saqlash uchun mo'ljallangan materialning rangini o'zgartirish, tagiga chizish, shrift o'lchamini va stilini o'zgartirish orqali ajratish.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqishda turli rang va fonda tasvirlangan obyektlar insonlar tomonidan turlicha idrok qilinishini hisobga olish kerak. Vizual axborotlarni tashkil etishda predmetlarning fonga nisbatan kontrasti muhim rol o'ynaydi. Kontrastning ikki turi mavjud: to'g'ri va teskari. To'g'ri kontrastda predmetlar va uning tasvirlari fonga nisbatan to'qroq, teskari kontrastda esa ochroq bo'ladi. Multimedia ilovalarida odatda har ikki turidan foydalaniladi, turli kadrlarda alohida va bitta kadr doirasida birqalikda. Ko'p hollarda teskari kontrast ustunlik qiladi. Multimedia ilovalarining to'g'ri kontrastda ishlashi afzalroq hisoblanadi. Bu holda yorqinlikning ko'payishi ko'rinishning yaxshilanishiga, teskari holatda esa yomonlashishiga olib keladi, lekin teskari kontrastda namoyish etiladigan harf va belgilar, kichik o'lchamda bo'lganda ham to'g'ri kontrastga nisbatan aniqroq va tezroq o'qiladi. Tasvir qismlarining nisbiy o'lchamlari qanchalik katta va uning yorqinligi yuqori bo'lsa, kontrast shunchalik kichik bo'lishi kerak. Ko'rish maydonida yorug'likning bir me'yorda taqsimlanishi orqali ekrandagi axborotlarni erkin qabul qilishga

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

erishiladi. Kompyuter ekranidan axborotlarni o'rganishni optimallashtirish uchun multimedia ilovalarini ishlab chiqaruvchilarga mantiqiy urg'ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lism oluvchining diqqatini ma'lum bir obyektga jalg qilishga yo'naltirilgan usullar mantiqiy urg'ular deyiladi. Mantiqiy urg'ularning ruhiy ta'siri ta'lism oluvchi tomonidan bosh obyektni topishga sarflanadigan vaqtning kamayishi va diqqatni shu obyektga jalg qilish bilan bog'liq.

Mantiqiy urg'ularni yaratish uchun aksariyat hollarda quyidagi usullar tez-tez ishlataladi: asosiy obyektni yanada yorqinroq rang bilan tasvirlash, o'lchamini, yorqinligini, joylashuvini o'zgartirish yoki shu'la taratuvchi rang bilan ajratish. Mantiqiy urg'uni son jihatidan uning intensivligi bilan baholash mumkin. Intensivlik obyekt rangi va yorqinligining fonga nisbatan mutanosibligiga, obyektning nisbiy o'lchamlari tasvir fonidagi predmetlar o'lchamiga nisbatan o'zgarishiga bog'liq. Yanada yorqinroq yoki kontrastliroq ranglar bilan belgilash yaxshiroq hisoblanadi, o'lchamini yoki yorqinligini o'zgartirish, shu'la taratuvchi rang bilan ajratish unchalik yaxshi chiqmaydi.

Multimedia ilovalarining turlari

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo'linadi:

- prezentasiyalar;
- animasion roliklar;
- o'yinlar;
- videoilovalar;
- multimediali galereyalar;
- audioilovalar;
- web uchun ilovalar.

1-jadvalda multimedia ilovalari haqida asosiy tushunchalar va ularning ko'rinishlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

1-jadval

Multimedia ilovalari shakllari	Tushuncha
Taqdimot/prezentasiyalar	Taqdimot (ing. <i>presentation</i>) - audiovizual vositalardan foydalanim ko'rgazmali shaklda ma'lumot taqdim etish shakli. Taqdimot yagona manbara umumlashgan kompyuter animasiyasi, grafika, video, musiqa va ovozni o'zida mujassam etadi. Odatda taqdimot ma'lumotni qulay qabul qilish uchun syujet, ssenariy va strukturaga ega bo'ladi.
Animasion roliklar	Animasiya - multimediali texnologiya; tasvirning harakatlanayotgan-ligini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi. Tasvir harakatini tasvirlash effekti sekundiga 16 ta kadrdan ortiq videokadrlar- ning almashinishida hosil bo'ladi.
O'yinlar	O'yin dam olish, ko'ngil ochish ehtiyojlarini qondirish, organizmdagi zuriqishni yuqotish hamda ma'lum malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan multimedia ilovalaridandir.
Videoilovalar	Videoilovalar - xarakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqish texnologiyasi va namoyishi. Video tasvirlarni o'qish qurilmalari - videofilmlarni boshqaruvchi dasturlar.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Multimedia-galereyalar	Galereyalar - ovoz jo'rligidagi xarakatlanuvchi suratlar to'plami.
Audioilovalar	Ovozli fayllarni o'quvchi qurilmalar - raqamli tovushlar bilan ishlovchi dasturlar. Raqamli tovush - bu elektrik signal amplitudasining diskret sonlar bilan ifodalanishi.
WEB uchun ilovalar	web uchun ilovalar - bu alohida veb-saxifalar, uning tarkibiy qismlari (menyu, navigasiya v.b.), ma'lumot uzatish uchun ilovalar, ko'p kanalli ilovalar, chatlar va boshqalar.

Multimedia ilovalari yaratish texnologiyasini o'rganishda ularning qanday yaratilishini ifodalovchi ssenariy ishlab chiqiladi. Bundan kelib chiqib, har bir multimedia ilovasi turli tarkibiy qismlar (turli mavzular)dan tashkil topadi, degan mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Multimedia ilovalari tarkibini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin: yaratilayotgan multimedia ilovasi uchun mavzu tanlash, ish maydonini belgilash (masshtab va fon), kadrlar, qatlamlardan foydalanish, turli shakllar simvollarini yaratish, dasturlash tilida o'zgaruvchilar kiritish va skriptlar yozish, tovushli fayllar bilan ishlash, matn qo'shish, effektlar yaratish, rasmlardan foydalanish va import qilish, kutubxonadagi tayyor komponentlardan foydalanish, navigasiyani yaratish, matn razmetkasi tillari va skriptlash tillaridan foydalanish.

O'z navbatida multimedia ilovalarini quyidagi turosti turlarga bo'lish mumkin. Quyida multimedia ilovalarining turosti turlari to'g'risidagi asosiy tushunchalar keltirilgan.

Taqdimot:

- Chiziqli taqdimot – murakkab grafika, videoqo'yilma, ovoz jo'rligidagi va navigasiya tizimiga ega bo'lmagan dinamik rolik.
- Interfaol taqdimot – iyerarxik tamoyillar bo'yicha tuzilmaga keltirilgan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimediali komponentlar to'plami.

Animasiya:

- Kadrlar animasiyasi – tasvirlar harakati taassurotini beradigan suratlarning kadrlar bo'yicha almashishi.
- Dasturiy animasiya – dasturlangan amallar ketma-ketligi yordamida tasvirlar almashadigan animasiya (ya'ni algoritm va o'zgaruvchilar yordamida). Asosiy obyektlarni chizish qo'lda amalga oshiriladi yoki biror bir kolleksiya yoxud galereyadan import qilib olinadi, shundan keyingina unda qaysidir dasturlash tili imkoniyatlari ishga solinadi.

O'yinlar:

- Ko'ngil ochuvchi o'yinlar – foydalanuvchiga bo'sh vaqtini o'tkazishga imkon beradigan dasturlar.
- O'rgatuvchi o'yinlar – taqdim etilgan yengil o'yin shaklida foydalanuvchiga u yoki bu soha bo'yicha o'z malaka va ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturlar.

Video o'qish qurilmalari:

- Film kadrlari harakatini shakllantirish – harakat taassurotini uyg'otuvchi rasmlar, kadrlar ketma-ketligini, tasvirlarni tayyorlash va joylashtirish.
- Videotasvirlar oqimini o'qish qurilmasi – videooqim formatlari avi, mpeg v.b.ni o'z ichiga olgan o'qish qo'rimasini shakllantirish, shundan keyingina ushbu oqimni boshqarish imkoniyati tug'iladi (masalan, videofaylni ishga tushirish, pauza, video boshiga tez o'tish kabi buyruqlarni ishlatalish).

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Multimedia-galereyalar:

- Tasvirlarning kadrlarda almashishi – tasvirlarning belgilangan vaqt oralig‘ida almashish tartibi.
- Panorama – katta ochiq maydonni erkin tomosha qilishga imkon beruvchi keng va katta plandagi manzara.
- Interfaol galereya – foydalanuvchiga boshqarish imkonini beradigan galereya (tasvirlar bo‘yicha harakat).

Tovush o‘qish qurilmalari:

- Bitta ovozli fayl o‘qish qurilmasi – wav, mp3 va boshqa formatdagi ovozli faylni multimedia ilovaga qo‘sish va uni qaytadan eshitish.
- Turli ovozli fayllarni o‘qish qurilmasi – bitta ovozli fayl o‘qish qurilmasiga o‘xshash, lekin bajarish ketma ketligini o‘zgartirish imkoniyati qo‘shilgan holda.
- Virtual musiqa instrumentlari – haqiqiy musiqa instrumentlari imitasiyasi.

WEB uchun ilovalar:

- Bannerlar – internetdagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining Veb-saytiga yoki mahsulot yoxud xizmat turi atroficha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalg etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljitim uchun turli Internet resurslarda joylashtiriladi.
- Ma’lumot uzatish ilovalari (masalan, mehmonlar kitobi).

Multimediali mahsulot yaratish uchun ko‘plab texnik instrumentlar mavjud.

Yaratuvchi gipermatn sahifalarini yaratishda ishlatiladigan dasturni tanlab olishi kerak. To‘liq funksional multimedia dasturlarini yaratishga imkon beruvchi bir qator kuchli multimedia yaratish vositalari mavjud. Macromedia Director, Macromedia Flash yoki Authoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professional va qimmat vositalar hisoblanadi, shu bilan birga FrontPage, mPower 4.0, HyperStudio 4.0 va Web Workshop Pro ularning oddiyroq va arzonroq analoglari hisoblanadi. PowerPoint va matn muharrirlari (masalan, Word) kabilardan ham chiziqli va chiziqsiz multimediali resurslar yaratishda foydalanish mumkin. Borland Delphi ham multimediali ilovalar ishlab chiqish vositasi hisoblanadi.

Sanab o‘tilgan vositalar oson o‘qish va tushunish mumkin bo‘lgan to‘liq hujjatlar bilan ta’minlangan. Albatta, yana ko‘plab boshqa ishlab chiqish vositalari borki, sanalganlar o‘rniga ulardan foydalanib ham bir xil natijaga erishish mumkin.

Hozirgi kunda multimedia ilovalari yaratish texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar juda kam, ularni topishning iloji ham yo‘q. Ushbu mavzuda darslar, kitoblar va maqolalar to‘plamiga ega bo‘lgan Internet tarmog‘i sahifalari ham shunday tizimlarga o‘xshaydi. Bunday saytlarning asosiy qismi “Multimedia elementlari yaratish uchun flash darslari” yoki Macromedia Directorda multimedia yaratish” mavzulariga yo‘naltirilgan.

Multimedia taqdimoti turlari

Interfaol multimedia taqdimoti – iyerarxik tamoyil asosida tizimlangan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimedia komponentlari majmui. Foydalanish maqsadidan kelib chiqib, interfaol taqdimotlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- korporativ multimediali taqdimot;
- multimediali katalog;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- mahsulot taqdimoti;
- o'rgatuvchi yoki test dasturi;
- erkin foydalanishga ruxsat berilgan kompyuterlar uchun multimedia qobig'i;
- elektron nashr yoki multimedali kitob.

Chiziqli multimedia taqdimoti – murakkab grafika, videoqo'yilma, ovoz jo'rлиgi ta'minlangan va navigasiya tizimiga ega bo'limgan harakatli rolik.

Chiziqli taqdimotlar mo'ljallanishiga ko'ra shartli ravishda quyidagi shakllarga bo'linadi:

- stend shaklidagi multimedia taqdimoti;
- elektron doklad yoki jo'rlikdagi taqdimot;
- sales-taqdimot;
- promo-rolik;
- intro-rolik;
- ekran himoya lavhalari (ScreenSavers).

Maxsus multimedia yechim.

Shakllantirilgan ssenariylar bilan multimedia taqdimoti. Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlarida ularni boshqarish bo'yicha foydalanuvchi imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. "ScenePro 2" tizimi yordamida taqdimotga quyidagi funksional imkoniyatlar joriy etilmoqda:

- multimedia taqdimotining daraxt shaklidagi tuzilmasini shakllantirish;
- ssenariylarni shakllantirish – daraxtning har bir bosqichi uchun taqdimotning mazmuniy qism(modul)larini ko'rsatish ketma-ketligini tanlash;
- namoyish etish uchun tayyor ssenariylardan foydalanish;
- ovoz jo'rliklarini alohida boshqarish.

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlari o'z ichiga interfaol va chiziqli multimedia ilovalari imkoniyatlarini birlashtirishi mumkin.

Multimedia ilovalari yaratish uchun vositalar

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ulardan asosiyлari quyidagilar:

1. Rejalashtirish.
2. Elementlarni ishlab chiqish.
3. Dasturiy ta'minot.
4. Tekshirish.
5. E'lon qilish.
6. Reklama.
7. Kuzatuв.

Ushbu bosqichlarda bajariladigan ishlarni ko'rib chiqamiz.

1. Rejalashtirish

Rejalashtirish bosqichida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

1. Multimedia ilovasi nima uchun mo'ljallangan?
2. Multimedia ilovasi qaysi auditoriyaga yo'naltirilgan?
3. Multimedia ilovasiga qanday ma'lumot joylashtiriladi?
4. Auditoriya (foydalanuvchilar) bilan qayta aloqa qay tartibda amalga oshiriladi?

2. Elementlarni ishlab chiqish

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Navigasiya tizimini ishlab chiqish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

2. Taqdimot uchun WEB sayt yoki slaydlarning dizaynnini ishlab chiqish (multimedia ilovalarini joriy etishning har ikki holati uchun ham keyingi o'rnlarda "sahifa" deb yuritiladi).

3. Sahifalarni to'ldirish uchun matn va ko'rgazmali materiallarni tayyorlash (jadvallar, grafiklar, rasmlar va boshqalar).

3. Dasturiy ta'minot

Ushbu bosqich multimedia ilovasi sahifalarini yaratishni o'z ichiga oladi.

4. Tekshirish

Multimedia ilovasini yaratishning asosiy bosqichlaridan biri uni tekshirish hisoblanadi. Tekshirish jarayonida multimedia ilovasining to'g'ri ishlashi tekshiriladi, jumladan:

- Gipermurojaatlarning to'g'ri ishlashi.
- Matn va ko'rgazmali materiallarda xatolarning mavjud emasligi.
- Multimedia ilovasi sahifalari bo'y lab navigasiyaning qulayligi.
- Pochta va boshqa shakllarning to'g'ri ishlashi (WEB-sayt uchun).
- Grafik fayllarni yuklashning to'g'riliqi (WEB-sayt uchun).
- Saytning turli brauzerlarda to'g'ri ishlashi (WEB-sayt uchun). Multimediali pedagogik master shablon nashr qilish.

Tekshirish bosqichi tamomlangandan keyin WEB-sayt provayder serveriga joylashtirilib, internetda nashr qilinadi va yana qaytadan tekshiruvdan o'tkaziladi.

Multimedia ilovasi reklamasi (WEB-sayt uchun)

WEB-jamiyat yangi e'lon qilingan multimedia ilovasi haqida bilishi uchun sayt adresi va veb-saytga joylashtirilgan materiallar haqida annotasiya orqali xabardor qilish kerak. Buning uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalaniladi:

- WEB-sayt manzilini xatga, tashrif qog'oziga, broshyuralarga, byulletenlarga, bukletlarga, maxsus kompyuter nashrlariga, internet resurslarining "Sariq sahifalar" sonlariga va boshqa nashrlarga kiritish;
- Mashhur izlash saytlarida veb-saytni ro'yxatdan o'tkazish;
- WEB-saytlarda ishorat (ssylka) joylashtirish;
- WEB-sayt reklamasi uchun bannerlardan foydalanish;

Kuzatib borish (WEB-sayt uchun)


WEB-saytga murojaatlар uning nashr etilishi va reklamasidan so'ng sezilarli darajada unga joylashtirilgan ma'lumotlarning foydaliligi, yangiligi va aktualligi bilan belgilanadi. WEB-sayt imidjini saqlab turish uchun undagi ma'lumotlarni doimiy yangilab borish tavsiya etiladi, aks holda saytning potensial tashrifchilari unga qayta kirmasligi ehtimoli yuqori (butunjahon o'rgimchak to'rida necha yillardan buyon yangilanmagan saytlar ham mavjudligini ta'kidlaymiz).

Texnologik bosqichlarni amalga oshirish chizmasi

Texnologik bosqichlar mazmuni tahlili shuni ko'rsatadiki, bir qator ishlar va, asosiysi, bu ishlarning natijasi pedagogik multimedia master-shabloni, namoyish shakliga bog'liq emas. Buni quyidagi chizma ko'rgazmali ravishda namoyon qiladi. Chizmada

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

WEB-saytlar uchun maxsus bo'lgan "Publikasiya", "Reklama", "Kuzatib borish" bosqichlari yo'q.



Texnologik bosqichlar bajarilishi ketma-ketligi sxemasi

Nazorat savollari:

1. Multimedia ilovalari yaratish texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Multimedia ilovalarining turlarini sanab bering?
3. Multimedia ilovalarini ishlab chiqish necha bosqichdan iborat?

3-ma'ruza: Ovozli ma'lumotlar. Ovoz yozuvchi dasturlarning imkongiyatlari.

Reja:

1. Ovozli ma'lumotlar. Tovush to'lqinlari
2. Analogli signallarni raqamlashtirish
3. Ovozli fayllar formati
4. MIDI va raqamli ovoz: qulayliklar va kamchiliklar
5. Ovoz bilan ishslash bo'yicha maslahatlar

Ovozli ma'lumotlar. Tovush to'lqinlari

Tovush to'lqinlari – analogli signal. Tovushlar dunyosi insoniyatni doimiy o'rabi turuvchi muhitlardan biri. Biz turli xil darajadagi tovushlarni, masalan, barglar shitirlashi, sharshara tovushi, qushlar xonishi, hayvonlar qichqirig'i, inson tovushi kabi tabiiy ovozlar bilan bir qatorda insoniyat tomonidan yaratiluvchi musiqa ovozini ham hayotiy faoliyatimiz davomida doimiy eshitib turamiz.

Raqamlashtirilgan tovushlar olami – axborot dunyosining navbatdagi elementi bo'lib, biz quyida ana shu jarayon bilan tanishib chiqamiz.

Bu element tarixi ham juda uzoq yillarga borib taqaladi. Dastlab insoniyat shunday qurilmalarni ishlab chiqqanki, ular yordamida tabiiy ovozlarni chiqarishga harakat qilishgan, masalan, ov uchun turli jonjotlarni chorlash maqsadidagi harakatlarni bunga misol qilish mumkin. Yillar davomida insoniyat xotirasida saqlanib borgan ovozlar ketma-ketligini turli musiqa asboblarida ijro etishga o'rgandi. Sekin-asta musiqaning ham o'z "alifbosi" paydo bo'ldi, birinchi marta bunday "musiqa alibosi" Qadimgi Misr va Messopotamiyada qo'llanilgan. XVII asrga kelib tartiblangan musiqa notalari paydo bo'ldi. Asrlar davomida musiqani matematika bilan bog'lashga uringan insoniyat hisoblash texnikasining rivojlanishi bilan, nafaqat musiqani, balki atrofimizni o'rabi turgan ixtiyoriy ovozni kompyuterlar xotirasida saqlash, tahrirlash va ijro etishni o'rgandi. Sekin-asta tovushlar dunyosi raqamli dunyo bilan bog'landi.

Mutaxassislar ta'kidlashganidek, ovoz multimedianing eng asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Ovoz ham kundalik hayotimizda duch keladigan boshqa fizik hodisalar kabi to'lqin tabiatiga ega. Ovoz to'lqinlari ixtiyoriy muhitda – gaz, suyuqlik, qattiq jismlar muhitida ham tarqalish xususiyatiga ega. Amaliyatda ko'proq atmosfera muhitida tarqaluvchi ovoz to'lqinlaridan foydalilanadi. Shu sababli ham ovoz to'lqinlari – bu atmosferadagi tarqalishiga nisbatan o'rganiladigan jarayon bo'lib, uning muhim parametri tovush chastotasi – tebranish davriga teskari kattalik hisoblanadi. Tovush chastotatalari gerslar (G_s) da yoki kilogers ($1 \text{ KG}_s=1000 \text{ G}_s$)larda o'lchanadi. Masalan, tovush chastotasi 20 G_s bo'lsa, bu 1 s davomida 20 ta to'liq tebranish sodir bo'lganini bildiradi. Tovush chastotasi bilan to'lqin uzunligi – bir tebranish davrida tovush to'lqini bosib o'tishga ulguradigan masofa (to'lqin uzunligi = tovush tezligi/tebranish davri) uzviy bog'langan. Demak, chastotaning oshishi bilan, tovush to'lqini uzunligi qisqaradi, ya'ni tebranish davri qancha qisqa bo'lsa, to'lqin ham shuncha qisqa masofani bosib o'tadi. Ko'p yillik tadqiqotlar eshitish sezgirligimiz tovush chastotasiga bog'liqligini ko'rsatib berdi. Eshitishimiz mumkin bo'lgan tovushlar chastotasi diapazoni quyidagicha: minimal chastota 16...20 G_s , maksimal 18...20 KG_s . Bu diapazondan past chastotadagi tovushlar infratovushlar, yuqorisi esa

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

ultratovushlar deb yuritiladi. Infratovushlarni ham, ultratovushlarni ham insoniyat eshitish organlari qabul qilmaydi.

Analogli signallarni raqamlashtirish

Ovozni saqlash va uzatish iborasiga ko‘p marta duch kelganmiz. Lekin bu jarayon haqiqatda qanday sodir bo‘lishi haqida hamma ham aniq tasavvurga ega emas.

Ovozni yozish tabiiy ma’noda Edison fonografidagi ovoz yozish jarayonidagina tushunilishi mumkin. Qolgan barcha hollarda ovoz saqlanganida ovozning o‘zi emas, balki yozish vaqtida havo tebranishi qanday bo‘lganligi haqidagi ma’lumot saqlanadi.

Hozirgi vaqtida ovozli ma’lumotlarni saqlash va uzatishning ikki usuli mavjud – analogli va raqamli. Analogli holatda tovush bosimining o‘zgarishi boshqa fizik kattalik, masalan, elektr kuchlanishining o‘zgarishiga proporsional bo‘ladi. Elektr kuchlanishining o‘zgarishi ovozli ma’lumot “tashuvchisi” hisoblanadi. Yaqin kunlargacha ovoz yozish va radioaloqalarda bu usul yagona bo‘lgan. Analogli elektronikada kuchlanishning o‘zgarishi tovush bosimining o‘zgarishiga mos bo‘lishi muhim bo‘lgan. Ma’lumki, tovush to‘lqini amplitudasi ovoz balandligini, uning chastotasi esa ovoz tonining balandligini aniqlaydi, demak, analogli uslubda ovozli ma’lumotning ishonchli saqlanishi uchun elektr kuchlanishi amplitudasi tovush tebranishi amplitudasiga proporsional bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, kuchlanish chastotasi tovush tebranish chastotasiga mos bo‘lishi kerak. Bundan ko‘rinadiki, elektr signal shakli tovush tebranish shaklining nusxasi bo‘lib, amalda ovozli ma’lumot tashuvchisi bo‘la oladi. Tovush tebranishini elektr kuchlanishiga aylantirish uchun oddiy mikrofondan foydalanish mumkin. Elektr kuchlanishi o‘zgarishini esa magnitofonlarda lenta magnit maydoni o‘zgarishiga yoki optik ovoz yozishlarda kinoplyonka ovoz yo‘lakchasidagi ovoz potoklariga mos qo‘yish mumkin bo‘ladi. Ovoz haqida ma’lumot olishining ikkinchi usulida tovush to‘lqinlarida bosim qiyomatining o‘lchanishi, bunda tovush tebranishini ifodalovchi raqamlar ketma-ketligi – raqamli signallar nazarda tutiladi. Signal shaklini to‘g‘ri uzatish uchun bu o‘lchashlarni tovush signallarining eng yuqori chastotali davrida tez-tez o‘tkazish zarur. Raqamli ovozlar tizimiga raqamli mikrofon (ovozi bosimi o‘lchagichi), raqamli magnitofon yoki uzatgich (katta miqdordagi raqamlar massivini saqlash va uzatish uchun) va raqamli ovoz kuchaytirgich (raqamlar ketma-ketligini ovoz bosimi o‘zgarishiga aylantirish uchunqurilma)larni kiritish mumkin. Hozirgi kunda raqamli ovoz yozish tizimlarida asosan analogli elektroakustik mikrofon va ovozkuchaytirgich (dinamik) lar qo‘llaniladi, raqamli qayta ishlashda esa ovoz chastotalarining elektrik signallari tahrir qilinadi.

Umuman olganda raqamli signallar o‘zida elektr sxemalardagi turli zanjirlarni mantiqiy elementlar yordamida ulovchi va uzuvchi to‘g‘ri burchakli hsakldagi impulslarni namoyon qiladi. Raqamli signallar shakli va kuchlanishi bilan ishlovchi analogli elektronikadan farqli ravishda raqamli elektronikada ikkilik signallar – “0” va “1” ga mos keluvchi diskret darajali signallar qo‘llaniladi.

Analogli signalni raqamliga o‘tkazish deyarli barcha tizimlarda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab analogli tovush signalni signal chastota yo‘laklarini chegaralovchi va tovushning tiniq eshitilishiga xalaqit beruvchi shovqinlarni tozalovchi analogli filtrga tushadi. So‘ngra analogli signaldan tanlash/saqlash sxemalari yordamidagi sanoq boshlanadi: ma’lum bir davrdagi analogli signallarning lahzalik darajasi saqlab boriladi. Sanoq analogli-raqamli o‘tkazgichlarga o‘tib, unda har biri raqamli kodga yoki songa aylantiriladi. Hosil bo‘lgan raqamli kod bitlar ketma-ketligi ovozli signallarning raqamli shakli hisoblanadi. Shunday qilib, uzlusiz analogli ovoz signallari vaqt va kattalik bo‘yicha

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

raqamli-diskret qiyomatga aylanadi. Ko'pchilik ovoz kartalarida standart diskretizatsiya chastotasi 44.1 va 48.0 KGsn i tashkil qiladi.

Ovozli fayllar formati

WAVE (.wav) – juda keng tarqalgan ovozli fayl formatlaridan biri. Windows operatsion muhitida ovozli ma'lumotlarni saqlashda qo'llaniladi. Uning asosida ma'lumotlarni strukturali ko'rinishda saqlanishiga imkon beruvchi RIFF (Resource Interchange File Format) formati yotadi. Ovozli ma'lumotlar katta hajmga egan bo'lganligi sababli ularni saqlashda turli xil siqish usullaridan foydalilanadi. Siqishning eng sodda usuli – impulsli-kodli modulyatsiya (Pulse Code Modulation, PCM), lekin u yetarlicha siqilishni ta'minlay olmaydi.

AU (.au, .snd) – Sun firmasi ishchi stansiyalarida (.au) va NeXT operatsion tizimida (.snd) qo'llaniladigan ovozli fayllar formati. Internet tarmog'ining dastlabki rivojlanish bosqichida ovozli ma'lumotlar uchun standart format rolini o'ynagan.

MPEG-3 (.mp3) – Bugungi kundagi eng ommabop ovozli fayllar formati. Inson nutqidan farq qiluvchi tovushlarni saqlash uchun yaratilgan. Musiqiy yozuvlarni raqamlashtirishda qo'llaniladi. Oldingi MP1 va MP2 format versiyalari davomchisi. Kodirovkada musiqadan inson eshitish organlari orqali yomon qabul qilinadigan tovushlarni o'chiruvchi psixoakustik kompressiya qo'llaniladi. Oldingi versiyalar sifatsizroq kompressiyaga ega bo'lsada, biroq eshitish jarayonida kompyuter resurslariga bo'lgan talab yuqori bo'lmaydi. Prossessor xarakteristikasi ovoz sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, prossessor qanchalik kuchsiz bo'lsa, ovoz buzilishi shunchalik yuqori bo'ladi.

MIDI (.mid) – Musiqa asboblarining raqamli interfeysi (Musical Instrument Digital Interface). Bu standart 1980 yillar boshida elektron musiqa asboblari va kompyuterlar uchun ishlab chiqilgan. MIDI turli ishlab chiqaruvchilarining musiqali va ovozli sintezatorlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini aniqlaydi. MIDI interfeysi musiqa notalari va kuylarini uzatish protokoliga ega. Lekin MIDI ma'lumotlar raqamli ovoz emas – ular son formatidagi qisqartirilgan musiqa yozushi shakli hisoblanadi. MIDI-fayl o'zida harakatlar, masalan pianino tugmalarini bosish yoki regulyatorni aylantirish kabi komandalar ketma-ketligini ifodalaydi. MIDI-fayllarni ijro etuvchi qurilmalarga uzatiluvchi bu komandalar ovozni boshqaradi, kichik MIDI-xabar ovoz chiqishini yoki musiqa asboblari yoki sintezatordagi ovozlar ketma-ketligi ijro etilishini ta'minlashi mumkin, shu sabali MIDI-fayllar hajmi (bir sekundda ovoz chiqish birligi) boshqa ekvivalent raqamlangan ovozli fayllarga nisbatan juda kichik bo'ladi.

MOD (.mod) – alohida notalar uchun shablon sifatida ishlatish mumkin bo'lgan raqamlangan ovoz namunalari saqlanuvchi musiqali format. Bu formatdagi fayllar ovoz namunalari nabori bilan boshlanib, ulardan so'ng notalar va davomiylik haqidagi ma'lumotlar saqlanadi. Har bir nota fayl boshida keltirilgan ovozli shablonlardan biri yordamida ijro etiladi. Bunday fayllar nisbatan katta bo'lmaydi va notalarga asoslangan strukturaga ega bo'ladi. Bu ularni an'anaviy musiqali yozuvlarni imitatsiyalovchi dasturlar yordamida tahrirlashni osonlashtiradi. Bunda fayllar MIDI-fayllardan farqli ravishda ixtiyoriy kompyuter platformasida isjro etilishiga imkon berib, to'liq ovoz beradi.

IFF (.iff) – Interchange File Format – dastlab Amiga kompyuter platformasi uchun yaratilgan format. Hozirda CD-I shaklidagi kompakt-disklarda ham qo'llanilmoqda. Uning tuzilishi RIFF formati tuzilishiga o'xshash bo'ladi.

AIFF (.aiff) – Audio Interchange File Format – ovozli ma'lumotlar almashish uchun format, Silicon, Graphics va Mac kompyuter platformalarida qo'llaniladi. Ko'p jihatdan

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

WAVE formatini eslatadi, biroq undan farqli ravishda raqamlangan ovoz va shablonlardan foydalanish imkonini beradi. Ko‘pchilik dasturlar bu formatdagi fayllarni yuklay oladi.

RealAudio (.ra, .ram) – Internetda ovozni real vaqtida ijro etish uchun Real Networks (www.real.com) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan format. Sifat eng yaxshi holatda audiokasseta formatiga mos keladi, sifatli musiqa asarlarini saqlash uchun mp3 formatidan foydalanish afzalroq.

MIDI va raqamli ovoz: qulayliklar va kamchiliklar

WAVE formati ko‘p sonli formatlardan birini o‘zida aks ettirsada, lekin u raqamli ovozlarni saqlash uchun mo‘ljallangan yagona format emas.

MIDI-ma’lumotlardan farqli, raqamli-ovozi ma’lumotlari kvantlar (samples) deb ataluvchi minglab birlik ko‘rinishida yozilgan ovozni o‘zida aks ettiradi. Raqamli ma’lumotlar diskret vaqt momentida ovoz amplitudasini (yoki balandligini) ifodalaydi. Raqamli ma’lumotlar ijrosi qurilmaga bog‘liq bo‘lmaydi va shu sababli ular doimo bir xil bo‘ladi. Lekin buning hisobiga bunday ovozli fayllar hajmi yetarlicha katta bo‘ladi.

Vektorli grafika rastrli grafikaga nisbatan qanday qiyoslansa, MIDI-ma’lumotlarni ham raqamli ma’lumotlarga nisbatan xuddi shunday qiyoslash mumkin. Ya’ni vektorli grafik tasvirlar printer yoki monitorga bog‘liq bo‘lgani kabi MIDI-ma’lumotlar ovozni ijro etuvchi qurilmalarga bog‘liq bo‘ladi, raqamli ma’lumotlar esa bog‘liq bo‘lmaydi.

MIDI standarti PostScript standartiga o‘xshash bo‘lib, qurilmalarni tushunarli tilda boshqarish imkoniyatini beradi. Raqamli ma’lumotlarga nisbatan MIDI quyidagi qulayliklarga ega:

MIDI-fayllar kam xotira hajmini egallaydi, bu fayllar o‘lchami ovoz sifatiga ta’sir ko‘rsatmaydi. MIDI-fayllar raqamli fayllardan operativ va doimiy xotiradan joy egallahiga qarab o‘rtacha 200-1000 marta kichik bo‘ladi, markaziy prossessor resurslari ko‘p talab qilinmaydi. Ba’zi hollarda hatto ovoz sifati ham boshqa audio fayllarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bunday hollarda MIDI-fayllarni ijro etish manbalari yuqori sifatda bo‘lishi talab etiladi. Siz ovoz sifati va balandligini saqlagan holda ovoz tempini o‘zgartirish hisobiga MIDI-fayllar uzunligini o‘zgartirishingiz mumkin. MIDI-ma’lumotlarni alohida notalar darajasida tahrirlash ham oson. Siz MIDI-kompozitsiyalarni millisekundgacha aniqlikdah tahrirlash imkoniyatiga egasiz.

MIDI-fayllarning asosiy kamchiligi ovoz aniqligida. MIDI-faylni yaratishda qo‘llanilgan ijro etish qurilmasi haqiqiy musiqa asbobiga qanchalik o‘xshash bo‘lsa, ovoz aniqligi ham shunchalik o‘xshash bo‘ladi. Hatto faylni yaratishda qo‘llanilgan MIDI-qurilma ovozi General MIDI standartiga to‘liq mos kelganida ham ovoz sifati ijro etuvchi elektron qurilmaga bog‘liq. MIDI-ovozlar nutqli ma’lumotlarni ijro etish uchun qo‘llanilmaydi. Raqamli audioning MIDI-fayllardan asosiy ustunligi raqamli ovozlarning ijro etilish sifati doimiy bo‘ladi. Raqamli ovozlar bilan ishslash zaruratiga ikki sabab mavjud: raqamli ovozlar bilan ishslash uchun dasturlar va tizimlar tanlovi keng; raqamli ovoz elementlarini tayyorlash va yaratish uchun musiqa nazariyasini bilish shart emas.


Ovoz bilan ishslash bo‘yicha maslahatlar

Mikrofon yordamida ovoz yozish


Multimedia haqidagi har qanday qo‘llanma, albatta, mikrofon yordamida ovoz yozishga bag‘ishlangan bo‘limga ega bo‘ladi. Mikrofon yordamida ovoz yozishda odatda Windowsning standart dasturlari qatoriga kiruvchi Sound Recorder (Пуск/Программы/стандартные/Звукозапись) qo‘llaniladi. Bu dastur bilan ishslash haqidagi bat afsil ma’lumotlarni dasturda berilgan ma’lumotnomadan olishingiz mumkin.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Quyidagi rasmda Windows 7 operatsion tizimidagi Sound Recorder dasturi ma'lumotnomasidan foydalanish jarayoni keltirilgan.



Bu dastur bilan ishslash yetarlicha sodda bo'lganligi uchun biz unga batafsil to'xtalib o'tirmaymiz. Mikrofonlar ikki xil tipda bo'ladi – kondensatorli va dinamik. Kondensatorli mikrofonlar qimmatroq bo'lib, yuqori sifatli ovoz bera oladi, lekin ularni kompyuterga ulash uchun ovoz kartasi ham uning talablariga javob bera olishi kerak. Ko'pchilik ovoz kartalari esa dinamik mikrofonlarga moslangan bo'ladi.



Mikrofonning boshqa muhim xususiyati – uning yo'naliganlik (directivity) darajasida. Mikrofonlar umumyo'nalgan (barcha yo'nalishlar bo'yicha ovoz sezgirligi bir xil), biryo'nalishli (oldindan keladigan yo'nalishdagi ovozlarga sezgirroq) va ikkiyo'nalishli (oldindan va orqadan keladigan yo'nalishdagi ovozlarga sezgirroq) bo'ladi. Fondagi shovqinlar kam bo'lishi hisobiga ko'pincha bir yo'nalishli mikrofonlar tanlanadi. Lekin ular umumyo'nalgan mikrofonlarga nisbatan qimmatroq va ovoz sezgirligi ham ancha yuqori bo'ladi. Mikrofon tanlashda albatta mikrofonning to'liq qarshiligidagi (impedance) e'tibor qarating. To'liq qarshilikning optimal qiymati 600 Om ga teng. Umumyo'nalgan 600 Om impedancega ega mikrofon tanlash tavsiya etiladi.

Endi dasturiy ta'minotga e'tibor qaratamiz. Dastlab miksher-dasturini sozlab olish zarur bo'ladi. Miksher-dasturning ko'rinishlaridan biri "Регулятор уровня" nomi ostida Siz uni Windowsning standart dasturlari orasidan topishingiz mumkin. Lekin bu dastur bilan ishslash biroz noqulay bo'lishi mumkin. Sizning ovoz kartangiz dasturiy ta'minotida bu

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

funksiyani bajaruvchi dastur ham bo'lishi mumkin, shu sababli aynan o'sha dasturdan foydalanish tavsiya etiladi, chunki dastur mualliflari ovoz kartasining muhim jihatlarini hisobga olgan holda mazkur dasturni yaratishadi. Miksher-dasturda ovoz yozish jarayonida ishtirok etmayotgan boshqa barcha kirish regulyatorlarini eng pas holatga o'tkazib qo'yish yoki butunlay o'chirib qo'yish tavsiya etiladi. Mikrofondan ovoz yozishda mikrofonli yoki chiziqli kirishdan foydalanish mumkin. Ovoz yozish jarayonida kiruvchi balandlik regulirovkasini taxminan 75 % li holatga o'tkazib qo'ying.

Mikrofon yordamida ovoz yozish jarayonidagi asosiy muammo signal darajasining nostabilligidan iborat. Bu muammoni bartaraf etish va shovqin darajasini minimallashtirish uchun apparatli yoki kiruvchi signalni dinamik qayta ishslash uchun dasturiy ta'minot bo'lishi talab etiladi. Ko'pchilik zamonaviy dasturlar raqamlari ovozlar bilan ishslash uchun dinamik ishlovni amalga oshiradi. Bunday xususiyatga ega dasturlarga Sound Forge va Wavelab dasturlari misol bo'la oladi. Dinamik qayta ishslash elementlariga kompressor (limiter), ekspander (expander), ekvalayzer kabilarni kiritish mumkin.

Deyarli barcha ovoz kartalarida mikrofon kuchaytirgichlari sifati juda past bo'ladi, shu sababli alohida mikrofon kuchaytirgichi yoki kuchaytirgichli miksherga ega bo'lish tavsiya etiladi.

Ovozli ma'lumotlarni yozishda raqamlashtirish chastotalari tanlovi

Raqamli audiofayllarni tayyorlash anchagina sodda. Agar Siz ovozli material (analogli tashuvchi, masalan magnit lentada musiqa yozuvi yoki ovozli effekt) ga ega bo'lsangiz, u holda dastlab bu materialni raqamlashtiring va raqamli axborot tashuvchilarga yozing. Ko'pchilik hollarda bu jarayon – ovozli material ijro etilib, ovozni mos raqamlashtiruvchi dasturlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritish orqali bajariladi.

Raqamli audiofayllarni tayyorlashda ikkita aspektga alohida e'tibor qarating: talab qilinayotgan ovoz sifati operativ va doimiy xotira hajmiga mos bo'lsin; yaxshi, tiniq ovoz yozuviga ega bo'lish uchun mos yozish darajasiga ega qurilma.

Ko'pchilik ovoz kartalari maksimal chastotalarda yaxshiroq ishlaydi, shu sababli 44.1 KGs diskretizatsiya bilan ovoz yozish ma'qulroq, keyinchalik, zaruratga qarab, past chastotali fayllarga o'tkazish mumkin bo'ladi. Matematik nuqtai nazardan, raqamlashtirish chastotasi yozilayotgan signal chatotasidan ikki marta yuqori bo'lishi kerak. Kompakt disklarga yozish jarayonida yuqori aniqlikdagi 20 KGs chatotali ovozni uzatish uchun 44.1 KGs raqamlashtirish chastotasi qo'llaniladi. Biroq kompyuterlar uchun multimedia loyihalarini yaratishda mashina imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi – katta raqamlashtirish chastotasi fayllarni saqlash uchun katta xotira hajmini va ijro etish uchun mukammal kompyuterni talab qiladi. Uncha ko'p bo'limgan katta yoshdagiligi kishilargina 15 KGsdan yuqori chatotali ovozni eshitish olib qolishni mumkin, bu chastota odatda stereofonik eshittirishlar uchun chegara bo'lib xizmat qiladi. Katta yoshli erkakning ovozi kamdan-kam holatda 7.5 KGs chastotadan oshadi. Bulardan kelib chiqib, multimedia loyihalarini musiqali yo'lakchalarini, shuningdek, kadr ortidagi ovoz va musiqa va ovozdan tashkil topuvchi ovozli yo'lakchalarni yozishda 22.05 KGs raqamlashtirish chastotasi, kadr orti ovozlari va ovoz effektlarini yozish uchun 11 KGs chastota qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, ovozli ma'lumotlar bilan ishslashda quyidagilarni qo'llash tavsiya etiladi:

- ko'pchilik taqdimot va multimedia loyihalar uchun – 22.05 Gs, 8 bit, stereo yoki 22.05 KGs, 16 bit, stereo; - nutqni yozish uchun – 22.05 KGs, 16 bit, mono yoki 11 KGs, 8 bit, mono; - yetarlichi quvvatli komp-yuterlarda ijro maqsadidagi sifatlari musiqa asarlarini yozish uchun – MP3 formatda 44.1 KGs, 16 bit, stereo.

Nazorat savollari:

1. Analogli signalni raqamliga o'tkazish necha bosqichda amalga oshiriladi?
2. Raqamli signalni analogliga o'tkazish necha bosqichda amalga oshiriladi?
3. MIDI va raqamli ovoz qulayliklarini sanab bering?
4. MIDI va raqamli ovoz kamchiliklarini sanab bering?

4-ma'ruza: Video ma'lumotlar. Video ma'lumotlarni tahrirlash texnologiyalari.

Reja:

1. Videofayllar. Analogli va raqamli video
2. Analogli video haqida qisqacha ma'lumot
3. Television standartlar
4. Raqamli video haqida qisqacha ma'lumot
5. Video-ma'lumotlarni saqlash formatlari
6. Videofayllar. Analogli va raqamli video

Videofayllar. Analogli va raqamli video

Hozirgi kunda video ma'lumotlarning ikki tipi mavjud: analogli va raqamli. Analogli video videosignalarni uzatishning dastlabki usuli bo'lib, analogli usuldagagi birinchi video formatlardan biri kompozit videosignal hisoblanadi. Kompozit analogli video barcha videokomponentlarni (yorqinlik, rang, sinxronlik va hk) bir signalga birlashtiradi. Bu elementlarni bir signalga birlashtirish hisobiga kompozit video sifati mukammal bo'la olmaydi. Natijada biz aniq bo'limgan ranglar uzatilishiga, tasvirning yetarli bo'limgan aniqligiga va boshqa sifat yo'qotish faktorlariga ega bo'lamiz. Shu sababli kompozit video turli video komponentlari mustaqil signallar sifatida namoyon bo'luvchi komponentli videoga tezda yo'l bo'shatib berdi. Gap shundaki, inson ko'zi yuqori yoritilganlikda ham aktiv va tayanch ranglar (R, G, B) ni qabul qiluvchi yorug'lik sezuvchan elementlardan tashqari deyarli to'liq qorong'ulikda ham aktiv va yoritilgan ob'ektnigina qayd qiluvchi elementlarga ega. Buning natijasida ranglar xususiyatidan ko'ra ob'yekt yorqinligi qabul qilish uchun muhimroq hisoblanadi. Bundan tashqari uzatilayotgan axborot hajmi ham qiymatga ega: hajm qancha kichik bo'lsa, uzatuvchi tizim ham shuncha arzon va sodda bo'ladi. Ranglar haqidagi ma'lumotlar miqdori kamaytirilsa, axborot hajmini ham qisqartirish mumkin bo'ladi. Shu sababli televidenieda RGB signallar emas, balki Y yorqinlik va ikkita U va V rang tarqatuvchi signal qo'llaniladi, bunda $U=R-Y$, $V=B-Y$. Bunday holda uchala rangni ham kodlashga hojat bo'lmaydi. Ulardan ikkitasini berish yetarli bo'ladi, uchinchisi esa arifmetik amallar yo'li bilan oson hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, yuqorida tavsiflangan analogli formatlardagi asosiy kamchilik sifatda, chunki nusxa har doim originalga qaraganda sifatsizroq bo'ladi. Videomaterialdagagi sifat yo'qotish xuddi fotonusxaga o'xshash bo'ladi – nusxa hech qachon originaldagidek tiniq va yorqin bo'lomaydi. Analogli videodagi bu kamchilik raqamli videoformatning yaratilishiga sabab bo'ldi. Analogli videodan farqli raqamli videoda har bir nusxa original bilan bir xil bo'ladi.

Analogli video haqida qisqacha ma'lumot

Analogli video – Televidenieda qo'llaniladigan video tipi. Ekrandagi tasvir lyuminofor material bilan qoplangan, ma'lum to'lqin uzunligida, ya'ni aniq bir rangda nur tarqatuvchi ekran bo'yab elektron nurlarning harakati davomida hosil qilinadi. Bu jarayon skanerlash deb ataladi va qatorlar (gorizontaliga) hamda kadrlar (vertikaliga) bo'yicha o'tkaziladi. Harakatli video hosil bo'lishi uchun sekundiga bir nechta kadrni skanerlash zarur. Televizorlarda kadrlar sekundiga bir necha o'nlab chastotada almashadi.

Television standartlar

Hozirgi kunda uchta asosiy rangli televidinie standarti mavjud:

- NTSC (National Television Standard Committee – milliy television standartlar komiteti) amerika standarti, kadrdagi starlar soni 525, chastotota 60 GGs;
- PAL (Phase Alternation Line – o'zgaruvchan fazali satrlar) nemis standarti, kadrdagi satrlar soni 625, chastota 50 GGs;
- SECAM (Séquentiel couleur avec mémoire – xotirali ranglar ketma-ketligi) fransuz standarti, kadrdagi satrlar soni 525, chastota 50 GGs.

Standartlar qo'llanilayotgan modulyatsiya va chastota qiymatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Raqamli video haqida qisqacha ma'lumot

Raqamli video – ma'lumot raqamli ko'rinishda saqlanuvchi tasvir yoki tasvirlar to'plami. Unda raqamli signallar va xalqaro television va analogli videoda qo'llaniladigan tasvirni ekranga chiqarish standartlardan farq qiluvchi standartlar qo'llaniladi. Raqamli video analogli videoga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: bu texnologiya tasvir namoyishidagi to'siq va buzilishlarni minimallashtirib, tasvirlardan nusxa olishdagi sifatni saqlaydi, sifatli ovoz yozadi, tasvirdagi piksellar miqdori ikki marta ko'proq bo'ladi, videoyozuvlarni tezkor va oson tahrirlash imkoniyatiga ega va hk.

Zamonaviy texnikalarda qabul qilingan videoni raqamlashtirishni 10 bitli raqamlash, 13.5 MGs chastotali yorqin signallar diskretizatsiyasi, 6.75 MGs chastotali ikkita xilma-xil rangli kanallar diskretizatsiyasi tashkil qiladi. Oxirgi vaqtarda television va kompyuter videolarini birlashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Analogli videotasvirlarni raqamli shaklga o'tkazish maxsus platalar yordamida amalga oshirilmoqda. Raqamli va analogli videoning bir-biriga yaqinlashtirilishi analogli signalarning multimedia kompyuterlari bilan o'rin almashishiga olib keladi. Dastlab video analogli formatdan raqamli formatga o'tkazilib, kompyutering xotira qurilmalaridan biriga yoziladi. Bu qattiq disk, CD, DVD yoki ixtiyoriy boshqa qurilma bo'lishi mumkin. Bunda videoni kompyuterdagagi dasturlar yordamida namoyish etish imkoniyati paydo bo'ladi. Raqamli videoga qo'yilgan oxirgi qadamlar ham aynan raqamli va analogli videolar yaqinlashtirilishini ta'minlovchi DVD-Video va HDTV (High Definition TV – yuqori rezresheniedagi televidenie, bir qator davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi format) standartlarining yaratilishi bo'ldi.

Video-ma'lumotlarni saqlash formatlari

CD AVI (Audio Video Interleave – audio va video almashinushi) – videoni saqlash va Windows muhitida namoyish etish uchun Microsoft tomonidan yaratilgan format, tasvir va ovozning bir vaqtda saqlanish imkoniyatini beradi. Bu formatdagi video yozilishida avval kadr, so'ngra shu kadrga mos ovoz navbatma-navbat yoziladi. Videokadrlarga bo'linishi tabiiy, lekin ovoz uzluksiz oqimga ega bo'lib, sun'iy ravishda kadrlarga mos fragmentlarga

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

bo'lib olinadi. Agar ovozni ham videoni ham videokiritish qurilmasida yozilsa hech qanday muammo yuzaga kelmaydi, agar ovoz ovoz kartasi yordamida yozilsa, video bilan ovozning aniq sinxronligi buziladi, ba'zan ovoz tasvirdan "qochadi". Bu formatdagi videoyoziuvlarda odatda turlicha formatdagi video siqishlar (kompressiya) qo'llaniladi: Microsoft Video (8-va 16-bitli ranglarda), Motion JPEG, Microsoft RLE (8-bitli ranglarda), Indeo va hk. Dastlab video olish va namoyish etish uchun Microsoft tomonidan yaratilgan Video for Windows dasturiy to'plami qo'llanilgan, lekin hozirgi kunda foydalanuvchida buning uchun juday qulay imkoniyatlar ham mavjud. Bu imkoniyatlarni hisobga olgan holda Microsoft companiyasi AVI formatni almashtirishga mo'ljallangan ikki yangi format ASF (Advanced Streaming Format – mukammallahgan potoklar formati) va AAF (Advanced Authoring Format) formatlarni ishlab chiqish haqida qaror qildi. Bunda eski AVI formati ham qo'llanishda davom etib, AVI, ASF va AAF formatlarini bir-biriga aylantirish uchun vositalar yaratilishi rejalashtirilmoqda.

Quick Time Movie (.qt, .mov) – Adobe firmasi tomonidan Quick Time texnologiyalari asosida yaratilgan video yozish va namoyish etish uchun keng tarqalgan formatlardan biri. Turli videolarni ciqish formatini podderjka qiladi, shu jumladan MPEG va Indeo formatlarini ham, shuningdek, uzining xususiy kompressiya uslubiga ham ega. Mustaqil "yo'lakchalar"ga (video va audio) ma'lumot yozish imkoniyati mazkur formatning muhim jihatni hisoblanadi. Videoma'lumotlar turli yo'lakchalarda turli chastotalarga va razresheniyaga, audioma'lumotlar – turlicha formatga ega bo'lishi mumkin va hk.

MPEG (Motion JPEG)(.mpg, .mpeg, .dat) – Harakatli tasvirlar bo'yicha ekspertlar guruhi (MPEG – Moving Picture Expert Group) tomonidan video yozish va namoyish etish uchun ishlab chiqilgan format. O'zining xususiy kompressiya algoritmiga ega. Hozirgi kunda raqamli videolarni yozish uchun faol qo'llanilayotgan MPEG-4 algoritmi ishlab chiqilgan.

Digital Video (.DV) – Raqamli videokamera va videomagnitofonlar uchun yaratilgan format. Aslida bu format emas balki DV firmasi tomonidan ishlab chiqilgan siqish diapazoni, kodlash standarti kabi xususiyatlarni aniqlovchi spessifikatsiya. Signal tarkibiy qismli, MJPEG siqish metodi 5:1 koeffitsiyentli.

Videoma'lumotlarni siqish

Videoma'lumotlarni siqishning asosiy ko'rinishlari:

- oddiy, real vaqt rejimida;
- simmetrik va asimetrik;
- sifat yo'qotish yoki yo'qotmaslik holatida;

Videopotokni siqish yoki kadrlar bo'yicha siqish

1. Oddiy siqish (real vaqt rejimida).

Ko'pchilik tizimlar videoni raqamlashtirish bilan bir qatorda ularni siqadi ham. Bu operatsiyani sifatli bajarish uchun maxsus quvvatli prossessor talab qilinadi, shu sababli ko'pchilik kompyuterlardagi video kiritish/chiqarish platralari to'liq metrajli videolarni tahrirlash imkoniyatiga ega emas va ko'pincha kadrlarni o'tkazib yuboradi. O'tkazib yuborilgan kadrlar videotasvirlar silliqligini buzadi. Bundan tashqari kadrlar o'tkazib yuborilishi ovoz va tasvir sinxronligini buzilishiga olib keladi. Shu sababli raqamlashtirishda qo'llanuvchi videoplata sekundiga 24 kadrdan kam bo'lmagan tezlikni ta'minlashi va kadr o'tkazib yubormasligi zarur. Bu tasvir buzilishiga yo'l qo'yaydi.

2. Simmetrik va asimetrik siqish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Farq videoni siqish va dekompressiya uslubi bilan bog'liq. Simmetrik siqish 640x480 razresheniya bilan sekundiga 30 kadr tezlikda videofragmentni namoyish etishni taqozo etadi, agar uni raqamlashtirish va yozish xuddi shu parametrlar bilan bajarilgan bo'lsa. Asimmetrik siqish – bu yetarlicha kattaroq vaqtida sekundiga videoni qayta ishlash jarayoni. Asimmetriklik darajasi odatda nisbat ko'rinishida beriladi. 150:1 nisbat siqilgan videoning bir minuti real vaqtdagi taxminan 150 minutga to'g'ri kelishini bildiradi. Asimmetrik siqish sifatlari videoga va uning namoyishi tezligidagi optimallikka erishish uchun juda qulay va samarali uslub hisoblanadi. Lekin bu uslubda to'liq metrajli rolikni kodlash juda ko'p vaqt olishi mumkin, shu sababli ham bu kabi jarayonlar ixtisoslashtirilgan kompaniyalar tomonidan bajariladi.

3. Sifat yo'qotiladigan yoki yo'qotilmaydigan siqish.

Sifat yo'qotmasdan siqish usullari ko'p emas: ko'p uchraydigan baytlar kombinatsiyasi kichikroq bitlilariga yoki aniq qiymatlar ketma-ketligi kodlarga almashtiriladi. Siqish darajasi fayl tipi va uzunligiga juda bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy holatda ma'lumotlarga dekompressiya (manba ma'lumotlarini tiklash) uchun ma'lumotlar qo'shiladi. Shu sababli agar fayldagi ma'lumotlar tanlangan algoritmda yomon siqilsa, fayl hajmi hatto oshishi mumkin. Hatto muvaffaqiyatli holda ham sifat yo'qotishsiz kompressiyaning darajasi uncha yuqori bo'lmaydi. Ikki marta siqishning o'zi muvaffaqiyat. Shu sababli odatda video uchun sifat yo'qotish holati qo'llaniladi, go'yoki ko'zga sezilmas ma'lumotlar tashlab yuboriladi. Siqish koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, video sifati shuncha zarar ko'radi. Barcha siqish uslublari ba'zi sifat yo'qtishlarga olib keladi. Hatto ular ko'zga sezilarli darajada bo'lmasada, manba va siqilgan material orasida doim farq bo'ladi. Raqamli video bilan ishslashda professionallar siqish koeffitsiyentiga alohida e'tibor qaratishadi. Uni asimmetrik siqish koeffitsiyenti bilan chalkashtirmslik kerak.

Siqish koeffitsiyenti – bu siqilgan va manba videomaterial ob'yektlari o'rtasidagi nisbatning raqamli ifodasi. Masalan, 181:1 koeffitsiyenti shuni bildiradi, agar siqishdan so'ng olingan videotasvir hajmini birga teng deb olsak, u holda original 181 marta katta hajmga ega bo'ladi. Siqishda video sifati qo'llanilayotgan algoritmgaga bog'liq. Hozirgi kunda MPEG uchun standart nisbat 200:1 hisoblanib, unda uncha yomon bo'limgan video sifati saqlanib qoladi. Motion-JPEGning turli variantlari 5:1 dan 100:1 gacha koeffitsiyent bilan ishlaydi, garchi 20:1 darajada normal sifatli tasvirga erishish qiyin bo'lsada.

Bundan tashqari, video sifati faqatgina siqish algoritmiga bog'liq emas, sifat raqamli videoplata parametrlariga, kompyuter konfiguratsiyasiga va hatto dasturiy ta'minotga bog'liq bo'ladi. Videotasvirlarni raqamlashtirish uchun plata tanlanayotganda raqamli video parametrlarini boshqarish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratish kerak. Videolarni raqamlashtirish va siqish uchun mo'ljallangan yaxshi tizim videotizimning texnik va dasturiy qismlari uchun muhim parametrlari ustida amallar bajara olishi kerak. Ko'pchilik hollarda videoning namoyish etish tezligi (kadrlar chastotasi/s) hal qiluvchi qiymatga ega bo'ladi, lekin bunday hollarda to'liq ekranli rejimda ishlashni rad etishga to'g'ri keladi. Boshqa hollarda esa sekundiga 15 kadrali tezlik yetarli bo'ladi, lekin bunda kadrlar sifati ideal bo'lishi lozim. Videolarni raqamlashtirish va siqish qurilmalari va dasturiy ta'minoti bu operatsiyalarni boshqara olishi kerak. Siqish uslublari juda ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramasdan videolarni siqishning faqat MPEG (MPEG-1, MPEG-2 va MPEG-4) xalqaro standarti tan olingan.

4. MPEG texnologiyasida potokli video siqish uslubi qo'llaniladi, bunda har bir kadr alohida qayta ishlanmaydi, video fragmentlarning dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi va ortiqcha ma'lumotlarni yo'qotish amalga oshiriladi. Ko'pchilik fragmentlarda tasvir foni yetarlicha stabil qoladi, harakat esa oldingi fonda amalga oshiriladi. Shu sababli MPEG

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

algoritmi siqishni manba (kalit) kadrini yaratishdan boshlanadi. Qolgan tasvirlarni tiklashda tayanch kadr vazifasini o'tagan holda ular navbatil bilan har 10-15 kadrga ko'chirib boriladi. Faqat ular orasida joylashgan ba'zi tasvir fragmentlari o'zgarishga duch keladi. Aynan ana shu farq siqishda saqlanib qoladi. MPEG-teknologiyasini qo'llash natijasida ba'zi sifat yo'qotishga olib kelsada, 200:1 dan ham yuqori siqish koeffitsiyentiga ega bo'lsih mumkin.

Videomontaj texnologik jarayonlari haqida

Shaxsiy kompyuterlarda videomontaj jarayoni hozirgi vaqtida uchta asosiy operatsiyani o'z ichiga oladi: raqamlashtirish, raqamlashtirilgan videoni qandaydir axborot tashuvchida saqlash va raqamlashtirilgan tasvirlarni dasturiy vositalar yordamida o'zgartirish.

Raqamlashtirish – bu analogli manba (masalan, videokamera) signalini raqamli shaklga aylantirish hisoblanadi. Raqamli videokameradan foydalanilganda bu operatsiyaga hojat qolmaydi, chunki bunda raqamlashgan signalga ega bo'lamiz. Almashtirish aniqligi ikkita asosiy xarakteristika: raqamlashtirish darajasi va diskretizatsiya chastotasiga bog'liq bo'ladi. Raqamlashtirish darajasi deganda kiruvchi signallar bo'linadigan amplitudalar bo'yicha darajalar soni tushuniladi. 256 darajaga bo'linganida ma'lumot yo'qotilmasligi aniqlangan. Diskretizatsiya chastotasiga raqamlanayotgan tasvir razresheniyasi bog'liq bo'ladi. Masalan, 720x576 razresheniyeda diskretizatsiya chastotasi 13.5 MGsni tashkil qiladi.

Ikkinci amal – raqamlangan tasvirning qaysidir axborot tashuvchida saqlanishi bo'lib, texnik tomondan jarayondagi eng murakkab amal hisoblanadi. Buning uchun turlicha ma'lumotlarni siqish texnik-dasturiy uslublar qo'llaniladi.

Uchinchi amal – raqamlashtirilgan va siqilgan tasvir va ovozni dastiy vositalar yordamida o'zgartirish bo'lib, bu jarayon yakunida olingen natijani qiyinchiliksiz axborot tashuvchilarda saqlash mumkin bo'ladi. Bu amallar asosan kompyuter qurilmalari yordamida bajariladi.

Nazorat savollari:

1. Video ma'lumotlarning nechta tipi mavjud?
2. Hozirgi kunda nechta asosiy rangli televideonie standarti mavjud?
3. Videoma'lumotlarni siqishning nechta asosiy ko'rinishlari mavjud?

5-ma'ruza: Raqamli video ma'lumotlarni tahrirlash jihatlari.

Reja:

1. Videoqatorlar bilan ishlash.
2. Movie Maker dasturi
3. Chiziqli va chiziqli bo'lmagan montaj

Pinnacle Studio, Movie Maker, Proshow Gold amaliy dasturlaridan foydalangan holda berilgan mavzuda video fayl yarating, ish jarayonini "Print Screen" tugmasi orqali tasma xolatda ko'chirib oling va ketma ketligi bo'yicha joylashtiring. Bir nechta video montajni amalga oshiruvchi dasturlarni ko'rib o'tamiz.

Videoqatorlar bilan ishlash

Hozirda multimedia texnologiyalari televideeniya va kinostudiyalarda filmlarni yaratish jarayonida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Kino industriyasida va video san'atda multimedia tizimi muallifning zaruriy ish dastgohiga aylanmoqda. Film muallifi bunday kompyuter tizimida oldindan tayyorlangan, chizilgan, suratga olingan, video kamerada olingan tabiat manzaralarini jamlab, kerakli ko'rinishdagi asarni yaratadi.

Kompyuter yordamida ishlov berilgan yoki xosil qilingan tasvirlarni tadbiq etish yangi tasviriy texnikani xosil bo'lishiga olib keladi.

Videofaylni yaratish quydagi bosqichlardan iborat:

- 1 - bosqich: video, foto, musiqa, effekt kabi materiallarni tayyorlash.
- 2 - bosqich: yuqorida keltirilganlarni yagona klipga (film) montaj qilish.
- 3 - bosqich: olingan videoni talab qilingan formatga o'zgartirish.
- 4 - bosqich: sozdanie CD yoki DVD-diskni yaratish.

Video (lot. video - ko'raman) - televideeniya tamoyiliga asoslangan tasvirli signallarni shakllantirish, yozish, ishlov berish, uzatish, saqlashning elektron texnologiyasi.

Videoyozuv - videosignal yoki videoma'lumotlarning raqamli oqimi shaklidagi vizual axborotni fizik axborot tashuvchiga saqlash maqsadida yozishning elektron texnologiyasi.

Olingan materialni videomontaj qilish uchun Windows Movie Maker, Adobe Premiere, Sony Vegas, Pinnacle Studio, Ulead Videostudio, Camtasia studio kabi bir qator dasturlar mayjuddir.

Videoni bir formatdan boshqa formatga o'tkazish uchun konverter-dasturlar, hamda kodeklar kerak bo'ladi. Multimedia texnologiyalarida axborotni siqish algoritmi muhim o'rin tutadi, chunki multimediali ob'ektlar katta xajmga egadir.

Videosignallar xar doim juda ko'p ortiqcha axborotga ega, shuning uchun siqish jarayoni o'tkazish yo'lagi kengligini 200, 100 yoki xech bo'lmaganda 10 barobar qisqartirish imkonini beradi.

Siqish vositalarini kombinatsiyalash va integrallash mumkin bo'lishi uchun standartlar kerak. Oxirgi vaqtida bunday standartlar paydo bo'la boshladi va bozor bu standartlar talabiga javob beradigan darajadagi apparat va dasturiy ta'minotlar bilan to'lib boryapti.

Movie Maker – Microsoft Windows operatsion tizimining standart dasturlaridan bo'lib, u orqali filmlar ustida ishlash, ovoz yozish, rasmi filmlar yaratish mumkin.

Movie Maker dasturi yordamida quydagi amallarni bajarish mumkin:



- video yozish;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- rasmga olish;
- Movie Makerga multimediali fayllarni import qilish;
- faylni saqlash;
- klipni montaj qilish;
- videoeffekt, videoo‘tish va tekstlar bilan ishlash;
- ovozlar bilan ishlash.

Movie Maker dasturi quyidagi fayllarni import qilish imkoniga ega:

- audiofayllar: AIF, AIFC, AIFF, ASF, AU, MP2, MP3, MPA, SND, WAV, WMA.
- rasm fayllar: BMP, SIB, EMF, GIF, JFIF, JPE, JPEG, JPG, PNG, TIF, TIFF, WME.
- videofayllar: ASF, AVI, M1V, MP2, MP2V, MPE, MPEG, WM, WMV.




Chiziqli va chiziqli bo'lmagan montaj


Chiziqli montaj. Montaj deganda video kamera yordamida oldindan suratga olingan syujetlarni stsenariy asosida joylashtirish tushuniladi. Montaj video magnitafon orqali ma'lum ketma-ketlikda kadrlarni zarur tirlarni va effektlarni qo'ygan holda qayta yozishdan iborat. Keyin yozilgan kadrlar ketma ketligiga tovush qatorlari (diktor ovozi, fon musiqasi) kiritiladi. Shu usulda amalga oshirilgan montaj chiziqli montaj deyiladi.



Chiziqli montaj funktional cxemasi



Chiziqli montaj cxemasi




Montaj studiyasi (Chiziqli montaj)

Chiziqli bo'lmagan montaj. Bir necha yil muqaddam montaj ishlarini kompyuterda amalga oshirish imkoniyati payda bo'ldi. Bu texnologiya nochiziqli montaj nomini oldi, chunki bu texnologiyada operator kerakli kadrغا to'g'ridan to'g'ri murojaat qila oladi va kerakli kadrni o'z joyiga o'rnatadi. Lentani qayta-qayta aylantirishga hech qanday ehtiyoj yo'q. Undan tashqari raqamlashtirilgan video fayllarni 3-10 martagacha ixchamlashtirishimiz mumkin.



Chiziqli bo‘lmanan montajning oddiy sxemasi



Chiziqli bo‘lmanan montajning funktional sxemasi

Chiziqli bo‘lmanan montajning afzalliklari: boshlang‘ich sifatning saqlanishi; ixcham; bitta kompyuter etarli; natija uchun bitta magnitafon qo‘llaniladi; -yuqori sifat; ko‘chirishning osonligi; natijani zichlashtirish va uzatish qulayligi va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. Videofaylni yaratish nechta bosqichdan iborat?
2. Movie Maker dasturi yordamida qanday amallarni bajarish mumkin?
3. Chiziqli va chiziqli bo‘lmanan montaj tushuntirib bering.

6-ma'ruza: Rolikga video ma'lumotlarni va ovozni qo'yish

Reja:

1. Pinnacle Studio dasturi
2. Video fayllarni yaratishning texnologik bosqichlari

Pinnacle Studio dasturi

Pinnacle Studio HD Ultimate Collection - Blu-ray va AVCHD ni kiritgan holda HD video yordami bilan videoni taxrir qilish uchun ommabop dastur. Dasturlar oddiy va qulay interfeysga ega, uning yordamida siz turli effektlar, o'tishlar va animatsiyalarni qo'llagan holda Dolby Digital 5.1 yuqori sifatli videoroliklar yaratishingiz mumkin.

O'z ijodingizning natijasini siz YouTubega qo'yishingiz yoki uni DVDga va ixcham moslamalarga yozishingiz mumkin. Dastur titrlar, rangli tuzatish, yoritish va maxsus effektlar yaratish uchun professional vositalarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi xususiyatlari:

Videokameralar, raqamli kameralar, telefonlar, DVD-disklar va boshqalardan video va fotosuratlarni import qilish. AVCHD va H.264 formatlardan foydalanganda HD videoni juda yuqori tezlik bilan tahrir qilish. Montaj uchun effektlar va 80 dan ortiq shablonlar ishlatisch bilan titrlar va DVD menyuni yaratish.

Ajoyib animatsion effektlar va tezlashish effektlarini yaratish uchun stop-kadr bilan ishslash Blu-Ray, HD DVD, DVD disklarini yozish.

Videoni yaratishda animatsiyalar va turli effektlarni qo'llash


Kinoda oddiy qo'llaniladigan tasvirni mustahkamlashning noyob texnologiyasidan foydalanish Dolby Digital 5.1 videoroliklarni yaratish YouTube, Blu-Ray, HD DVD, DVD uchun MP3 fayllar va boshqalarda video yaratish imkoniyati. Flash, QuickTime, AVCHD, PS3, Nintendo Wii, Xbox va boshqa moslamalar uchun roliklar eksport qilish.

Gollivud stilida animatsiyalarni, o'tishlar va effektlarni qo'shish. Pinnacle Studio HD Ultimate Collection videofayllarni yuqori sifatli videotasvir yordami bilan konvertatsiya qilish uchun mashhur dasturli mahsulot hisoblanadi, unga AVCHD va Blu-Ray kiradi. Ilova etarlicha qulay va oddiy menyuga ega, uning yordamida turli animatsiyalar, effektlar va o'tishlardan foydalanib, shuningdek yuqori sifatli videofayllar yaratish imkoniyati bor.

Video fayllarni yaratishning texnologik bosqichlari

Studio dasturi yordamida filmlarni yaratish jarayoni uch bosqichdan iborat.

Qabul qilish (zaxvat) PK (shahsiy kompyuter)ning qattiq diskiga dastlabki videomaterialni kiritish. Videomateriallarning manbasi bo'lib videomagniton, raqamli DV, Digital 8 videomagnitonlari yoki telekamera, videokamera, vebkameralaridan real vaqtida qabul qilingan videosignal lar hisoblanadi. "Qabul qilish (zaxvat)" rejimi 2 bo'limda ko'rib chiqilgan.




Tahrir. Qabul qilib olingan videomateriallarni keraksizligini yo'qotib, qolganini hohlagan va kerakli tartibda joylashtiring. So'ngra vizual qo'shimchalar(effekt)ni, masalan grafik bezak, titrlarni olmashinishi, kadr ortidagi turli ovozli elementlarni qo'shish mumkin.


TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Tomoshabinlarga namoyish qilish parametrlarni sozlash uchun DVD va VSD disklariga yozib olish jarayonida “Interaktiv menyu”ni yaratish, namoyish uchun tomoshabinlar uchun parametrlarni sozlash imkoniyatini beradi. Taxririyat rejimi bosqichida Studio dasturining asosiy qismi amalga oshiriladi. “Taxrir” bo‘limida bu bosqich haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Filmni e'lon qilish. Rejalashtirilgan loyixa to‘liq bajarilganida, mos keluvchi formatda videokasseta, VSD disk, va S-VSD disk, DVD disk, AVI, MPEG, Real Video, Windows Media fayliga filmni yakuniy varianti yozib olinadi.

Pinnacle Studio dasturi





Pinnacle studioni ba'zi xususiyatlari:

1. Videokameralar, raqamli kameralar, telefonlar, DVD disklar va boshqalardan video vafoto suratlarni import qilish;
2. AVCHD va H.264 formatlardan foydalanilganda HD videoni juda yuqori tezlik bilan tahrir qilish;
3. Montaj uchun effektlar va 80 dan ortiq shablonlar ishlatalish bilan titrlarda DVD menyuni yaratish;
4. Ajoyib animatsion effektlar va tezlashish effektlarini yaratish uchun stop-kadr bilan ishlash;
5. Blu-Ray, HD DVD, DVD disklarini yozish;
6. Flash, Quick time, AVCHD, va boshqa moslamalar uchun roliklar eksport qilish;
7. Videoni yaratishda animatsiyalar va turli effektlarni qo'llash;
8. Kinoda oddiy qo'llaniladigan DVCHDdagi tasvirni mustahkamlashning noyob texnologiyasidan foydalanish Dolby Digital 5.1 jarangi bilan video roliklarini yaratish;

Chiziqli bo'limgan montaj qilish dasturlari va ularning imkoniyatlari.

Pinnacle studio HD Ultimate collection video fayllarni yuqori sifatli video tasvir yordami bilan konvertatsiya qilish uchun mashhur dasturli mahsulot hisoblanadi.


TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI



Videofilmni tayyorlash 3 bosqichidan iborat bo'ladi.

ZAXVAT- bu oldindan biror bir formatda yoziladigan audio-video informatsiyani tahrirlash uchun olish. Zaxvat 3 usulda olinishi mumkin.

1. Tashqi qurilmadan
2. Ekrandan
3. Vebkameradan.



TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Montaj - bu zaxvat qilingan axborotni kerakli joylarini olib, unga ishlov berish, axborotni tayyor holatga keltirish. Bu erda axborotga titr qo'yish, fon berish, maxsus effektlar va o'tishlar berish mumkin. Qolaversa montaj ishining muhim nuqtasi musiqa va qo'shimcha ovoz berish imkoniyati mavjud.



TITR qo'yish ishning muhim bosqichlardan biri. Video filmga titrlar asosan boshi va ohrida qo'yiladi. Titrlarni qo'yishda filmning boshlanish lavhasiga katta e'tibor berish kerak.


RENDERING –tayyor bo'lgan film haqida umumiy ma'lumot. Bu panelda beshta yo'nalish bo'yicha qatorlar joylashgan bo'ladi misol uchun birinchi qator tasvir, ikkinchi qator o'zini tasvirning xususiy ovozi, uchinchi titr, to'rtinchi va beshinchisi musiqa uchun ajratilgan bo'ladi. Bu panel boshqacha ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin misol uchun faqat tasvir ko'rinishda bo'ladi.




Video filmni chiqarish - oxirgi qadam. Bu tayyor video filmni tomoshabinlarga etkazish uchun biror formatda saqlash.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI


Tayyor filmni DVD, AVCHD, Blu-Ray, HD DVD, VCD ga o'tkazish mumkin. Bu erda tip fayl degan joydan o'zimizga kerak formatni tanlab olamiza va tagida shablonдан kerakli yo'naliishi olib olamiz va shundan o'ng tarafidagi papkaning yorlig'i tanlanadi. Saqlanadigan yo'l beriladi. Nomi berilib, keyin fayl yaratish tugmasi bosiladi.



Bu holat montaj jarayoni hisoblanadi yani bu haqida yuqorida aytib o'tgan edik.



Tayyor bo'lgan video montajni namoyish qilish uchun quyidagi ko'rinishdagi amalni bajaramiz. Bu erdan kerakli diskni tanlaymiz. Keyin [sozdat] tugmasini bosamiz undan so'ng fayl hosil qilinadi.



Nazorat savollari:

1. Video fayllarni yaratishning texnologik bosqichlari nechta?
2. Videofilmni tayyorlash nechta bosqichdan iborat bo'ladi?

7-ma'ruza: Ma'lumotlarni multimediali namoyish etish.

Reja:

1. **Ta'lif jarayonida multimedia texnologiyasi**
2. **Ochiq va masofali ta'lifda multimedia**
3. **Multimedia vositalarining interfaolligi**

Ta'lif jarayonida multimedia texnologiyasi

Axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi bilan shaxsga qaratilgan o'qitish uchun mo'ljallangan muhim pedagogik vositalar Internet, multimedia, ta'lif ashyolari va multimedia gipermatnlik elektron darsliklardan iborat bo'lmoqda. Insoni qabul qiladigan har qanday axborotlarni ikki sinfga ajratish mumkin:

- sezish organlariga ta'siri bo'yicha: optik-akuistik, optik-ko'zga ko'rinarli va h.k.;
- texnik bir jinslilik bo'yicha: matnli, akustik, tasvir foydalanuvchi, rangi.

Axborot masalan, na faqat grafik ko'rinishda tasvirlanishi, balki ovoz jo'rligida yoki odam organiga ta'sir etish bilan ajratiladi.

Talabaga axborotni psixologik ta'siri haqida gap yuritib, axborotni optimal tasvirlash unga ko'p o'ylamay u yoki bu echimini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Insonni tuli axborot qabul qilishining umumiyligi xususiyati turli ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish kabi sezgi organlarining faoliyat qilish xususiyatlari bilan aniqlanadi. Biz faqat, zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnikasida ishlash mobaynida talabalarga ta'sir qiladigan axborot ko'rinishlari ustida gap yuritamiz. Shunday qilib, har qanday axborotni talabalar tomonidan qabul qilish usuli bo'yicha, uchta asosiy guruxga ajratish mumkin:

1. Ovozli axborot - odamning eshitish organi orqali qabul qilinadigan axborot.
2. Ko'rish yoki vizual axborot – ko'rish organi orqali olinadigan axborot, shu jumladan matn, grafik tasvir-rasmlar.
3. Sensorli axborot – odam videorolik, teleob'ektlar va boshqalar bilan maxsus texnik vositalarda ishlayotgan vaqtida qisman sensor tizimida qabul qilinadigan axborot.

Yuqorida sanab o'tilgan axborotlarning barcha ko'rinishlarini boshqa mezonlar bilan ham sinflarga ajratish mumkin. Masalan, talabaga kelayotgan barcha axborotlarni assotsiativ (esga tushirilgan) va to'g'ri guruxlarga ajratish mumkin.

Assotsiativ axborot - ilgari o'zlashtirgan axborot ta'siri ostida paydo bo'ladigan tassavvurlar harakatiga asosolangan axborotdir. Masalan, aniq bir dasturlardan foydalanilayotganda, bir xil personajlar yoki yo'lboshchilar qatnashadilar. Bunday yo'lboshlovchilar yoki boshqa qat'iy unserlarning borligi, talabalarda ta'lif maqsadlari nuqtai nazaridan foydali bo'lgan aniq bir tasavvur chiqaradi. Tasavvur axborotlarni talabaga ta'siri ma'lum ob'ektlar tomonidan asosan, uning xotirasiga ta'sir qilish orqali amalga oshiriladi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

To‘g‘ri axborot, o‘ziga diqqatni qaratish uchun, ochiq sezilib turadigan, yaqqol, birinchi qarashdayoq ko‘rmaslikni iloji bo‘lmaydigan, boshqalardan alohida ajralib turadigan bo‘lishi zarur.

Axborotni tasvirlash chiziqli va tuzilishli (chiziqsiz) turlarda bo‘lishi mumkin. O‘quv axborotlarni chiziqli tasvirlash uchun, o‘quv materialini bayon qilish tuzilishi materialni ketma-ketligi bilan bir qiymatli aniqlanadi. U talabalarga u yoki bu axborot ob‘ekt haqida shu sind ob‘ektlari bilan keltiriladigan o‘xshashlikka ko‘ra umumiy xulosa qilishga imkoniyat bermaydi.

Hozirgi paytda axborotlarni tasvirlashning turli uslublarini o‘z ichiga olgan va Internetdan foydalaniladigan telekommunikatsion tizimga asoslanayotgan gipermatnlik texnologiyalar va u bilan aloqador multi va gipermedia texnologiyalari paydo bo‘lmoqda.

Axborotlarni gipermatnlik tasvirlash asosida, ajratilgan matnli lavhalar orasida bir-birini kesib o‘tadigan aloqalar o‘rnataladigan va matnning bir lavhasidan boshqasiga o‘tish qoidalari aniqlanadigan chiziqsiz matn tushunchasini kiritish yo‘li bilan an'anaviy matn tushunchasini kengaytirish g‘oyasi yotadi. Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarini ta’limda qo‘llanilishi yanada rivojlangan axborot vositalarini – gipermedia tizimlarini yaratishga olib keldi.

Gipermuhit yoki gipermedia deb, tarkibiga axborot turlari (matn, rasm, ovoz, video) kirgan gipermatnga aytildi. Hozirgi paytda juda ko‘p elektron axborotli multimedia entsiklopediyalari, ma'lumotnomalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratilyapti. Ularning har biri o‘zaro mantiqan bog‘langan, rasm, videolavhalarni birlashtiruvchi gipermedia tizimdan iboratdir. Ularning bir qismlari sayt ko‘rinishida Internetda joylashtirilmoqda. Maxsuslashtirilgan multimedia texnologiyasini paydo bo‘lishi tufayli turli-tuman axborotlarni zamonaviy AKT vositalaridan foydalanib taqdim etish imkoniyati yaratildi.

Shunday qilib, keng ma'noda “multimedia” foydalanuvchi (talaba, tinglovchi)ga yanada samaraliroq ta'sir etishga qaratilgan turli dasturiy va texnik vositalarni axborot texnologiyalarining spektrini ifodalaydi.

Multimedia vositalarida bir vaqtning o‘zida grafik, audiu (ovozi) va vizual axborotlarni ta'sirini qo‘llash tufayli bu vositalar katta hissiy zaryadga ega va muassasalar amaliyotiga ham, uydagisi bo‘sh vaqtga ham faol qo‘iladi.

Gurkirab rivojlanayotgan multimedia texnologiyasi ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or va yangi texnologiyadir. To‘laqonli multimedia 1986 yilda yaratilgan bo‘lib, u o‘z ichiga bira to‘la matnli, tasvirli, ovozli, videoli, animatsiyali va grafikli ma'lumotlarni oladi.

Hozirgi kunda multimedia atamasi turli xil ma'noda qo‘llanilmoqda, masalan:

- turli xil axborotlarga ishlov berish tartibini yorituvchi;
- ishlov berish vositalarini qo‘llovchi va amalga oshiruvchi moslama texnologiyasi;
- qo‘llanish vositalari;
- multimedia texnologiyasiga asoslangan mahsulot;
- multimedia dasturi;
- kompyuterning apparat ta'minoti (kompakt disklarni o‘qish uchun mo‘ljallangan maxsus qurilmalar);
- axborotni umumlashtirilgan turi statik (matn, grafika) va dinamik (nutq, musiqa, video, animatsiya)larning umumlashtirilgan maxsus turi.

Olimlarni tajribalari materialni og‘zaki bayon etishda talaba bir daqiqada bir mingga yaqin, ko‘rish organlarini “ishga tushirganda” 100 mingga yaqin shartli belgilarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatiga egaligini tasdiqlagan. Shuning uchun, materialni

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

ko'rish va eshitish orqali qabul qilishga asosolangan multimedia vositalarini o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish yuqori samara berishi ravshan.

Multimedia (multimedia vosita) – uning ommaviy ta'rifiga ko'ra turli axborotlarni: matnlar, rasmlar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotografiyalar, video va audio lavhalar va shu kabilarni raqamlashtirilgan ko'rinishda yaratish, saqlash, qayta ishlash va ishlab chiqarishdan iborat.

Shunday qilib, qisqacha multimedia deganda axborotlarni turli shakllarda birlashtirilgan tasvirlashini tushunish mumkin.

Multimedia, audiovizual axborotni:

- vizual axborotlarni jariy ekran maydoni chegarasida ham, avvalgi (keyingi) ekran maydoni doirasida ham “manipulyatsiya qilish” (ustiga qo'yish, siljitim);
- turli audiovizual axborotlarni siljitim;
- animatsialik samaralarni amalga oshirish;
- vizual axborotni deformatsiyalash (aniq bir chiziqli parametrni kattalashtirish yoki kichiklashtirish, tasvirni cho'zish yoki qisish);
- audiovizual axborotni diskret uzatish;
- tasvirga rang berish (tonirovkalash);
- vizual axborotni keyingi harakatlantirish yoki “lupa ostida” ko'rib chiqish uchun tanlangan qismni belgilash;
- bir ekranda audiovizual axborotlarni ekranning ixtiyoriy qismini faollashtirish (masalan, bir “oynada” – videofilm, boshqasida matn) imkoniyati bilan ko'poynalik tasvirlash;
- real vaqtida o'tadigan jarayon, hodisa (videofilm) namoyish etish kabi zamonaviy qayta ishlash usullaridan foydalanish hisobiga zamonaviy o'qitishni jadallashtirish va o'qitish motivatsiyasini ko'tarish imkoniyatini ta'minlaydi. Multimedia dasturlari axborotlarni nafaqat matn ko'rinishida, balki uch o'lchovli grafik, ovozli jo'rlik, video, animatsiyalar ko'rinishida ham ifodalaydi.

Hozirgi kunda ko'pgina o'quv predmetlari va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha elektron entsiklopediyalar, vaziyatli o'yin trenajyorlari va multimedialik o'qitish tizimlari ishlab chiqilgan.

Raqamli multimedialarning interfaollikni taqdim etishi boshqa axborot taqdim etish vositalariga qaraganda ustunligidir. Shu bilan birga, ular o'quv materiallarini uzatish tezlik va takrorlash sonini o'rnatishlari ham mumkin. Bundan tashqari, multimedia vositasi talabalarga o'zaro aloqa o'rnatish imkoniyatini beradi va axborotni taqdim etishning boo'qa vositasidan ajralib turadi.

Multimedia texnologiyalari kompyuter yordamida bilimlarni turli ko'rinishlarda, jumladan:

- tasvirlar, shu jumladan skanerlangan rasmlar, chizmalar, xaritalar va slaydlar;
- ovozni yozushi, ovozli samaralar va musiqalar;
- video, murakkab videosamaralar va animatsion imitatsiyalar;
- animatsiyalar va simulyatsiyalarni taqdim etish imkoniyatini beradi.

Ochiq va masofali ta'limda multimedia

Multimediana foydalanish ochiq va masafali o'quv jarayonida birdaniga bir necha yo'nalishda ijobjiy ta'sir etishi mumkin. Dastlab, multimedia axborotni qabul qilish va tushunish kabi o'qitishning kognitiv yo'nalishlarini yo'nalishlarini qo'llashi mumkin. Ikkinchidan, multimedia talabalarning motivatsiyasini ko'tarishi mumkin. Uchinchidan, multimedia hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga va talabalarning jamoa

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

bo'lib bilim olishga yordam berishi mumkin. To'rtinchidan, o'quv multimedia-vositalar talabalarda nazariy jihatdan o'qishga chuqurroq yondashuvni rivojlantirish va bu bilan chuqurroq tushunishni ta'minlashi mumkin. Multimedia vositalarining ochiq ta'limgagi asosiy imkoniyatlari va ustunliklari:

- o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida talabalarining qabul qilish kanallarini bir nechasini foydalanib, bir necha turli sezish organlari etkazadigan axborotlarning integratsiyasiga erishiladi;
- murakkab haqiqiy tajribalarni rag'batlantirish imkoniyati;
- jarayonlarni dinamik taqdim etish hisobiga abstrakt axborotlarni ko'rish mumkinligi (vizualizatsiya);
- o'rganayotgan o'quv materialini jamoaviy, tarixiy kontekstga to'g'rilab va talabaning ifodalashi bilan bog'langan holda ularning kognitiv tuzilishi va ifodalashini rivojlantirish imkoniyatlaridir.

Ochiq ta'limga multimediali dan o'qitish vositasi va aloqa vositasi sifatida foydalaniladi va multimedia mahsulotlari va Internet xizmatlari talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini ishlab chiqish uchun ham, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ham foydalanilishi mumkin.

Ochiq ta'limga foydalaniladigan multimedia vositalari oddiygina munosabatga emas, balki talabalarining motivatsiyasini rivojlanishi, talaba shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun sharoitlar yaratiladigan, ta'lim uchun his-tuyg'uga qulay muhit ta'minlanadigan pedagogik munosabat modellashtiriladi.

Ochiq ta'limga foydalanadigan ba'zi multimedia vositalari mazmuni chiziqli tabiatga ega. Shu sababli, mazmun bo'yicha bunday vositalarni navigatsiya tizimi talabalarni ketma-ket o'qitish bosqichlaridan o'tkazadi. Multimedia vositalarida axborotlarni bu shaklda taqdim etish an'anaviy materialni kino va videafilmlarda bayon qilish bilan bir xil. Talaba o'qitishning multimedia vositalarini faqat, u nimani o'rganishni xoxlayotganligini ko'rsata olsagina boshqarishi mumkin. Odatda bunday videokliplar, animatsiyalar va boshqa shunga o'xshash multimedia ilovalarini o'ziga oluvchi raqamli multimedia entsiklopediani ifodalaydi.

Odatda, o'quv axborotlarni chiziqli taqdim etishni amalga oshiruvchi o'qitishning multimedia vositalari, gipermatn va gipermedia texnologiyasi va tamoyillariga asoslanadi. Chiziqli taqdim etadigan multimedia-axborotga nasbatan bunday vositalar interfaollikning ancha katta salohiyatiga egadir. Ochiq va masofali o'qitishda gipermatnli multimedia vositalaridan foydalanib, talabalar so'rovlariga aniq javob oladigan tarzda axborotlarni izlashlari mumkin. Odatdagagi kitoblardan farqli bunday yondashuv, matn, musiqa, animatsiya, vizual modellashtirish, sonli statistikalar, videokliplar va sh.k. turli multimedia axborotlarni o'quv materialiga birlashtirishi mumkin.

Multimedia vositalarining interfaolligi

Multimedia vositalarining interfaolligi deganda o'qitish jarayoniga va o'quv materiallari mazmuniga o'qituvchi tomonidan ta'sir etish imkoniyatlari tushuniladi, shu jumladan:

- ekran ob'ektlarini manipulyatsiya qilish;
- chiziqli navigatsiya – ekran chegarasida skrolling;
- ierarxik navigatsiya - ierarxik tashkil etilgan menyu tizimi yordamida mazmunli bo'lim ostilarni;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- navigatsiya panelida maxsus tugmalar yordamida chaqiriladigan faol ma'lumotnomalar vazifalari. Eng samarali kontekstli bog'liq ma'lumotnomalar;
- vosita so'rovlarga va foydalanuvchi harakatlariga javob berish imkoniyatiga ega bo'lgan holda foydalanuvchi bilan o'zaro ta'sir qilish;
- multimedia vositasi ekranli ob'ektlarni yaratish va konfiguratsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan holda konstruktiv o'zaro ta'sir;
- keyingi taxlil uchun (masalan, ushbu axborot asosida talabalarga materialni optimal o'qish tartibini tavsiya etish uchun) multimedia vositasi foydalanuvchi harakatlarini hisobga oladigan reflektiv o'zaro ta'sir;
- ekranli ob'ektlar bir-birlari bilan bog'langan va bu ob'ektlarni to'g'rilash ularning "xulqini" (texnik qurilmalarni, ijtimoiy jarayonlarni va sh.k.larni haqiqiy ishlashini rag'batlanuvchi) aniqlaydigan qilib o'zaro ta'sir etadigan holdagi simulyativ interfaollik;
- oshkor bo'limgan didaktik ahamiyatga ega bo'lib, u tufayli talabalar turli faoliyat ko'rinishlariga jalb etiladigan kontekstlik interfaollik. Interfaollikning bu turi ko'psonli ko'ngil ochar o'rgatuvchi multimedia dasturlari va o'yinlarida foydalaniladi;
- foydalanuvchi yolg'on uch o'chovli dunyoga kirib qoladigan virtual haqiqat tizimini ishlash xususiyatiga keltiriladigan chuqurlashtirilgan interfaollik.

O'qitishning multimedia vositalari foydalaniladigan interfaollikni asosan uchta: reaktiv, faol va ikki tomonlama o'zaro ta'sir turlariga ajratish mumkin.

O'qitishning an'anaviy shaklida o'rgatish va o'qitish jarayonini boshqarish, birinchi navbatda, verbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda munosabatning shakllaridan biri muloqotdan iborat. Muloqotli o'zaro ta'sir o'qitishning quyidagi yo'nalishlarini ta'minlab beradi:

- talabaning faoliyatini uzluksiz nazorati;
- diagnostika;
- o'qituvchi tomonidan tizimni boshqarish;
- foydalanish jarayonida tizimni o'zini-o'zi takomillashtirish va adaptatsiya qilish.

Multimedia vositalari yordamida o'qitish yoki o'qituvchi rahbarligida, yoki to'la kompyuter o'qitish dasturi orqali amalga oshiriladi. Muloqot tizimini ochiq ta'lim amaliyotida ikki variantning qaysi biridan foydalanish mo'ljallanayotganligiga qarab rejalashtirish va tuzish lozim.

O'qitish "o'qitish multimedia vositasi-talaba" tartibidagi muloqoti juda qisqa bo'lishi kerak. Bu ekrandagi axborotni o'qish vaqtini qisqartiradi va mos ravishda ko'p vaqt tahlilga va qaror qabul qilishga qoladi. Zarur axborotlarni o'qituvchi to'ldirishi mumkin.

Ochiq ta'lim tizmidan foydalaniladigan ko'pgina ta'lim elektron nashrlarniing interfaolligi, foydalanuvchiga-talabaga kompyuter o'quv dasturi bilan faol aloqa qilish imkoniyati beriladi. Aslida, talaba bilan ta'limning multimedia vositasi orasidagi o'quv muloqot uchun sharoit yaratilishi kerak.

Muloqot deganda ko'pincha, ikki tomon ishtirok etadigan axborot almashinish tushuniladi..

"Talaba-o'qitish multimedia vositalari" muloqotini ko'rishning asosiy psixologik muammolariga o'uyidagilarni kiritish mumkin:

- "Talaba-o'qitish multimedia vositalari" muloqotini ko'rishning umumiyligi psixologik tamoyillari;
- munosabat jarayonini tashkil etish;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- lingvistik yo'nalishlar (mos tilini tanlash, ma'lumot matnini tuzish, uning shakli, o'lchami va hokazo);
- munosabatning modalligi (axborotni taqdim etish va talabaning javoblari turi);
- munosabatning mazmunli yo'nalishlari.

Ta'lim jarayoniga tadbiq etiladigan multimedia texnologiyasi odatdagি an'anaviy metodlarga nisbatan ma'lum bir afzallikkarga ega:

- Talabalarda fikrlash qobiliyatini o'stiradi;
- Talaba bir vaqtning o'zida ham ko'radi ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtida faollik ko'rsatadi;
- An'anaviy usullarga nisbatan talabalarga o'rgatiladigan materialning hajmi ortadi;
- Mashg'ulot davomida talabalarni toliqtirmaslik uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;
- O'rganilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda namoyish etish yoki qayta nimoyish etish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Insoni qabul qiladigan axborotlar nechta sinfga ajratish mumkin?
2. Multimedia vositalarining ochiq ta'limdagи asosiy imkoniyatlari va ustunliklarini aytib bering.
3. Multimedia vositalarining interfaolligi deganda nimani tushunasiz?

IY. AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Laboratoriya mashg'ulot

Mavzu: Multimedia xususiyatlari va televideniya multimediyasidan tajribada foydalanish.

Ishning maqsadi: Talabalarni multimedia xususiyatlari va televideniya multimediyasini tajribada ishlatish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Nazariy qism

Media bu insonlar o'rtaida axborot, bilim, xis-tuyg`ular, fikr va g`oyalarni yetkazib berishdir. Medianing etimologiyasi suxbatdoshga bilim yoki axborotni berishdir. Bir xil turdag'i ma'lumotlar monomedia deyiladi. Multimedia bu bittadan ko'p bo'lgan mediadir. Multedianing komponentalariga – matn, tasvir, grafika, ovoz, musiqa, animasiya, videolardir.

<i>Hello World!</i>					
Matn	Musiqa	Tasvir	Grafika	Animasiya	Video

Nazorat savollari

1. Media tushunchasi
2. Multimedia tushunchasi
3. Multedianing xususiyatlari
4. Televidenie tushunchasi
5. Multedianing bajarilish shartlari

Topshiriq variantlari

1. Multimedia xususiyatlarini o'rganib chiqish.
2. Matn haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.
3. Musiqa haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.
4. Tasvir haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.
5. Grafika haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.
6. Animasiya haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.
7. Video haqida qisqacha ma'lumot topish va uni o'rganib chiqish.

Ishni bajarish tartibi

1. Internet, Multimedia sohasida faoliyat olib boruvchi rivojlangan davlatlarning ta'lim maskanlarida yaratilgan adabiyotlardan foydalanib ma'lumot izlash va to`plash.
2. To`plangan ma'lumotni o`zlashtirish va asosiy mazmunini ajratib olish.
3. Xisobot shaklida elektron va qog'oz variantda topshirish.

2-Laboratoriya mashg'ulot

Mavzu: Multimedia ma'lumot xususiyatlari va multimedia uskunaviy ta'minotidan tajribada foydalanish.

Ishning maqsadi: Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni multimedia ma'lumot xususiyatlari va multimedia uskunaviy ta'minotidan tajribada foydalanish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Nazariy qism

Multimedia ma'lumot xususiyatlariga interaktiv, nochiziq, integrasion, katta xajmli, raqamli bo`lishi kiradi.

Interaktiv – real vaqt rejimida o'zaro ma'lumot almashish.

Nochiziq – son, ovoz, tasvir kabi nochiziq ma'lumotlarni boshqarish.

Intrasion – turli medialarni birlashtirish.

Katta xajmli – tasvir, audio va video kabi ma'lumotlar.

Raqamli – Analog ma'lumotni raqamli ma'lumotlga aylantirish.

Raqamli ma'lumotlar analog ma'lumotlarga solishtirganda shovqinni yo'qotish osonligi.

Raqamli ma'lumotlarni qayta ishslash, taxrirlash osonligi.

Raqamli ma'lumotlarda kerakli ma'lumotni tez topish osonligi. Masalan, Kompakt diskdag'i ma'lumotni analog kassetadagi ma'lumotga ko'ra topish oson.

Katta xajmdagi raqamli ma'lumotlarni kichik xajmga aylantirish va teskarisiga bajarish mumkinligi.

Multimedianing uskunaviy ta'minotlari:

Kiritish qurilmalari: klaviatura, sichqoncha, mikrofon, skaner, nurli qalam, video kamera, TV tyuner va boshqalar.

CHiqarish qurilmalari: Monitor, printer, spiker, naushnik, plotter va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Multimedia ma'lumot xususiyatlari
2. Interaktivlik
3. Nochiziqlik
4. Integrasion
5. Katta xajmlilik
6. Raqamli bo`lishlik
7. Multimedianing uskunaviy ta'minotlari
8. Kiritish qurilmalari
9. CHiqarish qurilmalari
10. Qayta ishslash qurilmalari

Topshiriq variantlari

1. Interaktivlik xususiyatini o'r ganib chiqish.
2. Nochiziqlik xususiyatini o'r ganib chiqish.
3. Integrasion xususiyatini o'r ganib chiqish.
4. Katta xajmlilik xususiyatini o'r ganib chiqish.
5. Kiritish qurilmalaridan foydalanishni mukammal o'r ganish.
6. CHiqarish qurilmalari bilan ishslashni mukammal o'r ganish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

7. Qayta ishlovchi qurilmalar bilan ishlashni mukammal o`rganish.

Ishni bajarish tartibi

1. Internet va multimedia sohasida faoliyat olib boruvchi rivojlangan davlatlarning ta`lim maskanlarida yaratilgan adabiyotlardan foydalanib ma`lumot izlash va to`plash.
2. To`plangan ma`lumotni o`zlashtirish va asosiy mazmunini ajratib olish.
3. Multimedia bilan ishlovchi qurilmalar bilan ishlash.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog`oz variantda topshirish.

3-Laboratoriya mashg`ulot

Mavzu: Multimedia dasturiy ta`minoti va multimedia komponentalarini solishtirishdan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni multimedia dasturiy ta`minoti, Director dasturi, Authorware dasturi, Icon-author, Flash dasturi, MP3 player dasturi, MPEG player dasturi, Real player dasturi, Quick time movie player dasturi, Windows Media player dasturi, multimedia komponentalarini solishtirishni tajribada ishlatish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma`lumotlar:

Multimedianing dasturiy ta`minotlari quyidagilar: operasion tizimlar – Windows, Unix, Linux, Macintosh, Solaris, muallif dasturlari – Director, Macromedia Flash, Photoshop, Corel Draw, Sound editor, Premiere, Authoware, qayta foydalanish dasturlari - MP3 player, MPEG player, REAL player, Quick time movie player, windows media player va boshqalar.

Multimedia komponentalarini solishtirish.

Matn: Ma`lumot kattaligi (bayt) q qatordagi belgilar soni **X** sahifadagi qatorlar soni. Misol: xar bir qatordan 80 belgisi mavjud 40 qatorli matn q qatorda 80 belgi **X** sahifadagi qatorlar q 3200 bayt q 3.2 Kbayt

Raqamli audio: Ma`lumot kattaligi (bayt) q sampling **X** sampl kattaligi / 8 **X** 1 (mono) yoki 2 (stereo) **X** vaqt davomiyligi. Misol: 44.1 KGsli, 16 bitli stereo ovoz 60 daqiqa davomida. 44100 **X** 16/8 **X** 2 **X** 3600 q 635040000 bayt q 635 Mbayt.

Tasvir: Ma`lumot kattaligi (bayt) q piksellar soni **X** bitlar soni / 8. Misol: 640 **X** 480 pikseldan tashkil topgan 24 bitli rang tasvir. 640 **X** 480 **X** 24/8 q 921600 bayt q 921 Kbayt.

Video: Ma`lumot kattaligi (bayt) q tasvirning kattaligi **X** freym / soniya **X** soniya. Misol: 640 **X** 480 pikseldan tashkil topgan 24 baytli tasvir 30 freym/soniya bilan 10 soniya davomida aks etadi. 640 **X** 480 **X** 30 **X** 10 q 276480000 bayt q 276 Mbayt

Nazorat savollari:

1. Director dasturi bilan ishlashni o`rganish.
2. Authorware dasturi bilan ishlashni o`rganish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

3. Icon-author dasturi bilan ishlashni o`rganish.
4. Macromedia Flash dasturi bilan ishlashni o`rganish.
5. MP3 player dasturi bilan ishlashni o`rganish.
6. MPEG player dasturi bilan ishlashni o`rganish.
7. Real player dasturi bilan ishlashni o`rganish.
8. Quick time movie player dasturi bilan ishlashni o`rganish.
9. Windows Media player dasturi bilan ishlashni o`rganish.
10. Photoshop dasturi bilan ishlashni o`rganish.
11. Premiere dasturi bilan ishlashni o`rganish.
12. Multimedia komponentalarini solishtirishni o`rganish.

Topshiriq variantlari:

1. Director dasturi bilan ishlash.
2. Authorware dasturi bilan ishlash.
3. Icon-author dasturi bilan ishlash.
4. Macromedia Flash dasturi bilan ishlash.
5. MP3 player dasturi bilan ishlash.
6. MPEG player dasturi bilan ishlash.
7. Real player dasturi bilan ishlash.
8. Quick time movie player dasturi bilan ishlash.
9. Windows Media player dasturi bilan ishlash.
10. Photoshop dasturi bilan ishlash.
11. Premiere dasturi bilan ishlash.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog`oz variantda topshirish.

4-Laboratoriya mashg`ulot

Mavzu: Multimedia texnologiyalaridan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni multimedia texnologiyalari, saklovchi texnologiyalari: CD-DA, CD-ROM, CD-I, Photo CD, Video CD, DVD(4.7G-8.5G/17G), JPEG, MPEG, DVI, AVI, aloqa texnologiyalari, Stream shaklida yuborish (ADSL, ATM), sinxronlashgan texnologiyalar, vaktni sinxronlashtirish, joyni sinxronlashtirishni tajribada ishlatish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma`lumotlar:

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Saqlovchi texnologiyalar: CD-DA, CD-ROM, CD-I, Photo CD, Video CD, DVD(4.7G-8.5G/17G).

Siquvchi texnologiyalar: JPEG, MPEG, DVI, AVI, Quick Time for Window, Video for Window.

Aloqa texnologiyalari: Oqim shaklida jo`natish uchun katta tezlikli texnologiya (ADSL, ATM ...).

Sinxronlashgan texnologiyalar: Vaqt ni sinxronlashtirish, joyni sinxronlashtirish.

Multimedianing qo'llanilishi.

- ta`lim va tarbiyada;
- videokonferensiyada;
- kioskda;
- o`yinlarda;
- Internetda va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. Multimedia texnologiyalari tushunchasi
2. Saqlovchi texnologiyalar.
3. CD-DA texnologiyasi.
4. CD-I texnologiyasi.
5. Photo CD texnologiyasi.
6. Video CD texnologiyasi.
7. DVD texnologiyasi.
8. Siquvchi texnologiyalar.
9. JPEG texnologiyasi.
10. MPEG texnologiyasi.
11. DVI texnologiyasi.
12. AVI texnologiyasi.
13. Oqim shaklida jo`natish uchun katta tezlikli texnologiya.

Topshiriq variantlari:

1. CD-DA texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
2. CD-I texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
3. Photo CD texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
4. Video CD texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
5. DVD texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
6. Siquvchi texnologiyalar yordamida multimedia maxsuloti yarating.
7. JPEG texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
8. MPEG texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
9. DVI texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.
10. AVI texnologiyasi yordamida multimedia maxsuloti yarating.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog'oz variantda topshirish.

5-Laboratoriya mashg'ulot


Mavzu: Gipermatn va gipermedia hamda matndan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni gipermatn va gipermedia, matn, matnni tushunish texnikasi soxasini tajribada ishlatish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma'lumotlar:

Gipermatn – o`zaro bog`langan matnlar assosiasiyasidir.



Gipermedia – turli xildagi media ma'lumotlarining bir-biri bilan bog`langan tizimidir.

Matn. Multimedia ma'lumotlarining ichida eng osonlik bilan foydalaniladigan bu matndir. Kompyuterga matn ma'lumotlarini kiritish uchun klaviatura va skanerdan foydalaniladi. Matnning asosiy xususiyati boshqa multimedia ma'lumotlariga qaraganda kichik xajmni egallaydi.

Insoniyat qadimdan fikr almashish uchun matndan foydalanishgan. Kompyuter paydo bo`lishi bilan matndan foydalanish xam rivojlandi, xalqaro standart ISO tashkiloti yaratilib matndan foydalanish barcha davlatlarda keng foydalana boshlandi.

Nazorat savollari:

1. Gipermatn tushunchasi.
2. Gipermedia tushunchasi.

Topshiriq variantlari:

1. Gipermatn yarating.
2. Gipermedia yarating.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog`oz variantda topshirish.

6-Laboratoriya mashg`ulot

Mavzu: Matnni tushunish texnikasi soxasi va matnli fayllar va ularning ta`riflaridan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni matnni tushunish texnikasi soxasi va matnli fayllar va ularning ta`riflarini tajribada ishlatish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma`lumotlar:

Matn kodi. Dunyodagi eng keng tarqalgan kod bu ASCII kodi hisoblanadi.

- 8 bit yordamida 256 ta belgini ifodalash mumkin.
- Nemis, Fransuz va Ingliz tillari uchun 7 bitdan foydalanib 128 ta belgini ifodalash mumkin.

EBCDIC kodi IBM firmasining o`rtacha hajmdagi kompyuterlari IBM360/370/390 tizimida foydlanilgan. 8 bit bilan 256 ta belgini ifodalash mumkin. Ammo ushbu kodda 150 ta belidan foydalanish mumkin.

Kompyuter va Internetning ommaviylashishi butun dunyoda ommaviy tarzda qo`llaniladigan kodlarning yaratilishiga zarurat tug`ildi. SHu munosabat bilan UNICODE kodi yaratildi. Bu kod yordamida dunyodagi barcha tillardagi belgilarni ifodalash mumkin. Bunda bitta belgining xajmi 2 bayt xisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Matn tushunchasi.
2. Matn asosi.
3. Matn ifodalaniishi.
4. Matn kodi.
5. ASCII kodi.
6. EBCDIC kodi.
7. UNICODE kodi.

Topshiriq variantlari:

1. ASCII kodida bo`lgan matn yarating.
2. EBCDIC kodida bo`lgan matn yarating.
3. UNICODE kodida bo`lgan matn yarating.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog'oz variantda topshirish.

7-Laboratoriya mashg'ulot

Mavzu: SHriftlarning turlari va raqamli audiodan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni shriftlarning turlari va raqamli audioni tajribada ishlatish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.


Zaruriy nazariy ma`lumotlar:

SHrift – xarf shaklini ifodalarydi. Uning asl ma`nosi shakl va xajmni ifodalash demakdir. SHrift xajmi point bilan ko`rsatiladi. Xarf kattaligi standartlaridan foydalanib 72 point 1 inch ni tashkil qiladi. (72 point q 1 inch).

SHriftning asosiy xususiyati xarf ingichkaligi, rangi va soyasidir. Xarflar orasidagi masofani boshqarish mumkin.


BITMAP shrifti bu nuqtalar yig`indisidir. Uning xajmi katta bo`ladi.

VECTOR (True Type Font) shrifti kontur chiziqlarini matematik funksiya bilan ifodalashdir. Xarfning kattaligi o`zgarsa matematik funksiya xam o`zgaradi. Ushbu shriftda xarflarning kattaligini erkinlik bilan o`zgartirish mumkin.



BITMAP shrifti

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI



VECTOR (True Type Font) shrifti

Matnli formatdagi fayl xarf va belgilardan tashkil topgan bo'ladi. Bunda grafika va formulalar bo`lmaydi.

RTF kengaytmali fayllar. Ushbu kengaytmali fayllarning xajmi .doc kengaytmali fayllar xajmidan bir necha barobar katta.

Nazorat savollari:

1. SHrift tushunchasi.
2. Xarf ingichkaligi.
3. Xarf rangi.
4. Xarf soyasi.
5. BITMAP shrifti.
6. VECTOR shrifti.

Topshiriq variantlari:

1. BITMAP shriftini yarating.
2. VECTOR shriftini yarating.

Ishni bajarish tartibi

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog'oz variantda topshirish.

8-Laboratoriya mashg'ulot

Mavzu: Audio fayllar va tasvirdan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni audio fayllar va tasvirni tajribada ishlatalish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma'lumotlar:

Inson qo`log`i 20 Gs dan 20 KGs gacha bo`lgan chastotalarni eshitishi mumkin. Tabiiy ovoz bu analogdir, kompyuterdagи ovoz bu raqamlidir.

Analog tovushni raqamli tovushga o`taqazish uchun semling qilish lozim. Audio xolatidagi sempling tezligi 44.1 KGs, 16 bit chiziqli qiymatdan foydalaniladi.

Audio fayllarni saqlash usullari.

Wave usulidan foydalanib saqlangan fayllar: WAV, VOC, AU, AIFF (Audio Interchange File Format).

MIDI usulidan foydalanib saqlangan fayllar: MID, RMI, MOD.

Kompyuterda eng ko`p tarqalgan audio fayllar Maykrosoftning RIFF usulidan foydalanishadi. Kompyuterda Wave fayllarini yaratish uchun Ovoz kartasi kerak. Ovoz kartasi kompyuterga o`rnatilgandan so`ng mikrofon yordamida ovoz kiritiladi, so`ng kiritilgan ovoz maxsus dastur yordamida Wave fayliga o`tqaziladi. Sxema quyidagicha bo`ladi:

Ovoz kartasi / Mikrofon / Audio bilan ishlovchi dastur / Ovoz

Mikrofon o`rniga musiqa ijro etadigan qurilmani ulagan holatda musiqa ma'lumotlarini saqlash mumkin.

Ovoz kartasi analog signalni raqamli signalga aylantiradi. ADC (Analog to Digital Converter) vazifasini bajaradi.

Microsoft Windowsda Wave fayl kengaytmasi sifatida .wav hisoblanadi. Wave fayl yaratish va ijro etish uchun Microsoft Windowsda maxsus dastur (Sound Recorder) mavjud.

PCM va ADPCM usullari.

Analog audioni PCM usuli bilan sempling qilinganda hajm kattalashib ketganligi sababli ADPCM usulidan foydalaniladi.

PCM usulidan CD yoki DAT (Digital Audio Tape) kabilarda foydalaniladi.


ADPCM (Adaptive Differential Pulse Code Modulation) usulini IMA (Interactive Multimedia Association) taklif qilgan.

8 bit mono: 8 bit sempl, mono (chap yoki o`ng emas)

8 bit stereo: 8 bit sempl, chap va o`ng kanal

16 bit mono: 16 bit sempl, mono

16 bit stereo: 16 bit sempl, o`ng va chap kanal



WAV faylini ijro etish

MP3 formati.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Internetning ommaviy lashishi bilan birga hozirgi kunda insonlar orasida muhim o`rin tutadi. Hajmi kichik bo`lganligi sababli CD ga 150 dan ortiq kiritish mumkin. Televiedenie va radioda keng foydalaniladi.

AU formati.

Mu-law siqish usulidan foydalanish Unix muhitida anchadan buyon foydalanib kelinadi. Vebda keng ishlataladi. Sifati bir muncha pastroq.

Mikser bir xil stereoli turli xil cholg`u asboblaridan chiqqan audioni birlashtirishdir.

Tasvir haqida umumiy tushunchalar.

Tasvir 2 va 3 o`lchamli bo`ladi.

Bitmap usuli. Nuqtalarning to`planmasidan iborat. Xotiradan katta joy oladi. Tasvirni kattalashtirganda sifat buziladi.

Vector usuli. Matematik funksiyalar bilan yasaladi.

JPEG - Joint Photographic Experts Group keng tarqalgan siqish usuli.

JPEG vebda keng tarqalgan. HUFFMAN kodlashtirish, JPEG ketma-ketligi va 8 bit semplingdan foydalanadi.

GIF (Graphical Interchange Format) - CompuServ Corporation yaratdi.

Nazorat savollari:

1. Audio fayllarni saqlash usullari.
2. Wave usuli.
3. WAV formati.
4. VOC formati.
5. AU formati.
6. AIFF formati.
7. MIDI usuli.
8. MID formati.
9. RMI formati.
10. MOD formati.
11. PCM usuli.
12. ADPCM usuli.
13. MP3 formati.
14. Tasvir haqida umumiy tushunchalar.
15. Bitmap usuli.
16. Vector usuli.

Topshiriq variantlari:

1. Wave usuli bilan maxsulot yarating.
2. WAV formati bilan maxsulot yarating.
3. VOC formati bilan maxsuot yarating.
4. AU formati bilan maxsulot yarating.
5. AIFF formati bilan maxsuot yarating.
6. MIDI usuli bilan maxsuot yarating.
7. MID formati bilan maxsuot yarating.
8. RMI formati bilan maxsuot yarating.
9. MOD formati bilan maxsuot yarating.
10. PCM usuli bilan maxsuot yarating.
11. ADPCM usuli bilan maxsuot yarating.
12. MP3 formati bilan maxsuot yarating.

13. Bitmap usuli bilan maxsuot yarating.
14. Vector usuli bilan maxsuot yarating.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kerakli dasturni kompyuterga o`rnatish.
2. O`rnatilgan dastur bilan ishlash.
3. Biror bir multimedia maxsulotini yaratish.
4. Bajarilgan ishlarni xisobot shaklida elektron va qog'oz variantda topshirish.

9-Laboratoriya mashg'ulot

Mavzu: Video va video fayllardan tajribada foydalanish (2 soat)

Ishning maqsadi:

Tajriba ishining asosiy maqsadi talabalarni video va video fayllarni tajribada ishlatish amaliy ko`nikmalarini hosil qilish.

Zaruriy nazariy ma`lumotlar:

Kamera yerdamida 2 o`lchamli tasvirlarni shakllantirish mumkin. Demak kamera raqamli va analog bo`ladi. Kompyuterdagи video faqat raqamlidir.

Video va to`xtatilgan tasvir

Vaqtning o`zgarishiga qarab tasvir xam o`zgaradi. Freym videoning to`xtatilgan bir bulagi.

Kenglik. Birlik vaqt ichida ma`lumotni jo`natish va qayta ishlash qobiliyati. Kenglik qiymati katta bo`lsa yanada videoni yaxshiroq ijro eta oladi. 24 bit TRUE rang bo`lgan 640X480 resolyushinli tasvirni 30 freym/soniya tezlik bilan ijro etilganda kenglikni xisoblang. (640X480X24X30)/8 bayt/soniya q 27 Mbayt/soniya bo`ladi.

NTSC AQSHlarida rangli va oq-qora tartibni birga ishlatib bo`ladigan qo`shma usuldir. U eng keng tarqalgan foydalanish usulidir.

PAL yevropadagi taskilot yaratgan maxsus usuldir.

SECAM - NTSC va PAL usullaridan farq qiluvchi usuldir. Ushbu usulda rang stabil bo`ladi. Jo`natuvchi va qabul qiluvchi murakkabdir. Qurilmaning zichligi va namoyish kengligi kichrayadi. Oq-qora TV bilan ma`lumot olib bo`lmaydi, faqatgina rangli TV bilan ma`lumot oladi. Ushbu usulni Fransiya yaratgani.

HDTV – avvalgi TVning vertikal yeki gorizontal imkoniyatini ko`paytiradigan TV usuli. AQSHda HDTV, NTSC bilan birgalikda qo`llaniladi. yevropada HDTV, PAL bilan birgalikda foydalaniladi. Yaponiya mamlakati HDTV usulidan foydalanib yuqori sifatli TV xizmatini ko`rsatmoqda.

Kompyuter video signal. RGBning 3 xil rangini ifodalashda ushbu usuldan foydalaniladi.

Video – kamera yerdamida rasmga olib uni taxrirlash natijasida yaratiladi.

Animasiya – sun`iy ravishda kompyuter yerdamida yaratilgan.

AVI (Audio Video Interleaved - .avi). Windowsda birinchi bo`lib foydalangan format. Audio va video mazmunini o`zida saqlaydi. Xajmi katta bo`lganligi sababli veb brauzerda uni qo`rib bo`lmaydi. Uni qo`chirib olib keyin ko`rsa bo`ladi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Streaming video format. AVI fayli kabi uni veb saxifada ko'rish uchun to'liq ko`chirib olish shart emas.

Veba asoslangan Streaming video format. VODLive, VIVO Active, RealMedia.

MPEG: Motion Picture Experts Group, *.mpg kengaytmasi shaklida bo'ladi.

MPEG-1: VHS tape, 1.5MB/s

MPEG-2: HDTV, 3~4MB/s - merged with MPEG3

MPEG-4: multi-media communication /64Kbps

MPEG-7: for searching the multi-media data(MMDB)

MPEG-21: multimedia framework standard for multi-media contents commerce (MM contents creation, transaction, management, consumption)

QuickTime - Apple firmasi yaratgan Macintosh/Windows Multimedia System expansion File.

*.mov Quick Timedan foydalangan fayl format. AVI bilan birga kodekdan foydalaniladi. Macintosh va Windows muxitining barchasida foydalanish mumkin. Boshka uskunaviy ta'minot bo`lmasa xam videoni ko'rish mumkin.

FLI/FLC fayli. Autodesk firmasiining Animation fayl formati. Dunedagi eng birinchi Animation fayl. Ovoz chiqmaydigan, ammo 320x200 o'lchamli ekranda 256 xil rangli bir soniyada 10 ta freym tezligida bo'ladi.

Adobe Premiere dasturi. FLI/FLC File ◊ AVI o`zgarish imkoniyati, AVI yeki GIF File ◊ FLC yeki FLI ga o`zgarish imkoniyati

Nazorat savollari:

1. Video tushunchasi.
2. NTSC usuli.
3. PAL usuli.
4. SECAM usuli.
5. HDTV usuli.
6. AVI formati.
7. Streaming video format.
8. QuickTime formati.
9. FLI/FLC fayl formatlari.

Topshiriq variantlari:

1. NTSC usulini o`rganib chiqing.
2. PAL usulini o`rganib chiqing.
3. SECAM usulini o`rganib chiqing.
4. HDTV usulini o`rganib chiqing.
5. AVI formatini o`rganib chiqing.
6. Streaming video formatni o`rganib chiqing.
7. QuickTime formatini o`rganib chiqing.
8. FLI/FLC fayl formatlarini o`rganib chiqing.

Ishni bajarish tartibi:

1. Internet, Multimedia sohasida faoliyat olib boruvchi rivojlangan davlatlarning ta`lim maskanlarida yaratilgan adabiyotlardan foydalanib ma`lumot izlash va to`plash.
2. To`plangan ma`lumotni o`zlashtirish va asosiy mazmunini ajratib olish.
3. Xisobot shaklida elektron va qog`oz variantda topshirish.

3. MAVZULAR BO‘YICHA TESTLAR

... – bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo‘lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animastiyani (multiplekastiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi.

Multimedia

Multimedia mahsuloti

Multimedia texnologiyasi

Multimedia vositalari

axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinastiyasida xavola qila oladi.

Multimedia texnologiyasi

Multimedia

Multimedia mahsuloti

Multimedia vositalari

HD DVD disklardagi axborotlar bir qatlamlı diskda nechchi Gbaytni tashkil qiladi?

15 GB

10 Gb

18 GB

20 GB

Blu-ray Disc dagi axborotlarni o‘qishda qisqa to‘lqinli lazer nechchi nm (nanometr) ni tashkil qiladi.

405 nm

650 nm

520 nm

780 nm

Blu-ray Disc disklardagi axborot hajmi ikki qatlamlı diskda nechchi Gegabaytni tashkil qiladi?

50 Gb

30 Gb

40 Gb

60 Gb

... – multimediali texnologiya; tasvirning harakatlanayotganligini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi.

Animastion roliklar

Taqdimot/prezentastiylar

O‘yinlar

Videoilovalar

... – harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqish texnologiyasi va namoyishi.

Videoilovalar

Taqdimot/prezentastiylar

Animastion roliklar

O'yinlar

... – bu elektrik signal amplitudasining diskret sonlar bilan ifodalanishi.

Raqamli tovush

Multimedia-galereyalar

Web uchun ilovalar

Animastion roliklar

«Virtual borliq» atamasi nechinchi yilda kim tomonidan o'ylab topilgan?

1970 yillarning oxirida Djaron Lanir tomonidan

1980 yillarning oxirida Bill Geyts tomonidan

1990 yillarning oxirida Stiv Djobs tomonidan

2000 yillarning oxirida Mark Stukerberg tomonidan

DVD diskdagи axborotlarni o'qishda qisqa to'lqinli lazer nechchi nm (nanometr) ni tashkil qiladi.

650 nm

520 nm

405 nm

780 nm

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish necha bosqichda amalga oshiriladi, ularning asosiyлари qaysilar?

7 ta: Rejalashtirish. Elementlarni i/ch. Dasturiy ta'minot. Tekshirish. E'lon qilish. Reklama. Kuzatuv.

4 ta: Rejalashtirish. Elementlarni i/ch. Dasturiy ta'minot. Tekshirish.

5 ta: Rejalashtirish. Elementlarni i/ch. Dasturiy ta'minot. Tekshirish. E'lon qilish.

6 ta: Rejalashtirish. Elementlarni i/ch. Dasturiy ta'minot. Tekshirish. E'lon qilish. Reklama.

Ushbu bosqich multimedia ilovasi sahifalarini yaratishni o'z ichiga oladi.

Dasturiy ta'minot

Rejalashtirish

Elementlarni ishlab chiqish

Tekshirish

... – bu diskret qiymatlar ketma-ketligini kodlash jarayoniga tayyorlash.

Kvantlash

Diskretlash

Kodlash

Tiklash

.... – bu mashina kodidan diskret qiymatlar shkalasini hosil qilish

Dekodlash

Diskretlash

Kvantlash

Tiklash

Kvazivideo videoqatorda fototasvirlar ketma-ketligi sekundiga nechta kadrni tashkil qiladi?

- sekundiga 6—12 kadr
- sekundiga 4—8 kadr
- sekundiga 4—10 kadr
- sekundiga 6—10 kadr

... – bu videoaxborotni raqamli ko‘rinishidagi standart hisoblanadi. Ular bir biridan ma’lumotni berish usuli va siqilish darajasi bilan farqlanadi.

Video format

Montaj

Audiotizim

Animastiya

.... - lotincha "....." so‘zidan olingan bo‘lib - rux, jon ma’nosini bildiradi (ruxlantirish, jonlatirish).

Animastiya

Montaj

Video format

Audiotizim

... - bu texnologiya kadrlar ketma-ketligini aniqlashdan tashqari tovush parametrlarini o‘zgartirish, sozlash, qo‘sish kabি imkoniyatlarni beradi. Kompyuter imkoniyati videokadrlarga qo‘sishimcha effektlarni qo‘sish olib tashlash imkoniyatini beradi.

Chiziqli bo‘lmagan montaj

Video

Videoyozuv

Chiziqli montaj

... - bu videosignal yoki videoma'lumotlarning raqamli oqimi shaklidagi vizual axborotni fizik axborot tashuvchiga saqlash maqsadida yozishning elektron texnologiyasidir.

Videoyozuv

Video

Chiziqli montaj

Chiziqli bo‘lmagan montaj

... - bu shahsiy kompyutering qattiq diskiga dastlabki videomaterialni kiritish. Videomateriallarning manbasi bo‘lib videomagnitofon, raqamli DV, Digital 8 videomagnitofonlari yoki telekamera, videokamera, vebkameralaridan real vaqtida qabul qilingan videosignallar hisoblanadi

Qabul qilish (zaxvat)

Rendering

Tahrir

Filmni e’lon qilish

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

.... - bu rejalashtirilgan loyixa to'liq bajarilganida, mos keluvchi formatda videokasseta, VSD disk, va S-VSD disk, DVD disk, AVI, MPEG, Real Video, Windows Media fayliga filmni yakuniy varianti uzib olinadi.

Filmni e'lon qilish

Rendering

Qabul qilish (zaxvat)

Tahrir

... – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animastiya, rasmlar va slaydlar galereyasи, turli ma'lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir.

Multimedia mahsuloti

Multimedia

Multimedia texnologiyasi

Multimedia vositalari

...- bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animastiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi

Multimedia vositalari

Multimedia

Multimedia mahsuloti

Multimedia texnologiyasi

HD DVD disklardagi axborotlar ikki qatlamlı diskda nechchi Gegabaytni tashkil qiladi?

30 GB

20 Gb

36 GB

40 GB

Blu-ray Disc disklardagi axborot hajmi bir qatlamlı diskda nechchi Gegabaytni tashkil qiladi?

25 Gb

15 Gb

20 Gb

30 Gb

.... – audiovizual vositalardan foydalanib ko'rgazmali shaklda ma'lumot taqdim etish shakli.

Taqdimot/prezentasiyalar

Animastion roliklar

O'yinlar

Videoilovalar

... - dam olish, ko'ngil ochish ehtiyojlarini qondirish, organizmdagi zo'riqishni yo'qotish hamda ma'lum malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan multimedia ilovalaridandir.

O'yinlar

Taqdimot/prezentasiyalar

Animastion roliklar

Videoilovalar

... – tovush jo'rligidagi harakatlanuvchi suratlar to'plami.

Multimedia-galereyalar

Audioilovalar

Web uchun ilovalar

Animastion roliklar

... – bu alohida veb-sahifalar, uning tarkibiy qismlari (menyu, navigastiya v.b.), ma'lumot uzatish uchun ilovalar, ko'p kanalli ilovalar, chatlar va boshqalar.

Web uchun ilovalar

Multimedia-galereyalar

Audioilovalar

Animastion roliklar

Virtual borliq turlari nechta va ular qaysilar?

3 ta: Passiv, Tekshiriluvchi, Interfaol

3 ta: Statik, Tekshiriluvchi, Dinamik

2 ta: Passiv, Tekshiriluvchi

2 ta: Passiv, Interfaol

CD diskdagi axborotlarni o'qishda qisqa to'lqinli lazer nechchi nm (nanometr) ni tashkil qiladi.

780 nm

650 nm

520 nm

405 nm

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi.

Elementlarni ishlab chiqish

Rejalashtirish

Dasturiy ta'minot

Tekshirish

... - bu analogli signalni diskret qiymatlar ketma-ketligi shakliga o'tkazish.

Diskretlash

Kvantlash

Kodlash

Tiklash

... – bu raqamli qiymatlarni mashina kodiga o'tkazish.

Kodlash

Diskretlash

Kvantlash

Tiklash

.... – bu analog signalga o‘tish

Tiklash

Diskretlash

Kvantlash

Dekodlash

... - bu ijodiy jarayon bo‘lib, videotexnologiyalar yordamida video mahsulotni yaratish tushuniladi.

Montaj

Video format

Audiotizim

Animastiya

... – bu analogli yoki raqamli audiosignallarni yozish, qayta ishslash uchun qo‘llaniladigan apparat vositalar yirindisi hisoblanadi.

Audiotizim

Montaj

Video format

Animastiya

... bu - tashuvchiga videotasvirlarni yozishdan oldin kadrlar ketma-ketligi montajchi tomonidan belgilanadi.

Chiziqli montaj

Video

Videoyozuv

Chiziqli bo‘limgan montaj

... – bu televideniya tamoyiliga asoslangan tasvirli signallarni shakllantirish, yozish, ishlov berish, uzatish, saqlashning elektron texnologiyasidir.

Video

Videoyozuv

Chiziqli montaj

Chiziqli bo‘limgan montaj

... - bu tayyor bo‘lgan film haqida umumiy ma’lumot. Bu panelda beshta yo‘nalish bo‘yicha qatorlar joylashgan bo‘ladi misol uchun birinchi qator tasvir, ikkinchi qator o‘zini tasvirning xususiy ovozi, uchinchi titr, to‘rtinchi va beshinchisi musiqa uchun ajratilgan bo‘ladi.

Rendering

Qabul qilish (zaxvat)

Tahrir

Filmni e’lon qilish

Y. KEYSALAR BANKI

Vaziyat 1. Pedagog o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo‘llashi maqsadga muvofik. O‘quv moduli vazifasidan kelib chiqib talabalarni o‘qitish jarayonida olib boradigan fanidan elektron ta’lim resursini yaratishi kerak. Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonini chuqur bilgani, talabalar bilan ishslash ko‘nikmalarini qo‘llagan holda multimediali o‘quv modulini yaratish bosqichlarini amalga oshirishi va natijada ohirgi mahsulot multimediali o‘quv mahsulotini taqdim etishi lozim. Yaratiladigan o‘quv moduli uchun dasturiy, texnik ta’minot va usullarni tanlashi, tanlovini tushuntirib berishi lozim bo‘ladi.

Quyidagi savollarga javob berishi kerak:

1. Mavzu qanday taqdim etilishi lozim?
2. O‘quv materialini tinglovchiga etkazishda multimediani qanday qo‘llash kerak?
3. Qanday texnik vositalar kerak bo‘ladi?
4. Multimediali o‘quv materiali yaratishda qaysi dasturiy vositalardan foydalanamiz?
5. O‘quv materialini berishda multimedianing qanday elementlaridan foydalanamiz?
6. Multimediali o‘quv materialining zamonaviy interfeysi va dizayni qanday bo‘ladi?
7. Yakuniy multimediali mahsulot qaysi formatda saqlanadi?
8. Multimediali o‘quv materialining taqdimoti qanday amalga oshiriladi? (uni keng ommaga tanishtirish va imkoniyatlarini reklama qilish)

Keys annotatsiyasi. Bevosita ob'ektida olib boriladigan syujetli, o‘tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi, topshiriq tarzidagi, bosma hamda ko‘p ob'ektli keys ifodalangan.

Uslubiy ko‘rsatma:

- 1) Tinglovchi aniq vaziyatni topishi;
- 2) Tinglovchi asosiy muammoni topishi;
- 3) G‘oyalalar yig‘ishi;
- 4) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalarni izlashi;
- 5) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalalar asosida keys echimini topishi;
- 6) Keys echimi bo‘yicha tavsiyalar berishi kerak.

O‘qituvchi-keysologning keys echimi bo‘yicha varianti:

O‘quv jarayonida qo‘llash uchun multimediali o‘quv modulini yaratish uchun texnik vositalar, dasturiy vositalar va yaratish usullarini tanlash va asoslash lozim

Tinglovchi:

Asosiy muammoni ajratib olish

G‘oyalar

To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalar

Keys echimi

Keys echimi bo‘yicha takliflar

Vaziyat 2. O‘quv modulidan yaratilgan multimediali o‘quv mahsulotining taqdimotini o‘tkazish uchun multimediali taqdimot yaratish kerak. (uni keng ommaga tanishtirish va imkoniyatlarini reklama qilish)

Keys annotatsiyasi. Bevosita ob'ektda olib boriladigan syujetli, o‘tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi, topshiriq tarzidagi, bosma hamda hikoya keys ifodalangan.

Uslubiy ko‘rsatma:

- 1) Tinglovchi aniq vaziyatni topishi;
- 2) Tinglovchi asosiy muammoni topishi;
- 3) G‘oyalar yig‘ishi;
- 4) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalarni izlashi;
- 5) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalar asosida keys echimini topishi;
- 6) Keys echimi bo‘yicha tavsiyalar berishi kerak.

O‘qituvchi-keysologning keys echimi bo‘yicha varianti:

Multimediali ilova muallifi sifatida yaratilgan multimediali o‘quv mahsulotining taqdimotini uchun taqdimot materiallarini yaratish lozim. Bunda taqdimot vaqtga qat‘iy rioya qilingan holda nutqning kirish, asosiy va yakunlovchi qismi yaratilishi maqsadga muvofiq.

Tinglovchi:

Asosiy muammoni ajratib olish

G‘oyalar

To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalar

Keys echimi

Keys echimi bo‘yicha takliflar

Vaziyat 3. O‘quv modulida ovozli elementlarni yaratish kerak. O‘quv materialini tushuntirishda ba'zi bo‘limlari ovozli fayllar bilan boyitish maqsadida pedagog o‘quv materialini ovoz formatida yaratishi lozim.

Keys annotatsiyasi. *O‘tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi, savolli, bosma hamda ko‘p ob‘ektli, hikoya keys ifodalangan.*

Uslubiy ko‘rsatma:

- 1) Tinglovchi aniq vaziyatni topishi;
- 2) Tinglovchi asosiy muammoni topishi;
- 3) G‘oyalar yig‘ishi;
- 4) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalarni izlashi;
- 5) To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalarni asosida keys echimini topishi;
- 6) Keys echimi bo‘yicha tavsiyalar berishi kerak.

O‘qituvchi-keysologning keys echimi bo‘yicha varianti:

Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonida talabalar bilan ishslash ko‘nikmalarini qo‘llagan holda multimediali o‘quv materialining ovozli o‘quv materialini yaratishi lozim.

Tinglovchi:

Asosiy muammoni ajratib olish

G‘oyalar

To‘g‘ri qabul qilingan g‘oyalar

Keys echimi

Keys echimi bo‘yicha takliflar

YI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

“Ta'limda multimedia ilovalari” fanidan mustaqil ishning maqsadi va vazifalari

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o‘quv tarbiya jarayonining axamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o‘rin egallaydi. Taxlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday uquv faoliyati tushunilib, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil egallanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ishlarning ilmiyligi va uning tanqidiy xarakteri;
- mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan extiyojning shakllanishi;
- mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik raxbarlik qilish.

Zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida talabalar quyidagi ko‘nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil faoliyat ko‘nikmalari: asosiy qoida va xulosalarni qisqa, chizma shaklida va ketma-ket yozib borish, o‘quv vazifalari va masalalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash, bilish, tushunish, tanqidiy baholay olish va yetkazib berish, hamda belgilarni yordamida

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

uni referat, xisobot shakliga keltira bilish; qo'yilgan talablarga muvofiq o'z matnini tuza olish. Bu esa talabaning Insert, Toifali sharx qurish kabi ta'lim uslub va vositalarini amalgaloshirishda faol ishtirok etishiga, ma'lumotlarni tizimlashtirish va tizimdan chiqarish, taxlillash va qiyoslashga, o'rganilayotgan tushunchalar (voqealar, hodisalar, mavzular va boshqalar) o'rtasidagi aloqalar va o'zaro aloqalarga, klaster, toifali jadval, kontseptual xarita, SWOT, T-jadval, Venn diagrammasi, piramida, baliq skeletidan foydalangan holda muammoni hal etishni rejalashtirishga tayyor ekanligidan va asoslangan ESSE va o'quv loyihasi bajarilishi to'g'risida hisobot yoza olishiga dalolat beradi;

taqdimot ko'nikmalar: chiqish vaqtida, shu hisobda o'quv topshirig'ini bajarilishi natijalari bo'yicha, talaba o'qituvchi va boshqa talabalar bilan o'zini ishonchli tuta oladi va har xil vositalardan foydalananikmasini egallaydi;

kommunikativ ko'nikmalar: o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'quv munosabatlarini yarata olish xususiyati, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish va murosaga kelish, dialogga qo'shilish, mohiyati bo'yicha savol berish, asoslangan javoblarni berish, qoidaga rioxaliga qilgan holda bahslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish ko'nikmasini egallaydi;

hamkorlikdagi ishlash ko'nikmalar: guruh bilan harakat qilishga tayyor bo'lish – o'quv toshirig'ini bajarish bo'yicha qo'shma faoliyatni jamoali rejalashtirish, umumiy masalalarni yechishda hamkorlik qilish, ishbilarmon sherikchilik va o'zaro aloqada bo'lish;

muammoli holatlarni tahlil qilish ko'nikmalar: o'quv vazifasini yechish, g'oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandard usullarini topish, bu o'z navbatida talabaning muammoli ma'ruza, tahlilda va o'quv holatlarini (Keys stadi) hal etishda faol ishtirokini ta'minlaydi.

ma'lumotlarni qidirish, yig'ish, ishlov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalana olishning amaliy ko'nikmalar: mustaqil ish natijalarini bezash bo'yicha o'quv topshiriqlarini bajarish (nutqlar, referatlar, o'quv loyihalari va boshqalar).

Mustaqil ta'limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalinish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar assosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalinish amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'limning muhim metodlaridan biri talabalarning o'zaro muloqatidir. Mustaqil ta'limning pirovard maqsadi talabalarning ijodiy izlanishiga, o'z ustida ishlashga, xar tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

"Ta'lurma multimedia ilovalari" fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

"Ta'lurma multimedia ilovalari" fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning qiziqishlarini anglash, faolliklarini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

Talabaning mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – KT (Informatika va AT) kafedrasi professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzlusiz o'rganishini tashkil etish, olingen bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa institutda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan – semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini astasekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

"Ta'lilda multimedia ilovalari" fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalaniladi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishslash;
- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujatlarni konspektlashtirish;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to'garaklarida ishtirop etish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislар va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar turar joyidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalangan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirop etish;
- maxsus seminarlar ishlarida ishtirop etish;
- kafedra va fakultetning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirop etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, bunda butun o'quv jarayoni to'laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalansmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtolib o'tamiz.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lган "Komputer grafikasi" fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar ko'rinishida bo'lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishslash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishslash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foya keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, komputer grafikasini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezon qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari hamda bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lган masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislар va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqaqlashgan holda tashkil qilinishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish" bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga riosa qilish maqsadga muvofiqdir:

1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3.Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

Mustaqil isjni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekpertizaga tayyorlash va ekpert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari to'shiriplarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi;
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirish

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yhati mahlum bir tartib asosida tuziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
3. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari;
4. Me'yoriy xujjaatlar, ko'rsatmalar;
5. Davriy nashrlarda chop etilgan kitoblar, maqolalar.

Manbalarning bibliografik qaydida quyidagilar ko'rsatiladi: muallif ismi va sharifi, kitob nomi, chop etilgan manzilgohi, nashriyot nomi va chop etilgan yili. Agarda maqola jurnal (gazeta) da chop etilgan bo'lsa, jurnal (gazeta) nomi, tartib raqami va yili, beti keltiriladi.

Matnlarni taxrir qilish

Referat ravon tilda aniq yozilgan bo'lishi va jalb etadigan ko'rinishga ega bo'lmos'i lozim. So'zlar qisqartirilishiga, faqat umumiyligini qabul qilinganlardan tashqari, shuningdek, xatoliklarga, tushunarsizliklarga, stilistik tafovutlarga yo'l qo'yilmaydi.

Referat ilmiy rahbarga taqdim etilishi holatida xar taraflama maksimal darajada me'yoriga yetkazilgan bo'lmos'i lozim.

Referatni rasmiylashtirish

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan referat kompyuterda 14-shrift, 1,5 interval oralig'ida A4 shaklidagi qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastidan - 2 sm dan kam bo'limgan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Matn sahifalari tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o'tadigan va 3 betdan boshlanishi (birinchi va ikkinchi varaq - bu titul varag'i va ish rejasi bo'lib, nomerlanmaydi) lozim bo'ladi.

Varaq tartib raqami pastga o'rtadan yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Referat hajmi 16-20 betdan oshmasligi lozim.

Referat quyidagilardan:

- 1) titul varag'i;
- 2) har bir savol, savolcha (qism) varag'i tartib raqami ko'rsatilgan ish rejasi;

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- 3) kirish, tartib raqami qo'yilmaydi;
 - 4) manbalarga havolalar keltirilgan savol va savolchalarga (qismlargacha) bo'lingan matn ifodasi;
 - 5) xulosa, tartib raqami qo'yilmaydi;
 - 6) foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
 - 7) jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalar va ilovadan tashkil topadi.
- Ilovalar qat'iy ketma-ket tikiladi.

Talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni taqdimoti

Taqdimot – o'quv (ilmiy) ish haqida og'zagi ravishda habar berish.

Taqdimot o'tkazish shakllari:

Interfaol dialog (masalan, konsalting firmasi – kompaniya vakillari)
Barcha guruh ishtirokchilari so'zga chiqadi
Guruh boshlig'i so'zga chiqadi

Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari quyidagilardan iborat:

- gapi rayotganiningizda doimo ishonchli bo'ling;
- aniq, burro gapiring;
- fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda eting;
- bir maromda va asta gapirmang, ammo nisbatan qattiq gapirmang ham;
- hushmuomali va ziyrak bo'ling, jahldor bo'lmaning;
- doimo kulib turgan holda boshlang va tugating, ammo bunga ortiqcha harakat qilmang;
- quyidagi so'z birikmalarini qo'llamang: "Mumkin bo'lsa", "Uni Kim biladi?", "Mumkin ... " va shu kabilar. Bu kabi jumlalar sizning chiqishingizda o'ziga ishonchlilik bo'lmaslikni keltirib chiqaradi va natijada siz o'zingizga ishonchni yo'qtasiz;
- ko'rish kontakti (bog'lanishi) ni saqlashga harakat qiling – tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
- oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, stol, minbarga tayanmang, qo'lli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o'ynatmang, yuzingizni qog'oz bilan yelpimang va shu kabilar;
- har bir javob va taklifni doimo rag'batlantiring.

Talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni taqdimotida quyidagilarga amal qilish talab qilinadi:

- chiqish reglamentiga rioya qilish;
- chiqish navbatiga rioya qilish;
- gurux a'zolari o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular xatti-xarakatida kelishuvga erishish;
- ma'lumotlar grafik ko'rinishida (sxema, jadval, grafik) taqdim etilishi lozim bo'ladi;
- har qanday grafik ko'rinishidagi ma'lumot sharhlanishi talab etiladi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

- Talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotida quyidagilarga holatni tasvirlash va uni qayta so'zlab berishga;
- ishtirokchilarning so'zga chiqishlaridagi qarama-qarshiliklarga;
- tushunarsiz, noaniq, o'rinsiz iboralarga yo'l qo'yilmaydi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

Nº	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi (soatda)
VI – semester				
1.	Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1,2,3,4 haftalar	1
2.	Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	5,6,7,8 haftalar	1
3.	Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	9,10,11 haftalar	2
4.	Metodik qo'llanmalarni namoyish dasturlari bilan ishlashni o'rganish. Multimedia va Internet.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Misollar yechish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	12,13,14 haftalar	2
VII – semester				
5.	Elektron darsliklar yaratishda qo'llaniladigan dasturlarning yangilari bilan tanishish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1,2 haftalar	2
6.	Zamonaviy axborot texnologiyalarining elektron darsliklar yaratishdagi farqlarini ajratish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	3,4 haftalar	2
7.	Elektron darsliklar yaratish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	5,6 haftalar	2
8.	Grafik loyihalarni yaratishda grafik dasturlaridan foydalanish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	7,8 haftalar	2
9.	Vektor va rastr tasvirlarni yaratish va qayta ishlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	9,10 haftalar	2
10.	Grafik muharrirlardfa shakllar bilan ishlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	11,12 haftalar	1
11.	Gazeta, jurnal, buklet, sayt dizaynnini yaratish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	13,14 haftalar	1
Jami				18

YII. GLOSARIY

1. **Administrator** – elektron axborot-ta'lim resurslarini moslashtirish va boshqarish uchun keng huquqlarga ega bo'lgan mutaxassis.
2. **Animatsiya** – dinamik va ovozli jarayonlarni ifodalashga imkoniyat beradigan grafik axborotlarni tashkil etish usuli.
3. **Asinxron** kommunikasiya – axborotlarni vaqt bo'yicha kechiktirib almashish imkoniyatini beradigan muloqot vositalari (forum, el. pochta).
4. **Axborot** – (lat. informatio – tushuntirish, bayon qilish) – shartli belgilar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqyealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat'iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma'lumotlar.
5. **Audioanjuman** – tarmoq texnologiyasi tizimi va telefonidan foydalangan holda turli geografik nuqtalarda joylashgan bir qancha shaxslarning ma'lumotlarni ovozli – raqamli ko'rinishda almashinish jarayoni.
6. **Axborot xavfsizligi** – himoyalananayotgan axborotning asosiy uchta: konfidensiallik, yaxlitlik, tayyorlik xossalarni saqlash maqsadida funksional va axborotga kirish imkoniyatlarni chegaralaydigan vazifa.
7. **Bilimlar bazasi** – biror fan sohasiga oid obyektlarning xossalari, jarayon va hodisalarning qonuniyatları haqida ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan, talab etilgan vaziyatlarda ushbu ma'lumotlarni foydalanish qoidalariga ega bo'lgan holda tashkil etilgan bilimlar yig'indisi.
8. **Videoanjuman** – turli geografik manzillardagi foydalanuvchi guruhlari orasida raqamli videoyozuv yoki oqimli video ko'rinishida ma'lumotlarni almashinish asosida yig'ilish va munozaralar o'tkazish jarayoni.
9. **Virtual auditoriya** – o'quv jarayonining o'qituvchisi va boshqaruvchisining maslahatini olish uchun tarmoq texnologiyasi yordamida turli geografik joylarda yashayotgan talabalarni birlashtirish.
10. **Virtual laboratoriya** – o'rganilayotgan haqiqiy obyektlarda bo'layotgan jarayonlarni kompyuter imitasiyasi orqali taqdim etish va masofaviy kirish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturiy majmua.
11. **Virtual haqiqiylik** – o'rganishga mo'ljallangan murakkab jarayonlarda bo'ladigan hodisalarni audiovideo tizimi orqali o'quvchi tassavuridagi mavhum ko'rinishi.
12. **Gipermurojaat** – tagiga chizilgan yoki qandaydir boshqa usulda ajratib ko'rsatilgan so'z yoki jumla bo'lib, gipermatnli tizimning boshqa blok, xujjat, gipermuhit sahifasi, gipermatnni ko'rsatish imkoniyatini beradi.
13. **Gipermatn** – assosiativ bog'langan bloklar ko'rinishida taqdim etilgan (boshqa matnli hujjalarga yo'l ko'rsatuvchi) matn.
14. **Gipermatnli tizim** – elektron hujjalalar kutubxonasini yaratishni ta'minlaydigan vosita.
15. **Gipermedia** – matndan tashqari multimedia imkoniyatlarini ham o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarga yo'l ko'rsatuvchi hujjalalar.
16. **Gipermuhit** – bir-biri bilan assosiativ bog'langan nisbatan katta bo'lmagan bloklar ko'rinishidagi axborotning ixtiyoriy ko'rinishini taqdim etgan texnologiya.
17. **Global tarmoq** – mintaqaviy (qit'alardagi) kompyuterlarni o'zida birlashtirish imkoniga ega bo'lgan tarmoq.
18. **Grafik muharrir** – tasvirlarni taxrir qilishni ta'minlaydigan amaliy dastur.
19. **Guruqli kirish** – bir qancha mijozlarni bir obyekt bilan o'zaro ta'sir qilishi.
20. **Didaktik material** – foydalanylinda o'quvchilarning bilim olishini faollashtirish, o'quv vaqtini iqtisod qilishni ta'minlaydigan o'quv mashg'uloti uchun mo'ljallangan qo'llanmalarning maxsus ko'rinishi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

21. **Didaktik tamoyillar** – natijaviylikni ta'minlaydigan ta'lim jarayoniga qo'yilgan eng umumiyl talablar tizimi.
22. **Didaktik vositalar** – o'quv fanini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi pedagogik vositalar.
23. **Differensiallashgan ta'lim** - o'quvchilarning moyilligi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda o'quv faoliyatni tashkil etish shakli.
24. **Dizayn** – o'quv materialni ifodalash (tavsiflash, namoyish) usuli.
25. **Jarayon** - qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan amallar yig'indisi.
26. **Individual (yakkama-yakka tartibda) masofaviy o'qitish** - telekommunikasiya va ta'limni ta'minlash uchun zarur dasturiy vositalariga ega bo'lgan masofaviy o'qitish.
27. **Intranet** – Internetning ko'pgina funksional imkoniyatlariga ega bo'lgan tashkilot yoki ta'lim muassasasining ichki tarmog'i. Intranet Internetga ulangan bo'lishi ham mumkin.
28. **Internet** – yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'i.
29. **Internetga ulanish** – Internet kanallari orqali axborot resurslaridan foydalanish (ochish, ko'rib chiqish, nus'halash, uzatish va boshqalar) imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuterning ishlash tartibi.
30. **Internet-darslik** – ma'lum fan bo'yicha yagona interfeys bilan ta'minlangan, Internetga joylashtirilgan, doimiy ravishda rivojlanadigan o'quv-metodik majmua.
31. **Internet orqali o'qitish** – o'quv-axborot manbalari va Internet kompyuter tarmog'i orqali o'zaro bir-birlari bilan bog'langan real vaqtidagi o'qitish.
32. **Internetning axborotli qismi** – Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjat, grafik, rasm, audio, video va boshqa ko'rinishidagi axborotlar majmui.
33. **Internetning dasturiy ta'minoti** – tarmoqqa ulangan kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashi, aloqa kanallari yordamida ma'lumotlarni qidirish, qayta ishslash, saqlash hamda tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarini amalga oshiruvchi dasturlar majmui.
34. **Internetning texnik ta'minoti** – turli rusumdagagi kompyuterlar, aloqa kanallari, tarmoq texnik vositalari majmui.
35. **Interaktiv o'zaro aloqa** – elektron pochta, e'lonlar elektron doskasi, onlayn mavzuli muhokamalar, chat, audioanjuman, videoanjuman, ma'lumotlar va fayllar bilan almashinish, umumiyl tarmoq ilovasi va boshqalarni o'z ichiga olgan kompyuter bilan o'zaro aloqa qilish, «inson-mashina» muloqoti.
36. **Interaktiv o'quv kurslari** – o'zaro muloqot asosiga qurilgan vositalardan foydalanib tuzilgan kurslar.
37. **Kalendar reja (dars jadvali)** – talabalar mashg'ulotlari grafigini tashkil etish tizimi.
38. **Kompyuter darslik** – o'quv fani yoki uning bo'limini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan dasturiy-metodik majmua. Kompyuter darsligi o'zida oddiy darslik, ma'lumotnomalar, masalalar va misollar to'plami, laboratoriya amaliyotlarining xususiyatlarini birlashtiradi.
39. **Kommunikasiya tizimlari** – tarmoqdagagi kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash va bog'lanishlarni kommutasiya qilish vazifasini bajaradigan tizimlar.
40. **Kompyuter tarmoqlari** – apparat qurilmalari va tarmoq dastur ta'minoti orqali o'zaro muvofiq ravishda ishlay oladigan kompyuterlar majmui.
41. **Kontent** – kursning barcha o'quv materiallari, qo'llanmalari, hujjatlari, vazifalari, testlar va nazorat meteriallarni qamrab oluvchi kurs mazmuni.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

42. **Kursni individuallashtirish** – har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini tayyorlash jarayoni.
43. **Kurs yakunida o‘tkaziladigan test** – bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasini baholash maqsadida kurs o‘rganilib bo‘lgandan keyin o‘tkaziladigan test sinovi.
44. **Kursni o‘rganish yo‘li (trayektoriyasi)** – kursning o‘quvchini tayyorgarlik darajasiga bog‘liq ravishda aniqlanadigan va o‘quv jarayoniga tadbiq qilinadigan modullari tuzilishi va tartibi.
45. **Masofaviy ta’lim (MT)** – ta’limni masofaviy o‘qitish usul va vositalari orqali tashkil qilish shakli.
46. **Masofaviy ta’lim muassasasi** – masofaviy texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini amalga oshiradigan ta’lim muassasasi.
47. **Masofaviy ta’lim tizimi (MTT)** – masofaviy texnologiyalarni qo‘llab masofaviy ta’limni tashkil etish va amalga oshirishga jalg qilingan o‘quv-tarbiyaviy, tashkiliy, telekommunikasiya, pedagogik va ilmiy manbalar majmuasi.
48. **Masofaviy o‘qitish** – axborot-kommunikasiya texnologiyasi (kompyuterlar, telekommunikasiyalar, multimedia vositalari)ga asoslangan, tegishli me’yoriy hujjatlar asosida tashkillashtirilgan ta’lim shakli.
49. **Masofaviy ta’lim markazi** – ta’lim jarayonining boshqaruv, o‘quv-metodik, axborot va texnik ta’minotini amalga oshiradigan alohida bo‘lim yoki vakolatxona.
50. **Masofaviy o‘qitishning axborot-ta’lim muhiti** – ma’lumot, axborot resurslari, o‘zaro aloqa bayonnomalari, dasturiy va tashkiliy-metodik ta’minotlarni uzatish majmui bo‘lib, foydalanuvchilarini ta’lim ehtiyojlarini qanoatlantirishga mo‘ljallangan.
51. **Masofaviy o‘qitishning dasturiy ta’minoti** – masofaviy o‘qitishni ta’minlovchi dasturiy vositalar va platformalar.
52. **Masofaviy o‘qitishning texnik vositalari** – masofaviy o‘qitishning axborot-ta’lim muhitida o‘quv materiallarni taqdim etish uchun foydalaniladigan texnik ta’minoti.
53. **Masofaviy o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minoti** – masofaviy o‘qitishni didaktik va psixologik talablari asosida shakllantirilgan axborot-ta’lim resurslari, ularni boshqarish tizimi, masofaviy o‘qitish metodlari, testlar va tavsiyalar majmui.
54. **Ma’lumotlar banki** – ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, izlash va qayta ishlashni ta’minlaydigan axborot, texnik, dasturiy va tashkiliy vositalar majmui.
55. **Ma’lumotlar bazasi** – real obyekt va uning qismlari haqidagi tizimlashgan ma’lumotlar to‘plami.
56. **Ma’lumotlar xavfsizligi** – ma’lumotlarni tasodifiy yoki ataylab o‘zgartirish, yo‘q qilish, yoyish, shuningdek, ruxsat etilmagan ma’lumotlardan foydalanishdan muhofaza qilish.
57. **Metodik ta’minot** – kursni o‘rganishga qaratilgan turli axborot tashuvchilardagi o‘quv materiallar, metodik tavsiyalar va maslahatlar.
58. **Muloqot vositalari** – telekommunikasiya (Internet) orqali muloqotni ta’minlash vositalari.
59. **Multimedia** – axborotni (matn, rasm, animasiya, audio, video) ifodalashning ko‘p imkoniyatli taqdim etilishi.
60. **Multimediali darsliklar** – multimedia texnologiyasi yordamida axborot-ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi darslik.
61. **On-line muhokama** – elektron doskalarda biror mavzuni ayni vaqt dagi muhokamasi.
62. **On-line mashg‘ulot** – barcha qatnashuvchi (talabalar va o‘qituvchi)lar Internet orqali axborot almashinish yo‘li bilan o‘zaro aloqa qiladigan o‘quv mashg‘uloti ko‘rinishi.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

63. **On-line** o'qish – Internet texnologiyalariga asoslangan ta'limga muhitidan foydalanib o'quv materiallarini o'rghanish jarayonini tashkil etish usuli.
64. **Oraliq test sinovi** – ta'limga jarayonida bilimlarni nazorat qilish shakli.
65. **Pedagogik axborot texnologiyalari** – kompyuter, tarmoq texnologiyasi va didaktik vositalarni foydalanishga asoslangan texnologiyalar.
66. **Server** – axborot-ta'limga resurslarini tarmoqda joylashtirish va uni tarqatish uchun mo'ljallangan kompyuter qurilmalari majmui.
67. **Sinxron kommunikasiya** – real vaqt rejimidagi muloqot (chat, video-audio konferensiyalar) qilish imkoniyatini beradigan muloqot shakli.
68. **Ta'limga maqsadi** – tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, faoliik va mustaqillikni rivojlantirish, butun dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish.
69. **Tasvir** – o'quvchilar tomonidan ko'rish orqali qabul qilishga mo'ljallangan axborot shakli.
70. **Ta'limga jarayonini masofaviy o'qitish texnologiyasi** – zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib o'quv jarayonini masofadan turib ta'minlaydigan o'qitish usuli va vositalari hamda o'quv jarayonlarini boshqarish majmui.
71. **Ta'limning kompyuter texnologiyasi** - kompyuter texnikasi, kommunikasiya vositalari, shuningdek, axborotlarni ifodalash, uzatish va yig'ish, bilish faoliyatini nazorat qilish va boshqarishni tashkil etish bo'yicha o'qituvchining vazifalarini modellashtiruvchi interaktiv dasturiy mahsulotlar asosida pedagogik sharotini yaratishning metod, shakl va vositalari majmui.
72. **Teleanjuman** – turli geografik joyllashtirilgan ikki va ko'proq foydalanuvchilar guruuhlarini o'qitish maqsadida TV-texnologiyalari orqali axborotlar almashinish shakli.
73. **Tyutor** - auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning alohida turlarini o'tkazib, o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga rahbarlik qiladigan, o'quvchilar tomonidan o'quv rejasini bajarganliklari hamda o'quv materialini o'zlashtirganliklarini nazorat qiluvchi o'qituvchi – maslahatchi.
74. **Foydalanuvchi interfeysi** – foydalanuvchini tizim yoki tarmoq bilan o'zaro ta'sirini aniqlaydigan shakl.
75. **Foydalanuvchilarni qayd etish** – axborot-ta'limga resurslariga kirish huquqini olish uchun foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlarni kiritish jarayoni.
76. **Forum** – sayt orqali muloqot qilish shakli. Forumdagi axborotlarning har biri muallifi, mavzui va o'zining mazmuniga egadir.
77. **Elektron aloqa** – kompyuter tarmoqlari orqali foydalanuvchilarga ma'lumotlarni yetkazib berish.
78. **Elektron darslik** – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi.
79. **Elektron kutubxona** – elektron axborot-ta'limga resurslari majmuasi.
80. **Elektron pochta** – kompyuter tarmoqlari asosida foydalanuvchilar o'rtasida elektron shakldagi matn, tasvir, ovoz, video va boshqa axborotlarni uzatuvchi va qabul qiluvchi vosita.
81. **Chat** – axborot almashish real vaqtda olib boriladigan Internetdagi muloqot.
82. **O'quv materiallarni saqlash texnologiyalari** – o'quv materiallarini axborot tashuvchilarda: chop etilgan mahsulot, audio va videokasetalar, disketalar, disklar, FTR va WWW- serverlarda saqlash vosita va metodlari majmui.

TA'LIMDA MULTIMEDIA ILOVALARI

83. **O'qitishning virtual muhiti** - ta'lism jarayonining barcha ishtirokchilari orasida interaktiv aloqani ta'minlaydigan maxsus o'zaro aloqador va doimiy yangilanib turiladigan o'qitish vositalarining majmuasini tashkil etuvchi ochiq tizim.
84. **IP (Internet Protocol) manzili** – kompyuterning Internet tarmog‘idagi manzili.
85. **ICQ** – Internet tarmog‘ida muloqot uchun yaratilgan tizim.
86. **IMAP** – ma'lumotlarga kirish Internet bayonnomasi.
87. **HTML** – gipermatnli ma'lumotlarni hosil qiluvchi va ular ustida ishlovchi maxsus dasturiy til.
88. **POP** – aloqa xizmat bayonnomasi.
89. **SMTP** – ma'lumotlarni uzatish bayonnomasi.
90. **TCP** – ma'lumotlarni uzatishni boshqarish

YIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning xayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir.–T.: O'zbekiston, 2007.
2. M.M.Aripov va boshk. Informatika. Axborot texnologiyalari: O'quv qo'llanma. 2-qism. - Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteta, 2003. - 426 b.
3. McQuail D. Mass Communication theory. 2nd edition. London, Thousand Oaks, New Delhi, SAGE Publications. 1987.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Assit. Prof. Dr. Mohd. Elmagzoub A. Babiker For Effective Use of Multimedia in Education, Teachers Must Develop their Own Educational Multimedia Applications //TOJET: The Turkish Online Journal of Educational Technology – October 2015, volume 14 issue 4 2015
2. Bent B. Andresen and Katja van den Brink Multimedia in Education Curriculum 2013
3. David Moursund Introduction to Information and Communication Technology in Education 2008
4. Syed Mahbubur Rahman Multimedia Technologies: Concepts,Methodologies, Tools, and Applications //Minnesota State University, Mankato, USA 2008
5. Черных А.И. Мир современных медиа / М.: ГУ-ВШЭ, 2007
6. Бакулов Г.П. Массовая коммуникация. Западные теории и концепции. – М.: Аспект-пресс, 2005. – 176 с.
7. История печати / под ред. Я.Н. Засурского и Е.Л. Вартановой, 1 т., М.: Аспект-пресс, 2001.
8. Белунцов В. медиа компьютерда. Трюклар ва эффектлар (CD-ROM) – М.: 2005
9. ГОСТ 16122-87. Медиа кучайтиргичлар. Акустик улчам усуллари ва параметрлари.
10. Дегтярев И. Cakewalk Sonar. Microsoft Windows XP системасида медиа езиш — М.: 2002

Internet saytlari

1. www.ziyonet.ru
2. <http://startcopy.ru/>
3. <http://www.pcs-service.ru/>
4. <http://sebeadmin.ru/>
5. <http://pc-rep.ru/> Internet saytlari
6. www.ziyonet.ru

7. www.faqs.org.ru
8. www.fump.fizten.ru
9. www.codenet.ru
10. www.dame.mipt.ru
11. www.booket.ru
12. www.intuit.ru

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

1. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/64848>
2. <http://referat.arxiv.uz/index.php?do=files&op=download&fileid=57921>
3. <http://cppstudio.com/uz/post/1980/>
4. <http://namyom.uz/togaraklar/kompyuter/827-dasturlash-tillari-ularning-turlari-va-asoslari-dasturlash-tili.html>
5. <http://ntores.uz/ru/node/240>
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AF%D0%B7%D1%8B%D0%BA_%D0%BF%D1%80%D0%BE%D0%B3%D1%80%D0%B0%D0%BC%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%8F
7. <http://www.linux.org.ru/forum/talks/10935221>
8. <http://bourabai.ru/alg/classification04.htm>
9. <https://toster.ru/q/199615>
10. <https://habrahabr.ru/company/yandex/blog/272759/>

